

Maftuna Safarova



HOZIRGI O'ZBEK TILI

O'QUV QO'LLANMA



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Maftuna Safarova

HOZIRGI O‘ZBEK TILI

*(fonologiya, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya,
frazzeologiya, leksikografiya)*

O‘QUV QO‘LLANMA

*60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) ta‘lim
yo‘nalishi o‘quv rejasi va dasturi asosida yozilgan*

BUXORO – 2023
«DURDONA» nashriyoti

81.2O'zb-923

811.512.133'06(076.5)(075.8)

S 34

Maftuna Safarova

Hozirgi o'zbek tili (fonologiya, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya) [Matn] : o'quv qo'llanma / Maftuna Safarova – Buxoro: «Sadridin Salim Buxoriy» Durdona nashriyoti, - 2023. – 140 b.

UO'K 811.512.133'06(076.5)(075.8)

KBK 81.2O'zb-923

Mas'ul muharrir:

professor. B.E.Kilichev

TAQRIZCHILAR:

A.R.Axmedov

– filologiya fanlari nomzodi, BuxDU dotsenti.

S.S.Ruzinbayev

– filologiya fanlari nomzodi, UrDU dotsenti.

Ushbu amaliy mashg'ulotlar talabalarga fonologiya, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya, leksikografiya bo'yicha olgan bilimlarini sinab ko'rish va tegishli ko'nikmalar hosil qilish uchun mo'ljallangan.

Qo'llanmada har bir mavzu bo'yicha qisqacha nazariy ma'lumot, savol-topshiriqlar hamda test savollari berilgan.

Mazkur qo'llanma BuxDU o'zbek tilshunosligi va jurnalistika kafedrasining yig'ilishida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Buxoro davlat universitetining 2023 – yil 27– iyundagi “354” – sonli buyrug'iga asosan darslik sifatida tavsiya etilgan. Ro'yxatga olish raqami 354 - 34

ISBN 978-9910-736-78-0

© Maftuna Safarova

Shartli qisqartmalar:

A.N. – Alisher Navoiy
A.Q. – Abdulla Qahhor
A.Qod. – Abdulla Qodiriy
A.M. – Asqad Muxtor
M. Ism. – Mirzakalon Ismoiliy
M.Osim – Mirkarim Osim
S. A. – Sadriddin Ayniy
S.Ahm. – Said Ahmad
O. – Oybek
O.M. – Omon Muxtor
O.Y. – Odil Yoqubov
P.T. – Parda Tursun
P.Q. – Pirimqul Qodirov
U.N. – Usmon Nosir
X.T. – Xudoyberdi To‘xtaboyev
Sh.R. – Sharof Rashidov
O‘.Um. – O‘lmas Umarbekov
G‘.G‘. - G‘afur G‘ulom

So‘zboshi

Amaliy mashg‘ulotlari hozirgi o‘zbek adabiy tili kursini o‘qitish va o‘rganishning ijodiy xarakterdagi ilmiy-amaliy ko‘rinishidir. Unda kursning munozarali masalalari izchil o‘rganiladi. Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlarda o‘zlashtirilgan bilimlar sistemasi maxsus adabiyotlarni o‘rganish orqali mustahkamlanadi. Har bir talabani mustaqil fikrlash, qiyoslash, tahlil etish, topshiriqlarni mustaqil bajarish va so‘roqlarga aniq javob topishga hozirlash amaliy mashg‘ulotlarining asosiy maqsadidir.

Mashg‘ulotning bu turida talaba bilan individual ishlashga, faolligini oshirishga, dars va undan tashqari paytda bajaradigan ijodiy ishlarini nazorat qilishga, bu boradagi faoliyatining samaradorligiga alohida e’tibor beriladi.

Qo‘llanma «Hozirgi o‘zbek tili» dasturi (Toshkent, 2001) va amalda mavjud darslik, o‘quv qo‘llanma va ma’ruza matnlari asosida tuzildi. Kursning fonoloyiya, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya, frazeologiya va leksikografiya bo‘limlari bo‘yicha mavzular rejalashtirildi. Rejalarni tanlashda amaldagi dastur va amaliy mashg‘ulot talablariga tayanildi. Bunda tilning asosiy birliklari – fonema, morfema, leksema, frazemaning bahstlab nazariy-amaliy xususiyatlarini o‘rganish bosh maqsad qilib belgilandi.

Amaliy mashg‘ulotlarining mundarijasida mavzu, maqsad, uning tanlanish asosi ko‘rsatildi. «Savollar» qismida topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishni osonlashtiradigan nazariy savollar va bu savollarni asoslaydigan adabiyotlar (har bir bo‘lim oxirida sahifasi ko‘rsatilgan holda) tavsiya qilindi.

Amaliy ishda mavzuning mundarijasi bilan bog‘liq topshiriqlar berildi. O‘n variantdan iborat topshiriqlar didaktik prinsiplar asosida tuzildi va ular uchun bog‘liq (yaxlit) matnlar, ba’zan terma gaplar, o‘rni bilan alohida til birliklari tanlandi.

Ma’ruza va amaliy mashg‘ulotlar o‘tib bo‘lingach, amaliy ish bajariladi. Uy vazifasidagi savollarga javoblar qisqa, aniq bo‘lishi lozim. Mashg‘ulotning boshlanish qismida o‘qituvchi uy vazifasining bajarilishini aniqlaydi, savol-javob orqali talabalarning amaliy ishni bajarishga tayyorligini sinab ko‘radi, tegishli yo‘l-yo‘riqlar beradi. Mashg‘ulotning asosiy qismi topshiriqlarni bajarishga qaratiladi. Guruh ikkiga bo‘linib, har ikki talabaga bir variant ajratiladi. Har bir talaba belgilangan variantni mustaqil bajaradi. O‘qituvchi topshiriqlarning bajarilishini nazorat qilib boradi, ularga amaliy

yordam beradi. Talabalar topshiriqlarni auditoriyada bajarib ulgurmasalar, uni uyda yoki axborot-resurs markazida davom ettirib yakunlashlari, navbatdagi amaliy mashgʻulot boshlanguncha oʻqituvchiga topshirishlari mumkin.

Topshiriqlarning ijrosi tekshiriladi va joriy nazorat sifatida baholanib boriladi. Baholashda talabanning masalaga ijodiy yondashganligi, oʻzlashtirish darajasi va amaliyotda qoʻllay bilishi, umumlashtirishi va fikrlarini bayon eta bilishi, lingvistik bilimlar diapazoni hisobga olinadi.

Oʻquv qoʻllanmada keltirilgan qisqacha nazariy maʼlumotlar R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, G.Boqiyeva, M.Qurbonova, Z.Yunusova, M.Abuzalova “Hozirgi oʻzbek adabiy tili”. Darslik. (–T., 2009. – 210 b.) va Sh. Rahmatullayev “Hozirgi adabiy oʻzbek tili”. Darslik. (–T.: Universitet, 2006. – 450 b.) asarlaridan olindi.

I-qism

1-AMALIY MASHG‘ULOT

FONEMALAR TASNIFI

Maqsad: tovush, fonema va harf haqidagi bilimlarni mustahkamlash, ularning turlari, variantlari haqida bilimlarni chuqurlashtirish. Undosh fonema haqidagi bilimlarni mustahkamlash.

Tanlanish asosi. Unlilar va undoshlar sistemasi va ularning nutq jarayonidagi holatlari. Undoshlar sistemasi va ularning hozirgi o‘zbek tili fonologik sistemasidagi nazariy ham amaliy ahamiyatga ega.

O‘zbek tilining fonetik paradigmasi deganda har biri o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan barqaror umumiy belgi ostida birlashadigan fonetik unsurlar tizimdir. Bu butunlik yoki paradigma ichida ayrim belgilari bilan umumiylikni tashkil etgan va umumiylik uchun asos bo‘lgan belgilari bilan boshqa shunday umumiylikdan farq qiladigan kichik butunliklardan, paradigmalardan iborat bo‘ladi. Bu tizimchalar unli va undosh fonemalar paradigmalari hisoblanadi. Bu paradigma a‘zolarining umumiy belgilari ularni shu tizimni tashkil etishini ta‘minlasa, farqlovchi belgilari bu ichki paradigmaning yana kichik bo‘laklarga bo‘linib ketishiga olib keladi. Jarangli undoshlar paradigmasi, jarangsiz undoshlar paradigmasi singari.

Tilning ko‘tarilishi darajasi (yuqori, o‘rta quyi) lablanish-lablanmaslik belgilari kuchli pozitsiyadagi unli fonemalarning asosiy belgilari bo‘lib, bu ularning sistema hosil qiluvchi belgilari hisoblanadi. Unlilarning til gorizontol holatiga ko‘ra (old qator, o‘rta qator va orqa qator) belgilari asosiy hisoblanmaydi. Chunki bu belgilar ularga nutqiy yondosh tovushlar ta‘sirida o‘zgarib turadi. Masalan, [q] undoshi bilan qo‘shnichilik munosabatida [a] unlisi til orqalik xossasiga egalik bo‘lsa, [k] undoshi qurshovida o‘z holatini saqlaydi.

Unli fonemalarning asosiy belgilariga ko‘ra tasnifi quyidagicha:

Unli fonemalar	Asosiy belgilar				
	Tilning ko‘tarilish darajasi			Lablanish belgisining mavjudligi	
	Yuqori	O‘rta	Quyi	Lablangan	Lablanmagan
[i]	+				+
[u]	+			+	

[oʻ]		+		+	
[o]			+	+	
[e]		+			+
[a]			+		+

Jadvaddan koʻrinib turibdiki, tilning koʻtarilish darajasiga koʻra unli fonemalar uch pogʻonali, lablanish belgisiga koʻra ikki pogʻonali sistemalarni hosil qiladi.

Unli fonemalar yaxlit tizimni tashkil etib, bu tizim ham oʻz navbatida tizimchalarga boʻlinadi. [i] va [u] fonemalari «yuqori tor» belgisi ostida birlashib, bunday belgiga ega boʻlmagan fonemalardan ajraladi. Biroq [i] va [u] kichik paradigmasi aʼzolari farqlovchi belgilari ([i] - lablanmaganlik va [u] - lablanganlik belgilari) asosida oʻz mustaqilliklarini saqlab qoladi va ziddiyatda turadi. [e] - [oʻ] tizimchasi «oʻrta keng» belgisiga koʻra [i] - [u] tizimchasidan ham, [e] - [o] tizimchasidan ham farqlanadi.

Demak, unli fonemalarning har biri ikki belgidan iboratdir:

[i] - yuqori, lablanmagan

[u] - yuqori, lablangan

[e] - oʻrta, lablanmagan

[oʻ] - oʻrta, lablangan

[a] - quyi, lablanmagan

[o] - quyi lablangan.

Tilning koʻtarilish darajasi birlashtiruvchi belgi boʻlganda (masalan, [i], [u] unilari «torlik» belgisi ostida birlashadi) lablanganlik - lablanmaganlik farqlovchi belgi sanaladi: [i] - lanlanmagan, [u] - lablangan. «Lablanganlik» birlashtiruvchi belgi boʻlganda, tilning koʻtarilish darajasi farqlovchidir. Masalan, [i], [e], [a] unilari «lablanmaganlik» umumiy birlashtiruvchi belgisiga ega, biroq «yuqori» [i], «oʻrta» [e], «quyi» [a] kabilar fonemalarning farqlovchi belgilari sanaladi.

Maʼlum boʻladiki, oʻzbek tilida unli fonemalar bir belgi asosida uch (tor unilar, oʻrta unilar, keng unilar) va ikki ziddiyatni (lablangan unilar, lablanmagan unilar), ikki belgi («tilning koʻtarilish darajasi va lablangan-lablanmaganlik birga olinadi») asosida olti aʼzoli ziddiyat hosil qiladi.

Undosh fonemalar paradigmasi

Kuchli ziddiyatdagi undosh fonemalarni farqlovchi asosiy belgi quyidagilar hisoblanadi:

- a) hosil bo‘lish o‘rniga ko‘ra;
- b) hosil bo‘ish usuliga ko‘ra;
- d) ovoz va shovqin ishtirokiga ko‘ra.

Hozirgi o‘zbek tilida 24 ta undosh fonema bo‘lib, ularni yuqorida sanab o‘tilgan belgilari bilan quyidagicha ko‘rsatish mumkin. Boshqa sath birliklarida bo‘lgani kabi, fonemalarning asosiy belgilari korrelyativ va korrelyativ bo‘lmaganlarga ajraladi. Ziddiyatda turgan fonemaning birida bor, ammo ikkinchisida mavjud bo‘lmagan belgi – korrelyativ belgi. Masalan, [b]-[p] zidlanishda jarangli-jarangsizlik korrelyativ belgidir. Ammo til oldi va portlovchilik belgisi har ikkala fonema uchun ham xos bo‘lganligi sababli korrelyativ bo‘lmagan belgi deyiladi. Shuningdek, [h] undoshda jarangsizlik belgisi mavjud. Ammo shu belgi asosida uni boshqa fonema bilan zid qo‘yib bo‘lmaydi. Chunki [p] fonemasining jarangli jufti [b] fonemasi. [h] fonemasining esa jarangli jufti o‘zbek tili fonologik tizimida mavjud emas.

O‘zbek tilidagi 8 ta fonema uchun «jarangli-jarangsizlik» korrelyativ belgi hisoblanadi:

[b]-[p], [d]-[t], [k]-[g], [s]-[z], [j]-[ch], [j]-[sh], [g‘]-[q], [v]-[f] «Jarangli-jarangsizlik» belgisi asosida korrelyativ munosabatga kirishmaydigan fonemalarning jarangli yoki jarangsiz jufti bo‘lmaydi. Masalan: [s], [l], [m], [y], [x], [h], [n], [r], [ng]¹.

SAVOLLAR

1. Qanday hodisa tovush hisoblanadi? Ularning qanday turlari mavjud?
2. Fonema va tovush farqlari, ularning kelib chiqishi haqida qanday fikrlar mavjud?
3. O‘zbek tilidagi tovush o‘zgarishlari va uning turlarini tushuntiring.
4. Unli fonemalar va ularning variantlarini tushuntiring. Ular o‘rtasidagi farq nimalardan iborat?
5. Unli fonemalarning oppozitsiya va paradigmalarini tushuntiring.
6. Undosh fonemaning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Mavjud adabiyotlardagi undoshlarga berilgan ta’riflarni izohlang.
8. Undosh fonemalarning oppozitsiya va paradigmalarini tushuntiring.
9. Undoshlarning qo‘sh, takror va qator kelish holatlarini izohlang.

¹ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: 2009. – B. 210. 57-59-betlar.

TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan matnlardan unli va undosh fonemalarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirib bering.
2. Keltirilgan gaplarda uchraydigan unli va undoshlarning ayrimlariga xos oppozitsion va paradigmatic qatorlarni tuzing.

1-variant

I. O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'zbek tilini butun choralar bilan rivojlantiradi va uning siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotning barcha sohalarida amal qilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududida rus tilini SSSR xalqlarining millatlararo muomala tili sifatida rivojlantirish va undan erkin foydalanish ta'minlanadi.

Milliy va rus, rus va milliy tillarda muloqot qilishni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoit yaratiladi.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida yashab turgan barcha millat va elatlar tillarining erkin amal qilishini ta'minlaydi, ushbu tillar ravnaq topishi, ularga hurmat bilan munosabatda bo'linishi uchun tegishli sharoit yaratadi. (O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 1-modda).

II. Tinchlikdir insonning azal orzusi,
Bu orzu insonga tengdir jon bilan.
Himoya qilingan qutluq qon bilan,
Tinchlikdir insonning go'zal orzusi...(U.)

III. 1. G'uborsiz osmonning har yer-har yerida sovun ko'pigidek yengil bulutlar suzadi. (S. A.) 2. To'tiqiz ana shunday bahorlardan o'n yettisini ko'rdi. (M. Ism.) 3. Son-sanoqsiz qizil, ko'k xalqlar ko'z o'ngida muallaq suza boshladi. (U. N.) 4. Ular o'tirishdi-yu, bir-birlarining quloqlariga shiviray boshlashdi. (U. N.) 5. Qudratning yalovbardor ovozi yangradi. (M. Ism.).

2-variant

I. O'zbekiston Respublikasida sudlov o'zbek, qoraqalpoq tillarida yoki o'sha joydagi ko'pchilik aholi tilida olib boriladi. Sud ishlari olib borilayotgan tilni sudda qatnashuvchi kishilar bilmagan taqdirda bu kishilar uchun tarjimon orqali ishga oid materiallar bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi.

O'zbekiston Respublikasida davlat hakamligi mahkamalarida korxonalar, tashkilotlar va muassasalar o'rtasidagi xo'jalik nizolarini ko'rib chiqish, hal qilishda o'zbek tili qo'llanadi. Zarurat bo'lganda

xo‘jalik nizolari millatlararo muomala tilida ham qarab chiqilishi mumkin. O‘zbekiston Respublikasi va boshqa respublikalar korxonalari, tashkilotlari va muassasalari xo‘jalik nizolarini ko‘rib chiqish, hal qilishda ham millatlararo muomala tili qo‘llanadi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 10-modda).

II. Shoirlar ikki xil bo‘ladi: bir xillari poeziya bilan shug‘ullana oladilar, xolos. Boshqa birlaridagi poetik talant ularning butun borlig‘ining qandaydir uzilmas bir qismidir. Birinchi xil shoirlar ba‘zan butun umrlarida bir marta biron chiroyli shoirona fikr aytib qo‘yadilar-da, keyingi asarlarida zaiflashib qoladilar. Ikkinchi xil shoirlar har bir yangi asar yozgan sari tobora yuksaklashib voyaga yetib boradilar. (V. G. Belinskiy).

III. 1. Quyosh tepamizga kelguncha ikki quchoq-ikki quchoq lola terib qo‘ydik (O‘.Um.). 2. Ular qishloqning qoq o‘rtasidan o‘tgan keng asfalt ko‘chaning bu boshidan kirib, u boshidan chiqishdi, bir necha joyda to‘xtab, to‘rt xonali yangi dang‘illama uylarni kirib ko‘rishdi (O.Y.). 3. Turobjon bu o‘ylardan boshi g‘ovlab, tongga yaqin zo‘rg‘a ko‘zi ilindi. (O.Y.) 4. Uning qalbida bir-biriga zid bo‘lgan ikki fikr o‘rin talashardi. (Sh.R.) 5. Bu sandiqning yagona xo‘jayini buvim ekanini, shirinliklarni ko‘z qorachig‘iday ayab saqlashini yaxshi bilaman. (O.)

3-variant

I. Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma‘noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e’tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta’minlash, bu borada, avvalo, o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

II. Baytul hikmat kaliti qo‘liga tekkandan keyin al-Xorazmiy yosh olimlar bilan birga Hindiston, Eron, Iskandariyadan keltirilgan kitoblarni tartibga sola boshladi. Ikki-uch yil ichida Baytul hikmatdagi kitoblar joy-joyini topdi, shundan keyin u xotirjam bo‘lib, hind hisobi bilan shug‘ullana boshladi (O.Y.).

III. 1. O‘zbekistonning jo‘shqin, sho‘x bahori cho‘lga gul va ko‘kat sepini yoydi. (O.) 2. Kampir ko‘zlarini ochdi va ro‘parasida jilmayib turgan yigitga tikildi. (O.) 3. Bu gap Qalandarovga yashinday tegdi. (A. Q.) 4. Ismoiljon ilgari faollar bilan birga idoradagi barcha hisobotlarni o‘rganib chiqdi. (A.Q.) 5. Atrofdagi yoshroq ayollar Sanam xolaning gapini ma’qullab qo‘yishdi. (P.T.).

4-variant

I. O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an’ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta’minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e’lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ma’qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilsin va uning tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish kabi... (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

II. Oradan asrlar o'tdi. Fan tanazzulga uchrab, ilm ahli bo'yniga itoat xalqasi tushdi. Chang bosgan ma'rifat xazinalari yevropaliklar qo'lga o'tib ketdi. Xorazmiyning «Al-jabr» deb atalmish ulug' asari XII asrda lotin tilida bosilib chiqdi. Keyincha fransuzlar uni «algebra» deb tarjima qildilar. Asrlar bir-birini quvib o'taverdilar.

III. 1. Shahzodaning aqliga, vijdoniga ta'sir qilishga tirishdi. (O.) 2. Uning o'rnini bosadigan sadoqatli qul kerak edi. (Sh.R.) 3. Meliqul ota xalfaga choy uzatib, to'rtinchi nonni ham sindirib, uning oldiga qo'ydi. (Sh.R.) 4. Bahorning yoqimtoy boqishi, bo'ynini egib, yalinib-yolvorishi oldida Po'lat indolmay qoldi, rozi bo'ldi. (Sh.R.) 5. Chang bosgan daraxtlar go'yo yomg'irga, salqin shamolga intizordek sukut etadi. (P.Q.)

5-variant

I. O'tmish musavvirlarining an'analari ta'sirida yaratilgan eng yorqin asarlar sifatida Chingiz Ahmarovning Alisher Navoiy nomidagi katta akademik teatr zallarini bezab turgan to'rt katta badiiy lavhasini ko'rsatish mumkin. Bu lavhalar ulug' shoirning barhayot g'oyalari singdirilgan «Xamsa» turkumiga kiruvchi dostonlarining eng muhim voqealarini tasvirlaydi (A. Madraimov).

II. 1. Nizomjon Marg'ilonga tushib, uydagi ahvolni tushuntirib ishdan bo'shab keldi, (S.A.) 2. Hozir ayni qishning mavjlarini u o'z yuragining qa'rida yana ham kuchliroq tuydi. (O.) 3. Bir soat nari-berisida etti uxlab tushiga kirmaydigan voqeaning sodir bo'lishi uni esankiratib qo'ygandi. (R.F.) 4. Biz bu yil universitetning birinchi kursiga o'qishga kirish uchun imtihon topshirdik. 5. Katta mehmonxonaga ko'rpachalar to'shalgan, devorga suyab yangi yostiq va bolish qo'yilgan edi (A.Q.).

6-variant

I. Navoiy asarlariga musavvirlar o'tmishda qayta-qayta murojaat qilishgan, ulardan ilhomlanib juda ko'plab va turli saviyada rasmlar yaratganlar. Ammo Chingiz Ahmarov yaratgan rasmlar kompozitsion yechim va ranglar tanlanishida, ko'pchilik obrazlar talqinida zamonaviy monumental rassomlik talablaridan kelib chiqib

yondashilgan hamda zalni bezab turgan ajoyib ganch naqshlar bilan uyg'unlashtirilgan holda yaratilgan (A.Madramov).

II. 1. U kap-katta yigit bo'lib qolgan. Shunga qaramay, uni onasi toychog'im, bo'talog'im deb erkalatadi (M.Osim). 2. Men oyimning uy ishlariga yordam beraman, Ukamni yuvintiraman, kiyintiraman, shuning uchun oyimlar elkamga qoqib, «bolaginam, yordamchi erkatoyim» deb maqtab qo'yadilar (X.T.). 3. Bog'imizga qizg'ish rangli gullardan ham o'tqizdik, ular boshqa gullar orasidan o'zgacha tarovat bilan ko'zga tashlanadi (O.Y.). 4. Uch kundan beri to'xtovsiz yoqqan laylakqor bu past-baland tomlarni go'yo tekislab qo'ygan edi. (SH.) 5. Mirzakarim ismli qirq besh-ellik yoshlar chamasida, qora qosh, dora ko'z, ko'rkam yuz, yaxshigina kiyingan bir kishi edi. (A.Qod.)

7-variant

I. - Oybek prozada shoir-u, poeziyada prozaikdir,- deb yozgan edi Hamid Olimjon. Adabiyotshunoslikda keng tarqalgan bu so'zlarni to'g'ri idrok etish uchun bir muhim masalaga e'tibor berish lozim bo'ladi. Oybek she'riyatida hayotiy tafsilotlar, detallar tasviri keng o'rin egallaydi. Oybek hayotni qunt bilan o'rgangan, sinchkov nazarli ijodkor bo'lgani sababli xalq va mamlakat hayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarni haqqoniy tasvirlay bildi. (N. K.).

II. 1. Ikki xonali ozoda kvartiraning qorday oq koridorida devor soat chiqillaydi. Derazaga tushgan quyosh shu'lasidan soat oynasida yiltillaydi. 2. Qurbon ota ko'ziga bo'shroq ko'ringan har bir odamni ishga solib, hasharga chaqirib, yozgi binoning oldi va atrofiga gullar ekdi, katta-kichik supalar qildi. (A.Q.) 3. U har xil og'ir yumushlarni qilib o'rgangan bo'lsa ham, to'nka kovlamagan edi. (O.) 4. Qorovul kimnidir chaqirdi, allakim bilan gaplashdi. (A.Q.) 5. Tong sadosidan uyg'ongan er-xotin Dadashevlar koridorga birin-ketin chiqdilar-da, odatdagi gimnastika mashqi oldidan derazani katta ochib qo'ydilar.

8-variant

I. Hayot har bir kishi uchun bag'oyat aziz va muqaddasdir. Inson farog'atda yashamoq uchun sidqidildan mehnat qilishi, bilim-ma'rifat egallashi, ezgulik yo'lida tinmay kurashishi va eng muhimi, insoniy-ma'naviy fazilatlar — odob, go'zal axloqda kamolotga erishishi, kamtarinlik sharafiga muyassar bo'lishi ham farz, ham qarzdir. Inson benuqson bo'lishi uchun turmush tajribalarini boshidan o'tkazmog'i, minglab yillar mobaynida jamiyat a'zolari tomonidan yig'ilgan odob me'yorlarini o'zlashtirmog'i zarur. Ba'zi odamlar kishining

ma'naviyatiga qarab emas, uning mansabi, boyligi va foydasi tegishiga qarab hurmat qilishadi. Bu chin insoniylik emas, soxtalikdir (Sh.Orifiy).

II. 1. Yaxshilikka ixlos qo'ysang yomonlikdan xalos bo'lasan (T.M.) 2. Boylikka ega bo'lmaslik yomon, boylikka ega bo'laturib undan odillik bilan foydalana olmaslik undan-da yomonroq (T.M.) 3. Kimki intilmasa u hech narsaga erishmaydi, kimki shijoat ko'rsatmasa u hech narsalik bo'lmaydi, kimki o'zining ma'naviy quvvatidan foydalanmasa bu quvvat uni tark etadi (O.) 4. Inson tili shirin so'z aytib o'likni tiriltirishi yoki zaharli so'z aytib tirikni o'ldirishi mumkin (A.Q.) 5. So'zning xanjar bo'lib kishi qalbiga sanchilib halok etmog'i mumkinligini yoinki tiriklik suvi bo'lib o'likni tiriltira oluvini hazrat Navoiy baytlarida bayon etganlar. Yana donishmandlar aytishganki: Aytgan so'zim xo'jam, aytmaganim qulim. Yana hazrat Umar debdilarkim, Jannatga olib boruvchi ham do'zaxga yetaklovchi ham shu tildir (T.M.) 6. Umar Hayyom hazratlarining bir rivoyatlarida ikki kishi yer talashib biri "shu parcha yer meniki" derkan, boshqasi "yo'q meniki" derkan. Shunda yer tilga kirib: "Talashmanglar ikkoving ham menikisan" degan ekan (T.M.).

9-variant

I. Suqrot hakim aytadi:

— Agar birovni o'zingizga do'st qilmoqchi bo'lsangiz, avval uning tarjimayi holini shunday o'rganing: birinchidan, u kishi yoshlik vaqtida o'z ota-onasiga qanday muomalada bo'lgan? Ikkinchidan, qarindosh va o'rtoqlari uning muomalasidan rozi bo'lganmi? Uchinchidan, u odam yoshlik davrini kechirgandan keyin muomalasi bilan hammani o'zidan bezdirganmi? To'rtinchidan, birov unga yaxshilik qilgan bo'lsa, u odamdan minnatdor bo'lganmi? U ham boshqalarga yaxshilik qilganmi? Beshinchidan, kayf-safo, aysh-ishratga berilganmi? Faqat o'z manfaatinigina ko'zlaydiganmi, yo'qmi? B a y t:

Chin, samimiy do'stki, topmoqlik qiyin,

Gar topolsang, surma qil ko'zga izin.(„Oz-oz o'rganib, dono bo'lur».)

II. 1. Qiz dahlizda, eshik orqasida kuchli hayajon va sarosimada turgan Gulnorni quchoqladi, sekin shivirladi: „Qayg'urmang, opajon. Qora kunlar o'tar, yorug'likka chiqarmiz. Men Sizni sira unutmayman». 2. „U vaqtlar yosh bola edik, — sekin-sekin vazmin gapira ketdi G'ulomjon, — dunyoda o'yin-kulgidan boshqa, yemak-ichmakdan boshqa zarur ishlar, zo'r tashvishlar borligini bilmas edik». (M. Ism.) 3. „Yerning qadri o'tdi-a, — dedi Marat kulib. — Doim uni tepkilab yuramiz-u, bir qadam uzilsak, sog'inib qolamiz». (O.) 4. —

Birovni qidirib yuribsizlarmi? — dedi u yigitlarning qo‘lidagi jomadonlariga qarab (A.Q.)

10-variant

I. Qoraxonning inilaridin ko‘p o‘g‘lonlari bor erdi, anlarni Qoraxondin ayrilur teb, hech kimning ko‘nglina kelmas erdi, anlarning barchalari O‘g‘uzxon qatig‘a keldilar, O‘g‘uzxon anlarg‘a uyg‘ur deb ot qo‘ydilar, uyg‘ur turk tili turur, ma‘nisi sut uydi, sut erkaninda biri birindin ayrilur erdi, qatig‘ bo‘lg‘andin so‘ng biri biriga yopisha turur, bu taqi ayturlarkim imomg‘a uydim, imom o‘ltursa ul turur, tursa turur. Bas yopishqani bo‘lmasmu? Anlar kelib O‘g‘uzxonning etakina ikki qo‘llari birlan mahkam yopishdilar ersa, xon anlarg‘a uyg‘ur tedi, yopishqur temak bo‘lur. (Abulg‘oziy Bahodirxon „Shajarai tarokima“, XVII asr)

II. 1. Qutbiniso bir lagan moshkichiri ko‘tarib, oshxonadan chiqishi bilan: — Chakki qilibsiz, — dedi to‘satdan. (Mirmuhsin) 2. — Ota, suv, suv! — dedim. (I.R.) 3. — Eson-omonmisiz, Qutbinisa, — dedi tomdan turib. — Eson-omonmisiz, Toshbibi, — dedi Qutbinisa. (M.) 4. „Siz topib gapirmaysiz, qopib gapirasiz», — degan edi. (Mirm.) 5. Birov Sotvoldini „Aqlli yigit chiqdi, ilimli odam mana shundoq bo‘ladi» desa, birov Shirmonxonni „Baraka topkur, asl qiz” der edi. (O.M.)

TESTLAR

1-variant

1. Unli va jarangli undosh tovushlardan hosil bo‘lgan so‘zlarni belgilang.

- A) *bolalar, gul, ozod*
- B) *maktab, sabab, maqol*
- C) *mashq, kitob, so‘z*
- D) *paxta, xalq, choynak.*

2. Sirg‘aluvchi tovushlarni toping.

- A) *sh, j, κ*
- B) *s, z, sh*
- C) *s, ch, j*
- D) *m, n, h*

3. Qaysi qatordagi jarangli undoshlarning jarangsiz jufti bor?

- A) *b, g, d, j, y, l*
- B) *v, g, d, l, m, n*
- C) *b, v, d, z, j, g*
- D) *v, g, d, j, y, m*

4. Qaysi qatorda jarangsiz jufti yo‘q undosh tovushlar berilgan?

- A) *g, g‘, y, l, m, n*
- B) *v, z, j, m, n*
- C) *g, y, l, m, n*
- D) *l, m, n, ng, r*

5. Portlovchi undoshlar yonma-yon kelgan so‘zni toping.

- A) *qing‘ir*
- B) *soxtalik*
- C) *iqtisod*
- D) *hamfikir*

6. Qaysi so‘z tarkibida portlovchi undosh mavjud?

- A) *yuzsiz*
- B) *vositasiz*
- C) *osha*
- D) *foizsiz*

7. Qo‘sh undoshli so‘zlar bilan qator undoshli so‘zlarning farqi berilgan javobni toping.

A) *qo‘sh undoshli so‘zlarda ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi, qator undoshli so‘zlarda esa ikkita har xil undosh bir bo‘g‘inda yonma-yon keladi*

B) *qo‘sh undoshli so‘zlarda ikkita har xil undosh yonma-yon keladi, qator undoshli so‘zlarda esa ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi*

C) *qo‘sh undoshli so‘zlarda ikkitadan ortiq bir xil undosh yonma-yon keladi, qator undoshli so‘zlarda esa faqat ikkita har xil undosh yonma-yon keladi*

D) *qo‘sh undoshli so‘zlarda faqat ikkita bir xil undosh yonma-yon keladi, qator undoshli so‘zlarda esa ikkitadan ortiq har xil undosh yonma-yon keladi*

8. Qator undoshli so‘zlar berilgan javobni toping.

- A) *paxta, nimcha, o‘simlik*
- B) *musht, traktor, krem*
- C) *maslahat, imkon, kompyuter*
- D) *ulkan, foyda, hikmat*

9. Hayotning ko‘p issiq-sovug‘ini ko‘rib, saboq olib, tajribamni oshirdim. Ushbu gapda qanday fonetik o‘zgarishlar kuzatilmoqda?

- A) *1 ta tovush orttirilishi va 2 ta tovush almashishi*
- B) *2 ta tovush orttirilishi va 1 ta tovush almashishi*
- C) *1 ta tovush orttirilishi va 1 ta tovush almashishi*

D) 2 ta tovush orttirilishi

10. Kongress so‘zi tarkibida qanday til undosh tovushlari mavjud?

- A) 3 til orqa, 3 ta til oldi
- B) 4 til orqa, 4 ta til oldi
- C) 2 til orqa, 4 ta til oldi
- D) 3 til orqa, 2 ta til oldi.

2-variant

1. “Fonema” atamasining yuzaga kelishi kimning nomi bilan bog‘liq?

- a) N.Dmitriyev.
- b) Ye.Polivanov.
- c) L.Shcherba.
- d) I.Boduen de Kurtene.

2. Fonema...

- a) tilning fikr ifodalaydigan eng kichik birligi.
- b) so‘z va morfemalarni tashkil etuvchi eng kichik birlik.
- c) leksema va morfemaning bir bo‘lagi.
- d) til eng kichik ma’noli birligi.

3. Fonologiya termini turkiyshunoslikka...

- a) A.Nurmonov ishlari orqali kirib kelgan.
- b) I.Boduen de Kurtene ishlari orqali kirib kelgan.
- c) Ye.Polivanov ishlari orqali kirib kelgan.
- d) N.Dmitriyev ishlari orqali kirib kelgan.

4. Fonologiya termini o‘zbek tilshunosligiga...

- a) A.Nurmonov ishlari orqali kirib kelgan.
- b) I.Boduen de Kurtene ishlari orqali kirib kelgan.
- c) Ye.Polivanov ishlari orqali kirib kelgan.
- d) N.Dmitriyev ishlari orqali kirib kelgan.

5. Fonetika qanday tovushlarni o‘rganadi?

- a) sotsial qiymatga ega bo‘lgan nutq tovushlarini.
- b) tabiatdagi har qanday tovushni.
- c) faqat unli tovushlarni.
- d) barcha undosh tovushlarni.

6. Oppozitsiya nima?

- a) til birliklarining o‘zaro qarama-qarshiligi.
- b) til va nutq birliklarining eng kichik birligi.
- c) fonemalar orasidagi o‘zaro munosabat.
- d) til birliklarining ma’lum zidlikka asoslangan munosabati.

7. Paradigma nima?

- a) til birliklarining nutq birliklariga munosabati.
- b) til birliklarini o‘zaro birlashtiradigan holat.
- c) til birliklarining ma’lum ma’no bilan birlashishi.
- d) til va nutq birliklarining xususiyati.

8. Fonema bir qancha tovushlarda namoyon bo‘ladi va bu tovushlar fonemaning...

- a) ko‘rinishlari hisoblanadi.
- b) variantlari hisoblanadi.
- c) fonemaning o‘zi hisoblanadi.
- d) korrelyatsiya hisoblanadi.

9. Assimilyatsiya hodisasi deb nimaga aytiladi?

- a) nutq tovushlari qator kelganda birining ikkinchisiga ta’sir qilib, uni o‘ziga moslashtirishi.
- b) so‘z o‘zagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi.
- c) so‘z o‘rtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanishi va tushib qolishi.
- d) so‘z boshida ba’zan unli yoki undosh tovushning tushib qolishi.

10. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek alifbosi uchun imlo qoidalari qachon va kim tomonidan tasdiqlandi?

- a) 24-avgust, 1995-yil, Vazirlar Mahkamasi tomonidan.
- b) 21-oktabr, 1995-yil, O‘zbekiston Oliy Kengashi tomonidan.
- c) 15-sentabr, 1994-yil, O‘zbekiston Prezidenti tomonidan.
- d) 10-yanvar, 1996-yil, O‘zbekiston Xalq Ta’limi vazirligi tomonidan.

2-AMALIY MASHG‘ULOT FONETIK HODISALAR TAHLILI

Maqsad: tovushlar, o‘zak va qo‘shimchalarning qo‘llanishida yuzaga keladigan fonetik hodisalarni keng o‘rganish, ularning turlari haqida atroflicha bilimga ega bo‘lish.

Tanlanish asosi. tovushlarining kombinator va pozitsion o‘zgarishlari. Ularning tarkibiy bo‘linishi.

Fonema nutqda voqelanar ekan, uning varianti nutqiy sharoit (yonma-yon kelgan tovushlar yoki qo‘shimchalar ta’siriga uchrashi) tufayli turlicha namoyon bo‘ladi. Natijada, tovush so‘z mohiyatida bo‘lmagan xossalarga ega bo‘ladi. Ayrim tovush yondosh tovushga moslashadi, ayrimida o‘zgarish kuchayib, boshqa tovushga almashib ketadi.

Singarmonizm. Unli va undoshning o'zgarishi farqlanadi. Unlining nutq jarayonida o'zgarishi singlarmonizm deyiladi. Singarmonizm unlilarning moslashishi, uyg'unligi demakdir. U asosan turkiy tillarga xos. Singarmonizmning ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

- a) til garmoniyasi;
- b) lab garmoniyasi.

Til garmoniyasida unli tovush yumshoqlik yoki qattiqlik, til oldilik yoki til orqalik jihatdan bir-biriga moslashadi. Singarmonizmning til garmoniyasi qonuniyatiga ko'ra so'zning boshida til oldi unlisi kelsa, so'z o'rtasi va oxirida ham til oldi unlisi keladi. Boshqacha aytganda, so'zning boshida undoshning artikulyatsion o'rniga bog'liq ravishda unli tovushda yuz bergan o'zgarish so'zning keyingi bo'g'inlaridagi unlida ham yuz beradi. Bu hol so'zning talaffuzida artikulyatsion qulaylikka olib keladi. Masalan, (qalam) so'zidagi (q) undoshi chuqur til orqa undoshi bo'lganligi bois, birinchi bo'g'inda (a) unlisi ham til orqalik xususiyatiga ega bo'ladi. Buning natijasida esa keyingi bo'g'indan (a) tovushi ham til orqa unlisi sifatida namoyon bo'ladi. Demak, birinchi (a) unlisi (q) undoshiga, keyingi bo'g'indagi (a) esa oldingi bo'g'indagi (a) unlisiga moslashadi. Lab garmoniyasida unlining moslashishi, ikki tomonlama bo'ladi. Bunda unli ham til oldi - til orqalik jihatidan, ham lablanganlik-lablanmaganlik jihatidan o'zaro va undoshlarga moslashadi. Bunga ko'ra, so'z boshidagi unli lablangan til oldi unlisi bo'lsa, so'z oxirida ham lablangan til oldi unlisi keladi. So'z boshidagi unli lablangan til orqa unlisi bo'lsa, so'z oxiridagi unli ham lablangan til orqa unlisi bo'ladi. Masalan, (boshqird), (sog'in), (bo'g'in) so'zidagi kabi.

Assimilatsiya. Nutq tovushi qator kelganda ba'zan bir-biriga ta'sir qilib, biri ikkinchisini o'ziga moslashtiradi. Bunday hodisa assimilatsiya deyiladi. Assimilatsiya ikki xil bo'ladi: progressiv va regressiv assimilatsiya. Agar oldingi tovush keyingi tovushni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, progressiv assimilatsiya yuz beradi: ket-di-ketti, ayt-di-aytti, ot-dan-ottan, yurak-ga-yurakka. Keyingi tovush oldingi tovushga ta'sir qilib, uni o'ziga o'xshatsa, moslashtirsa, regressiv assimilatsiya yuz beradi: yigit-chayigichcha, bir-bitta, uch-so'm-ush so'm. Regressiv assimilatsiya, odatda, progressiv assimilatsiyaga nisbatan nutqda kamroq uchraydi. Chunki assimilatsiyaning bu turida keyingi tovush oldingi tovushni o'ziga moslashtiradi. Demak, talaffuz jarayoni boshlanmasdan burun so'zning talaffuz texnologiyasi haqidagi tasavvur bo'lmog'i lozim.

Assimilatsiya to‘liq va qisman bo‘lishi mumkin. To‘liq assimilatsiyada bir tovush ikkinchi tovushga aynan moslashadi va to‘lig‘icha uning tusiga kiradi. Yuqorida keltirilgan so‘zning hammasi to‘liq assimilatsiyaga misol bo‘ladi. Qisman assimilatsiyada nutq tovushidan biri ikkinchisini biron tomondan qisman o‘xshatadi (moslashtiradi): Osh-ga-oshka, ishga-ishka, so‘zlarida jo‘nalish kelishigidagi (g) tovushi oldingi (sh) tovushining ta‘sirida (k) tovushiga aylanmoqda. Bu so‘zda qisman assimilatsiya yuzaga kelmoqda, ya‘ni (g) jarangli tovushi o‘zidan oldingi (sh) tovushiga faqat bir tomonlama – jarangsizlanish tomonidan o‘xshamoqda, xolos, lekin to‘liq uning tusiga kirgan emas. [Uchta] leksemasining (ushta), [pochta] leksemasining (poshta) deb talaffuz qilinishi ham shu hodisaga misol bo‘la oladi.

Dissimilyatsiya. Og‘zaki nutqda tovushlar doimo bir-biriga o‘xshayvermasdan, ba‘zan uning aksi bo‘ladi. Ayrim paytda, talaffuzda ikki o‘xshash tovush bir joyda yoki bir so‘zda kelgan vaqtda biri noo‘xshash tovushga aylanib ham qoladi. Bunday hodisa dissimilyatsiya kabi progressiv va regressiv bo‘ladi. Keyingi tovush noo‘xshash tovushga aylansa, progressiv dissimilyatsiya: zarar-zaral, zarur-zaril, birorta-bironta, muyassarmuyastar, kissa-kista kabi. Oldingi tovush o‘zgarsa, regressiv dissimilyatsiya yuz beradi: koridor-kalidor, ittifoq-intifoq kabi yuz beradi. Dissimilyatsiya hodisasi oz uchraydi. Hatto assimilatsiyaning regressiv turiga nisbatan ham kam yuz beradi.

Metateza – og‘zaki nutqda ba‘zan yonma-yon kelgan undosh tovushlarning o‘rni almashishi mumkin. Bunday jarayon metateza deyiladi: r-y: daryo-dayro: m-g‘: yomg‘ir-yog‘mir, b-r: tebratmoq-terbatmoq: m-l: yamlamoq-yalmamoq: h-v: ahvol-avhol: p-r: tuproq-turpoq, r-g: o‘rganmoq-o‘granmoq: g‘-r: to‘g‘ramoq-to‘rg‘amoq, n-m: aylanmoq-aynalmoq va boshqalar. *Proteza* – so‘z boshida bitta unlining orttirilishi proteza hodisasi sanaladi. Ayrim holatda so‘z boshida sirg‘aluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda i unlisi orttirilishi mumkin: shkaf-ishkaf, spravka-ispravka, stol-istol, stul-istul, shtraf-ishtaraf, stansiya-istansa. *Epenteza* – so‘z boshida, o‘rtasida va oxirida ikki undosh qator kelganda, ular orasida (i), ba‘zan (u) va (a) unlisi orttiriladi: fikr-fikir, hukm-hukum, doklad-dakalad, klass- kilass. *Epiteza* – so‘z oxirida bir o‘rinda kelgan ikki undoshdan so‘ng (a) tovushining qo‘shilish hodisasi: disk-diska, bank-banka, tanktanka, kios-kioska, otpusk-otpuska kabi. *Prokopa* – bunda so‘z boshida

ba'zan unli yoki undosh tovush tushib qoladi : yiroq-iroq, yigna-igna, yig'ach- ag'ach, yirik-irik. Sinkopa – hodisasiga binoan soʻz oʻrtasidagi va oxiridagi keng unli tor unli kabi talaffuz qilinadi va ayrim holatda tushib qoladi: valochka-valichka, traktor-traktir, avtor-avtir, direktor-direktir, generator-generatir kabi. *Apakopa* – soʻz oʻzagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi hodisasidir: doʻst-doʻs, xursand-xursan, gazeta-gazit, smena-smen va hokazo.

Sinerezis – hodisasiga koʻra soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanadi va nutqda tushib qoladi. Ikkinchi unli fonema esa choʻziq talaffuz etiladi: maorif- moorif, saodat-soodat, qiroat-qiroot, jamoat-jamoot. Bu hodisa asl oʻzbekcha soʻzlarga xos emas. *Reduksiya* – soʻzning birinchi boʻgʻinida biror unlining, odatda, tor unlining kuchsizlanib talaffuz qilinishidir. Masalan, bir, bil, til soʻzlari bir boʻgʻinli boʻlganligi va urgʻu shu soʻzdagi (i) unlisiga tushganligi tufayli bu soʻzlardagi (i) unlisi meʼyordagidek talaffuz qilinadi va eshitiladi. Lekin shu soʻzlarning oxiriga ikkinchi bir boʻgʻin qoʻshilishi bilan, urgʻu ham ikkinchi boʻgʻinga koʻchadi. Natijada, birinchi boʻgʻinidagi (i) unlisi kuchsizlanadi va eshitilar-eshitilmas holda sust talaffuz qilinadi: (bilak), (tilak), (biroq). Birinchi boʻgʻindagi urgʻuning ana shunday kuchsizlanib talaffuz qilinishi reduksiya hodisasiga misol boʻla oladi (reduksiya soʻzining lugʻaviy maʼnosi «kuchsizlanish., «orqaga qaytish., «pastga tushish. demakdir). Reduksiyaga quyidagi soʻzlarning birinchi boʻgʻinida kelgan (l)ning kuchsizlanib talaffuz qilinishi ham misol boʻla oladi: (pishiq), (shira), (pishak), (qiliq), (ichak) kabi. Reduksiyaning ikkinchi boʻgʻinda kelishi ham uchrab turadi. Bu hodisa soʻzga uchinchi boʻgʻin qoʻshilganda sodir boʻladi - ikkinchi boʻgʻindagi unli tamoman kuchsizlanib, tushib qoladi. Masalan, burun-burni, boʻyin-boʻyni, egin-egni, keyin-keyni singari. *Eliziya* – unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolish hodisasi. Bunda bir necha holat kuzatiladi: a) birinchi soʻz oxiridagi unli tushib qoladi: yoza oladi - yozoladi, bora oladi - boroladi, qora ot-qorot; b) unli bilan boshlanuvchi ikkinchi soʻzning bosh unlisi tushib qoladi: borar ekan - borarkan, borar emish - borarmish, yozgan ekan - yozgankan kabi; d) Abdusalom soʻzining Absalom, Abdujabbor soʻzining Abjabbor, olib kel soʻzining opke tarzida talaffuz qilinishi natijasida bir unli va bir undoshning tushib

qolishi ham eliziyaning yuqori, murakkablashgan ko‘rinishi hisoblanadi. Bunday holda so‘zlarning qisqargan shakli hosil bo‘ladi².

SAVOLLAR

1. Fonetik hodisalar va ularning sababini tushuntirib bering.
2. Tovushlarning o‘zaro ta‘siri - kombinator o‘zgarishlar qanday sabablar bilan yuzaga keladi?
3. Pozitsion o‘zgarishlarining mohiyatini tushuntiring.
4. Assimilyatsiya nima? Undoshlar qaysi xususiyatlariga ko‘ra assimilyatsiyaga uchraydi?
5. Proteza, epenteza, epiteza kabi fonetik hodisalarni izohlab bering.
6. Prokopa, sinkopa, anakopa, sinerezis, reduksiya, eliziya kabilarning o‘zaro farqlarini tushuntiring.
7. Unli tovushlar misolida singarmonizmni tushuntiring.

TOPSHIRIQLAR

1. Matnlardagi tovush o‘zgarishlarini ko‘rsating va ularning sababini tushuntiring.
2. Misollardagi so‘z va gaplardan tovush o‘zgarishlarini toping va ularga o‘xshash boshqa misollar keltiring.

1-variant

I. Muassasa, korxonalar, davlat va jamoat tashkilotlarining rasmiy muhrlari, tamg‘alari va ish qog‘ozlarining matnlari respublika davlat tilida bo‘ladi, ruscha tarjimada takrorlanadi.

Milliy-madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari va ish qog‘ozlarining matnlari ular tanlagan tildan tashqari Respublika davlat tilida bo‘lishi shart.

Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot vositalari respublika davlat tilida yoziladi va e‘lon qilinadi hamda rus va boshqa tillarda takrorlanadi. O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yorliqlari, korxonalar belgilari, ulardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari, o‘zbek tilida hamda millatlararo muomala tilida bo‘lishi ta‘minlanadi.

Mamlakatning boshqa respublikalaridan yoki chet ellardan keltirilgan mahsulotni savdo idoralari va tashkilotlari o‘zbek tilida va millatlararo muomala tilida bitilgan yo‘l-yo‘riqlar bilan ta‘minlashi lozim. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 22-modda).

² Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: 2009. – B. 210. 65-68-betlar.

II. Mana shunaqa yuragi toq, dimog‘i chog‘lardan bittasi yuzlari shirmoy nonday qip-qizil, ko‘zlari olxo‘riday-olxo‘riday yirik-yirik, o‘zi chaqqon, ko‘p narsani bilag‘on Mirzasher degan yigitcha ekan. U aslida yigitcha emas, atigi birinchi sinf o‘quvchisi ekan-u, hali maktabga bormasdan turib, kitob o‘qishni o‘rganib olganidan, ko‘p narsani bilganidan, jonivorlarga mehribon bo‘lganidan qishloqdagilar uni yigitcha, deyishar ekan. Bir kuni u kitob o‘qib o‘tirsar, bitta qushcha «tap» etib oyog‘ining oldiga tushibdi.

III. 1. Yakkachinor - ikki tog‘ oralig‘ida qisilib yotgan kichkina qishloq. (O‘. Um.) 2. Bektemir peshanasini siqqan og‘ir kepkan sal ko‘tarib, ko‘zlarini osmonga tikdi. (O.) 3. O‘rmonjonga, Bo‘taboyga, Kanizakka ko‘pdan-ko‘p salom aytdi va «Qo‘shchinor»ga shu hafta ichi, ya‘ni va‘dasidan burunroq borishini aytdi. (A.Q.) 4. U idora ishlarini ham o‘ziday ish yoqmas, bekorchi Shamsiyevga topshirib qo‘ygan. (As.M.) 5. Ona-bola tuni bilan hasratlashib, oxir maslahatni bir yerga qo‘yadilar. Ertalab Qutbiniso o‘g‘liga oq yo‘l tilab, duo o‘qiydi. (P.T.)

2-variant

I. “Davlat tili haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqsin va O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritsin;

b) ikki oy muddatda xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rgangan holda ilmiy asoslangan yangi so‘z va atamalarni rasmiy iste‘molga kiritish bo‘yicha Atamalar komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish to‘g‘risida qaror qabul qilsin;

v) 2020-yil 1-iyunga qadar quyidagi asosiy yo‘nalishlarni o‘z ichiga olgan 2020 – 2030-yillarda o‘zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritsin:

mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to‘liq va to‘g‘ri foydalanishga erishish;

ta‘lim muassasalarida davlat tilini o‘rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilmfan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish;

davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish;

davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarni belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

II. Mirzasher engashib qushchani qo'lga olibdi. Ko'zlari yumilsa, tumshug'i ochilib, zo'rg'a nafas olayotgan bu kutilmagan mehmonning qanaqa qushcha ekanligini Mirzasher bilolmay hayron bo'libdi. O'zi chumchuqqa o'xshasa ham, hammayog'i qorakuyaga belangan bu jonivorni kaftida ushlab turgan Mirzasher uning yuragi bilinar-bilinmas urib turganini sezibdi. «Ha, buni boqsa bo'ladi» - deb o'ylabdi Mirzasher. Keyin uning og'ziga suv tomizibdi. Qushcha tipirchilab qanotini qoqibdi. Mirzasher kaftini ochgan ekan, qushcha uchib yerga tushibdi. Mirzasher qarasa, qushchanning dumi yo'qmish...

III. - Senga rahmat, meni tiriltirding! - debdi qushcha.

- Sen kimsan, qaerdan kelding? - deb so'rabdi Mirzasher.

- Men chumchuqman, - debdi qushcha. -Pechkaning karnayidan chiqib keldim («Ertak»dan).

3-variant

I. O'zbekiston Respublikasida yashaydigan har bir shaxsning davlat, jamoat idoralari va tashkilotlariga ish yuzasidan taklif, ariza hamda shikoyat bilan davlat tilida murojaat etish va javoblar olish huquqi ta'minlanadi. Grajdanlarning boshqa tillarda ham murojaat etish huquqlari, davlat tili va millatlararo muomala tilida javob olishi imkoniyati ta'minlanadi. (O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 3-modda).

II. Qishloqimizning qo‘shni qishloqlardan unchalik farq qiladigan joyi yo‘q. O‘zi tog‘ etagiga, soyliklar bo‘lib-bo‘lib tashlagan maydonlarga joylashgan. Shundanmikin, nomi ham Soyliq. Qishloqni qoq bo‘lib o‘tgan anhordan tarqalib, aylanma yo‘llarning chekkalari bo‘ylab cho‘zilib ketgan ariqchalarning yoqalarida tol va teraklar saf tortgan. Toqqa qarab ketgan yo‘lning ikki chekkasi qalin daraxtlar orasidan ko‘rinmay qoladi. (X.T.).

III. Begonani uyung sari yovutma, o‘rnung qiziq turur, sovutma.
2. Yigitlikda yig‘ ilmning maxzani, qarilik chog‘i sarf qilg‘il ani (A.N.).

4-variant

I. Ko‘p qushlarning qishda yotar ini yo‘q,
Patdan boshqa ko‘ylak-kostyum, to‘ni yo‘q.
Bir xili ochiq daraxt shoxlarida qo‘noqlar,
Qor-bo‘ronda, sel, yomg‘irda quvnoqlar -
Sovuq eltib, muzlab, to‘ng‘ib qolmasmi?
Yo ularning joni qattiq olmosmi?
Yo‘q qushlarning xillari ko‘p ajoyib,
Issiq yoqqa ketishar qanot yoyib,
Qolganlari issiq sovuq-muzdan qo‘rqmaydi,
Patlariga qoru yomg‘ir yuqmaydi.

II. 1. Osmon o‘pgan tog‘larning muammosini Biringiz, geolog, erta qilur hal. (G‘.G‘.) 2. So‘zi e‘tiborli, ahdi vafoli Ajoyib bir xalqsan — topilmas tengi. (G‘.G‘.) Paxtakor O‘zbekman — zabardast, mag‘rur. (H.O.) 3. Sakkiz-to‘qqizda butun-butun asarlarni — ilmiy, falsafiy, she‘riy — zavqqa berilib mutolaa etgan. (O.) 4. Pochcham, ya‘ni Saodatning dadasi, o‘zi xizmat qilib turar edi. (O‘.H.) 5. Qobil bobo, yalangoyoq, og‘il eshigi yonida turib, dag‘-dag‘ titraydi. (A. Q.) 6. Endi odamlar — otliq, piyoda, yosh, qari — uchray boshladi. (O.) 7. Bu yerga kelgan u — xalq o‘g‘li, shoir, Vatan tog‘lari sari ochib quchog‘in. (O.) 8. Ikki ovsin — Tursunoy bilan Sharofat — birga o‘tirib hasratlashar edi. (O.) 9. Seni, hur va ozod, seni kuylayman. (Zulfiya).

5-variant

I. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida, syezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasini ta‘minlanadi.

Mehnat kollektivlarida majlislar davlat tilida, shuningdek, majlis ahli tanlangan tilda olib boriladi.

Majlis ishtirokchilari istagan tilda soʻzga chiqishlari mumkin: ularning nutqlari majlisning ish tiliga tarjima qilinadi.

Oʻzbekiston Respublikasida oʻtkaziladigan xalqaro, umumittifoq va respublikalararo simpoziumlar, konferensiyalar, kengashlar va majlislarda respublika davlat tili va majlis ahli tanlagan til qoʻllanadi. (Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 5-modda).

II. Botir bilan Boʻston teatrda kirdilar. Devorlari oltin bilan hallangan, sanogʻi yoʻq tilla qandillar bilan yoritilgan besh oynalik bu ulugʻ zal ajoyib edi. Boʻston hayrat bilan har tarafga koʻz yugurtirar, tez-tez sahna tomonga qarab qoʻyardi. Mana, Halima Nosirovaning tiniq, yoqimli ovozi zalda jarangladi. Hammaning yuzida tabassum jilosi koʻrindi. Kuchli musiqa sadosi ostida qoraqalpolarning “Toʻy” oʻyini boshlandi. Sahnaning bir tomonidan yuzdan ortiq qiz bilan kelin, ikkinchi tomonidan shuncha yigit bilan kuyov quvnoq, shoʻx ashula aytib sahnaga kirib keldilar. Sahna toʻlib, jonlanib ketdi. (S.N.).

III. Sochining savdosi tushti boshima boshtin yana,
Tiya boʻldi xonumonim ul qaro sochtin yana. (Bobur).

6-variant

I. Oʻzbekiston Respublikasida yashovchi grajdanlarga oʻqishda tilni erkin tanlash huquqi beriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi oʻz xududida respublika davlat tilida, shuningdek rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirgʻiz, turkman tillarida hamda respublikada zich yashaydigan boshqa millatlarning tillarida umumiy oʻrta maʼlumot olishni taʼminlaydi.

Oʻzbekiston Respublikasida, mavjudlari bilan bir qatorda, oʻzbek tilida, milliy guruhlar zich yashaydigan joylarda esa ularning tilida maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalarini ochish taʼminlanadi. (Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 13-modda).

II. Tojiddin bilan Temirjon qayta otlariga minib, daryo tomon yaqinlasha boshladilar. Qirgʻoqda son-sanogʻi yoʻq tuyoq izlari. Havoda turib qolgan ter hidi dimoqni boʻgʻadi. Beshik-beshik yoqut rang toʻlqinlarga gʻarq boʻlgan bagʻri keng va magʻrur Jayhun beqiyos salobat bilan oʻzaniga sigʻmay oqadi. Ikki otliq anchagina yoʻl bosib, Amu suvidan bahra topib yashnayotgan manzil sari etdilar. Qoraoʻzan qishloqi shu edi. Bir zamonlar Amu shu atrofdan oqqan-u, bora-bora oʻzanini oʻzgartirgan boʻlishi mumkin. Daryoning ana shu eski oʻzani endi guruchdan moʻl hosil beradigan shaxmat taxta singari katak-katak sholipoyalarga aylangan. Bu yerlarda koʻrkam sahnali hovlilar, ajoyib bogʻlar, tiniq zangori samo sari yuksalgan azim teraklar, anhor

bo‘ylarida saf tortgan to‘lzorlar, jiydazorlarni ko‘p uchratasiz. Keng dalalarda quyoshdan nur emib yetilayotgan boshoqlar arang qad ko‘tarib turadi (J. Abdullaxonov).

III. - Munira-de! O‘sha Akbarri singlisi,- tushuntira ketdi xolam. (U.Nazarov.) «Qanaqa nodonsan. Axir, qahramon chaqirarmish-u, bormiysanmi!»- deb turg‘izib o‘rtaga itarishdi. (H.Nazir).

7-variant

I. Go‘dak edim, ko‘p narsaga yetmasdi aqlim,
Bilganlarim bekinmachoq va to‘ptosh o‘yin.

Qulog‘imga chalinardi keksalar naqli:

«Falonchimi, puch yong‘oqqa to‘ldirar qo‘yin!»

«Suv quyadi birovlarning tegirmoniga,

G‘irromlikda tulkiga chap berar falonchi!»

Anglab yetmay bu gapdagi teran ma‘niga,

Ko‘zlarimga ko‘rinardi ular yolg‘onchi.

Boshdan o‘tgan tabib derlar. Ulg‘aydim bu kun,

Hikmatlarning mag‘zin chaqib bo‘lmasman hayron.

Keksalarning aytganlari ekan chippa-chin:

Boshda yong‘oq chaqar ekan ba‘zida inson (O. Hojiyeva).

II. 1. «Bunga gapirma, bu o‘zi... hech kimni tanimaydigan bir bevosh bo‘lgan!»- dedi Ruzvon xola va ro‘molining uchi bilan ko‘z yoshlarini artdi. (O.Yoqubov). 2. Bu mening o‘g‘lim bo‘ladi. Senlardan oldin shu uyda turgan. Istudent. (O.Y.). 3. Opamlaga katta rahmat aytib qo‘yasiz, usta aka! (H.N.)

4. - Sizlar boy bilan qayerda uchrashgan edilaring. – Anjonda. (Y.Sh.)

5. Abjalni faqat bitta bala - tulkidek ustomon Umarali... yoqtirar edi. (O‘.H.) 6. Bo‘maydi-da, borsam ushlanib qolaman. (H.N.).

8-variant

I. Taqdir taqozosi bilan birgina o‘g‘li bilan beva qolgan bu ayolgina bir umr ichki ishlar bo‘limida ishlash bilan birga, bemehr „ona»lar qoldirib ketgan go‘daklarni bag‘riga olib, tarbiyalabdi. Qarangki, bugungi kunda iste‘foda bo‘lgan Rahima opa sakkiz nafar o‘g‘il-qizga (eng kichigi olti oyiik) mehribon ona ekan. Ularning har birini sizlab, har birini alohida mehr-muhabbat bilan ta‘riflaydi. O‘z taqdiriga, Olloh tuhfa qilgan bolalariga shukronalar aytadi. Bunday mehri daryo onalar boshidan zar sochsak arziydi.

Mehr-muruvvat faqatgina yolg‘izlar, nogironlargagina emas, hamma-hammaga zarur. Yerdan unib chiqqan giyoh ham, yangigina o‘tqazilgan nihol ham, hatto qushlar, jonivorlar ham, suv ham mehrga, ardoqqa

muhtoj. Tog‘-u toshlar, ko‘zi yopilgan buloqlar, qurigan daryolar, kichkina anhorlar, xullas ona tabiat mehr-muruvvatga muhtoj. Yengni baland shimarmoq payti keldi.

Ishonamizki, yilimizning har bir kuni mehr-muruvvat kuniga, mehr-muruvvat lahzalariga aylanadi. Yaxshiliklar ko‘payadi. Har birimiz imkon qadar mehr-muruvvatni kaftimizda tutib, yo‘lga chiqaylik. Bularning bari tinchlik, tanisihatlik, farovonlik ato etgusidir. („Oila va jamiyat» gazetasidan).

II. 1. Ha, kelinposhsho, yombi topdingizmi, deyman. Og‘ziz qulog‘izda. (H. F.) 2. Oradan bir hafta o‘tgach, u Shahrizabzga, adasi ishlagan shaharga jo‘nadi. (Mirm.) 3. Atta ishladi – uch ming, batta ishladi bir yarim ming qarz bo‘ldi. (S.Ahm.) 4. Eshitdig-u, moro bo‘lsinga kelaverdik. (R.F.) 5. Beriroqdagi o‘rinda dovuchcha terib yeb o‘tirgan bola unga taqlid qildi. (M. Mansurov) 6. Bunaqa jiyda faqat doyingning bog‘iga bor edi.

9-variant

I. Dunyo sivilizatsiyasining rivoji buyuk vatandoshimiz Abu Nasr Forobiyning nomi bilan chambarchas bog‘liq.

Buyuk vatandoshimiz o‘z davrida “Ikkinchi muallim” yoki, ”Sharq Arastusi” deb e’tirof etilgani ham uning ilmdagi salohiyati, tafakkur dunyosi nechog‘liq keng ekanligini ko‘rsatadi.

Ulug‘ bobokalonimiz yunon falsafasini chuqur o‘rgangan va bu ta’limotni o‘z qarashlari bilan yanada boyitgan. Jumladan, Yevropa ahli bobomizning ulkan xizmatlari tufayli yunon falsafasidan bahramand bo‘lgan.

Abu Nasr Forobiy juda ko‘p fanlar bo‘yicha yetuk olim hisoblangan. Xususan, u IX asrdayoq o‘zining ”Yulduzlar haqidagi qoidalardan nima to‘g‘ri va nima noto‘g‘riligi haqida” asarida Oynning tutilishi Yerning Quyosh bilan Oy o‘rtasiga tushib qolishiga bog‘liqligini isbotlab bergan.

II. 1. Odamlar bor: bo‘rini ham o‘rgatar qo‘lga, Odamlar bor: bir o‘g‘lini sololmas yo‘lga. (S.Akb.) 2. Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko‘rmadim. (A.N.) 3. Qayerda navbahor yomg‘iri quysa, xushbo‘y o‘t-o‘lanlarga qoplanadi yer. (H.R.) 4. Muloyimlikning birinchi alomati shuki, birov achchiq so‘z aytsa, shirin so‘z bilan javob qaytarish lozim. 5. Aydi: „Ey bechora, qilding na uchun tarki vatan?» Men dedim: „G‘urbatda, Furqat, bor ekan taqdirda». (F.) 6. Bir kun aytibdurki Navoiy bobo, Doim o‘zga bo‘lur surat ila ruh. (A. O.) 1. Sen qachon deding: „Fido qilg‘il» —

Fido bo‘ldim senga. (A.N.) 8. Ish erur ulkim, o‘zi oni qilur, Hikmat ulkim, ham oni o‘zi bilur. (A.N.)

10-variant

I. Diplomatiya – xorijiy davlatlar bilan aloqa qilish, ikki va undan ortiq davlatlar o‘rtasida aloqa o‘rnatishdir.

Sharqda diplomatik aloqalar azaldan mavjud bo‘lgan. Bunday aloqalar diplomatik yozishmalar asosida amalga oshirilgan. Yozishmalar yorliqlar deb atalgan va o‘ziga xos lisoniy qoliplarga, an‘anaviy tarkibiy qismlarga ega bo‘lgan. Jumladan, 1393- yilda To‘xtamishxonning polyak qiroli Yagayloga yo‘llagan yorlig‘i, Temur Qutlug‘ning (1397- y.) yorliqlari, Boburning otasi Umarshayx Mirzoning 1469- yildagi yorliqlari diplomatik yozishmalarning namunasi. Diplomatik nutqning eng yorqin namunasi — Amir Temur yozishmalaridir. Sohibqiron diplomatiyasi ko‘p qirrali bo‘lgan. XIV asr oxiri — XV asr boshlarida Temur saltanatining dovrug‘i Yevropa mamlakatlari: Fransiya, Angliya, Ispaniya, Genuya, Vizantiyaga yetib borgan. Bu davlatlar qirollari Amir Temur bilan diplomatik aloqalar o‘rnatgan.

II. Buzrugmehr shunday naql qiladi: — Men ustozimdan so‘rardim va u javob qaytarardi. Dedim: ”Ayb sanaladigan biror fazilat bormi?” Dedi: ”Minnati saxovat”. Dedim: „Qaysi xislat ilmni yuksaltiradi?” Dedi: “To‘g‘rilik!” Dedim: ”Hukmlardan qaysilarini vojib bilmoq kerak?” Dedi: ”Bular uchta: birinchisi — Oллоh taolo hukmi, ikkinchisi - oqillar hukmi, uchinchisi — ota-ona hukmi”. Dedim: “Qaysi bir odam aqlli?” Dedi: “Oz so‘zlab, ko‘p tinglovchi va ko‘p biluvchi”. (Ibn Sino, “Zafarnoma”).

TESTLAR

1-variant

1. Metateza hodisasiga uchragan so‘zlar qatorini toping.

- istol, istul, yig‘na.
- dayro, yog‘mir, avhol.
- essin, tussin, tuzsiz.
- zaral, bironta, muyastar.

2. Singarmonizm hodisasi deb nimaga aytiladi?

- unlilar uyg‘unligi, qo‘shimchadagi unlilarning so‘z o‘zagidagi unlilarga moslashuvi.
- so‘zdagi yonma-yon kelgan tovushlardan birining kuchsiz aytilishi.
- so‘zdagi unli tovushlarning son jihatidan ko‘payishi.
- so‘z tarkibidagi bir unlining ikki unli tarzida talaffuz etilishi.

3. Unli bilan tugovchi va unli bilan boshlanuvchi ikki soʻzning qoʻshilishi natijasida unli tovushdan birining tushib qolishi qanday fonetik hodisa?

- a) sinerezis.
- b) reduksiya.
- c) epiteza.
- d) eliziya.

4. Berilgan soʻzlarning qaysi birida epiteza hodisasini uchratish mumkin?

- a) yiroq – iroq.
- b) bank – banka.
- c) direktor – direktir.
- d) qiroat – qirovat.

5. Assimilyatsiya hodisasi deb nimaga aytiladi?

a) nutq tovushlari qator kelganda birining ikkinchisiga taʼsir qilib, uni oʻziga moslashtirishi.

b) soʻz oʻzagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushishi.

c) soʻz oʻrtasida bir joyda kelgan ikki unlining biri kuchsizlanishi va tushib qolishi.

d) soʻz boshida baʼzan unli yoki undosh tovushning tushib qolishi.

6. Fonetik talaffuziga koʻra yozilishi qoidalashtirilgan soʻzlar berilgan javobni aniqlang.

- a) olgan, ishtiroki.
- b) oʻzagi, qishloq.
- c) bargga, sogʻga.
- d) xuquqi, singli.

7. Qaysi qatordagi soʻzlar boʻgʻin koʻchirish qoidalariga xilof tarzda yozilgan?

- a) aba-diy, koʻr-gan.
- b) mat-baa, ki-tob.
- c) koʻn-gil, deng-iz.
- d) ma-lo-mat, pe-shona

8. Ayrim holatda soʻz boshida sirgʻaluvchi va portlovchi ikki undosh qator kelganda “i” unlisining orttirilishi qanday fonetik oʻzgarish deyiladi?

- a) proteza.
- b) metateza.
- c) epiteza.
- d) prokopa.

9. Qanday fonetik hodisa epiteza hodisasi deyiladi?

- a) soʻz oxirida kelgan jarangli undoshning jarangsizlanib eshitilishi.
- b) soʻz oxirida bir oʻrinda kelgan ikki undoshdan soʻng “a” tovushining qoʻshilishi.
- c) soʻz boshida baʻzan unli yoki undosh tovushning tushib qolishi.
- d) soʻz oʻzagidagi oxirgi unli yoki undoshning tushib qolishi.

10. Samarqand, doʻst, goʻsht, xursand soʻzlarining Samarqan, doʻs, goʻsh, xursand tarzida aytilishi qanday fonetik hodisa sanaladi?

- a) reduksiya.
- b) eliziya.
- c) apakopa.
- d) sinokopa.

2-variant

1. Urgʻu oxirgi boʻgʻinga emas, balki oldingi boʻgʻinga tushadigan soʻzlar qatorini toping?

- a) mehribonim, sizlarday, kuzatuvchi.
- b) doim, chunki, baʻzan, hech nima.
- c) baxtimiz, vatandoshlar, otalarga.
- d) sehrgarlik, safsatabozlar, boshlandi.

2. Birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti atoqli ot boʻlgan geografik nomlar qanday yoziladi?

- a) chiziqcha bilan yoziladi.
- b) qoʻshib yoziladi.
- c) ajratib yoziladi.
- d) ikkinchi komponenti kichik harf bilan ajratib yoziladi.

3. Dunyodagi barcha davlatlar oʻzaro turli shartnoma va bitimlarni necha tilda tuzadilar va ular qaysi qatorda toʻgʻri koʻrsatilgan?

- a) olti: ingliz, xitoy, arab, fransuz, rus, ispan.
- b) besh: italyan, irland, ingliz, rumin, latish.
- c) toʻrt: arab, rus, ispan, belarus.
- d) olti: xitoy, oʻzbek, turk, norveg, fors, yapon.

4. Lotin yozuviga ixtisoslashgan oʻzbek alifbosiga oʻtish haqidagi qonun qachon qabul qilindi?

- a) 1992-yil 2 martida.
- b) 1993-yil 2-3 sentabrda.
- c) 1994-yil 2-iyulda
- d) 1989-yil 21-oktabr.

5. Tovushning kombinator variantlari nima?

- a) soʻzdagi yon tovushlar taʼsirida hosil boʻladigan tovush oʻzgarishlari.
- b) yonma-yon kelgan undosh tovushlar.
- c) soʻzdagi barcha unli tovushlar.
- d) yonma-yon kelgan unli tovushlar.

6. Ampletuda nima?

- a) tovushlarning bir-biriga taʼsir koʻlami.
- b) tovushning choʻzilish koʻlami.
- c) tovushning tebranish koʻlami.
- d) tovush toʻlqinlarining tebranish miqdori.

7. Faqat faol nutq uzvlari berilgan qatorni toping?

- a) tish, kichik til, til, lab.
- b) tovush paychalari, kichik til, til, lab, pastki jagʻ.
- c) pastki jagʻ, yuqori jagʻ, burun, til, tish.
- d) tovush paychalari, koʻkrak qafasi, kekirdak, qattiq tanglay, burun.

8. Y tovushi qanday hosil boʻladi?

- a) til oʻrta qismining qattiq tanglay tomon koʻtarilishi asosida hosil boʻladi.
- b) yumshoq tanglayning orqa qismi ishtirokida hosil boʻladi.
- c) til uchining qattiq tanglay tomon koʻtarilishi asosida hosil boʻladi.
- d) til orqa qismining tanglay tomon koʻtarilishi asosida hosil boʻladi.

9. Qaysi qatordagi undoshlarning talaffuzida nutq aʼzolari bir-biriga juda yaqinlashadi va havo oqimi shu aʼzolarga ishqalanib chiqadi?

- a) b, p, d, t.
- b) d, v, f, z.
- c) l, n, z, s, ch.
- d) d, t, l, n.

10. Singarmonizm hodisasi deb nimaga aytiladi?

- a) unlilar uygʻunligi, qoʻshimchadagi unlilarning soʻz oʻzagidagi unlilarga moslashuvi.
- b) soʻzdagi yonma-yon kelgan tovushlardan birining kuchsiz aytilishi.
- c) soʻzdagi unli tovushlarning son jihatidan koʻpayishi.
- d) soʻz tarkibidagi bir unlining ikki unli tarzida talaffuz etilishi.

**3-AMALIY MASHGʻULOT.
GRAFIKA VA ORFOGRAFIYA.**

HARFLAR VA QO‘SHIMCHALAR IMLOSI

Maqsad: grafika va orfografiya haqidagi asosiy tushunchalarni mustahkamlash. Harflar va qo‘shimchalarning imlosi va shu bilan bog‘liq xususiyatlarni aniqlash.

Tanlanish asosi: Grafika va orfografiya masalalarining farqi, ularning chambarchas bog‘liqligi bu bo‘limlarni o‘rganishda birmuncha qiyinchiliklar tug‘diradi. Ayni chog‘da bu masalalar yozuv qoidalari malakasini egallashda ham katta amaliy ahamiyatga ega.

Grafika asli grekcha graphikos so‘zidan olingan bo‘lib, tilshunoslikda «yozuv» degan ma‘noni anglatadi. Yozuv, umuman olganda, harf yoki chiziq vositasida aks ettiriladigan shartli belgilaning muayyan sistemasi. Tilshunoslikda yozuvning piktografik, ideografik va fonografik kabi turlari o‘rganilgan. O‘zbek yozuvi hozirgi holga kelganga qadar uzoq tarixiy yo‘lni bosib o‘tib, juda ko‘p o‘zgarishga uchradi.

Bugungi o‘zbek imlosi fonetik, morfologik, tarixiy-an‘anaviy, farqlovchi (differensial) va shakily (grafik) yozuv tamoyillariga tayanadi. Sheva va ayrim shaxslarning nutqidagi xilma-xillikni hisobga olmaganda ham og‘zaki nutq tovushining bir-biriga ta‘sir qilishi natijasida so‘z tarkibida, turli xarakterdagi juda ko‘p o‘zgarish sodir bo‘ladi. Bu xilma-xillikning hammasi ham orfografiyada o‘z aksini topaverganda, yozuvda bir xillikni ta‘minlab bo‘lmas edi. Yozuvda bunday nuqsonlarga barham berish uchun orfografiyaning yuqorida sanalgan qoidalari ishlab chiqilgan.

Fonetik yozuv. Bu yozuvga asosan so‘zlarga qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yuz bergan fonetik o‘zgarish nutq jarayonida qanday eshitilsa, shunday yoziladi. So‘z tarkibidagi o‘zak va qo‘shimchaning yozuvda eshinishiga qarab me‘yorlashtirilishi fonetik yozuv deb yuritiladi. Masalan, adabiy talaffuzda jo‘nalish kelishigining asosiy shakli sifatida -ga qabul qilingan. Ba‘zan bu shakl (k) va (q) tovushidan keyin (-ka), (-qa) tarzida talaffuz etiladi va shu tarzda yoziladi: terakka, buloqqa. Tilimizda ko‘pgina morfemalar fonetik variantining mavjudligi ularning fonetik yozuv asosida yozilishidan darak beradi: [-gan, -qan, -kan) sifatdoshlari; [-guncha, -kuncha, -quncha); [-gach, -kach, -qach) ravishdoshlari; [-dir/tir); [-kaz/-gaz/-giz/-qaz/-qiz) kabi nisbat shakllari va h. Hozirgi o‘zbek orfografiyasida barcha o‘zak va qo‘shimchani yozishda ham fonetik tamoyilga amal qilina vermaydi.

Morfologik yozuv. Fonetik yozuvdan farqli ravishda morfologik yozuvga ko‘ra tildagi morfemalar nutqda qanday aytilsa yoki eshitilsa, shunday emas, balki asl holicha yozilishi kerak. Boshqacha qilib aytganda, so‘z o‘zagiga qo‘shiluvchi morfemaning yozuvda to‘liq yoki qisman bir sistema asosida aks ettirilishi yoki ularning variantlaridan birining tanlab olib yozilishi asosida bir xillikka erishish morfologik yozuv deyiladi. Hozirgi o‘zbek orfografiyasida morfologik tamoyil asosiy va yetakchi tamoyildan bo‘lib, yozuvda keng qo‘llanadi. Masalan, (aytdi) so‘zidagi (-di) shakli (-ti) tarzida eshitiladi (aytti), aytgan so‘zidagi (-gan) shakli (-kan) tarzida eshitiladi (aytkan), aytgin so‘zidagi (-gin) shakli (-kin) tarzida eshitiladi (aytkin). Tarixiy-an‘anaviy yozuv. O‘zbek xalqining yozuvi tarixida ko‘pgina so‘z va iboralar borki, og‘zaki nutqda qay tarzda talaffuz etilishidan qat’i nazar, ularning yozilishida ma’lum an‘anaga amal qilinadi. So‘z yoki morfemaning hozirgi talaffuz me’yoriga mos kelmaydigan, tarixiy shaklida yozilishi tarixiy-an‘anaviy yozuv qoidasi asosida. Masalan, hozirgi o‘zbek tilida: buyruq-istak maylining [-gin] shakli o‘rnida [-gil], [-g‘il] shakllari: aytgil, urmagil; [-gani] maqsad ravishdoshining [-gali], [-kali], [-qali], [-g‘ali] shakllari: aytgali, kuydirgali; [-dan] chiqish kelishigi o‘rnida [-din], [-mi] yuklamasining [-mu], (-dir) shaklining [-dur] tarzida ishlatilishi bunga misol bo‘ladi. Farqlash tamoyili nutqimizdagi shakli va talaffuzi bir-biriga yaqin so‘z va morfemalarni yozuvda farqlashni talab etadigan yozuv qoidasi. Masalan: otli-otlik, to‘nli-to‘nlik, paltoli-paltolik, yondosh-yondash, qism-qisim, rosa-raso, tanbur-tambur va h.k.

Shakliy yozuv. So‘zlarni shakliy yozuv asosida yozish – qaysi xalqning tili yoki grafikasidan olingan bo‘lsa, o‘sha etimologik yoki grafik holatini saqlab qolish. O‘zbek tili leksikasida arab, fors-tojik, rus, ingliz tilidan o‘zlashgan qator so‘zlar mavjud bo‘lib, o‘zbek xalqi talaffuzida ular o‘ziga xos tarzda qo‘llanilishi mumkin. Ammo shakliy yozuv qoidasiga muvofiq ularning o‘zlari mansub tildagi etimologiyasi saqlab qolgan holda yoziladi. Masalan, Muallim-maalim, maorif-moorif, Saodat-Soodat, Muhiddin-Mo‘ydin, go‘sh-t-go‘sh, baxt-bax, fikr-fikir, hukm-hukum, stol-ustal, stansiya-istansa va h.k. Orfografiyaning ko‘rib o‘tilgan yozuv qoidalaridan fonetik va morfologik tamoyil o‘zbek tilidagi va so‘z qo‘shimcha birikuvi natijasidagi fonetik hodisalarni, tarixiy-an‘anaviy va farqlash tamoyillari ba’zi so‘zni va qo‘shimchani qanday yozishni me’yorlashtirsa, shakliy yozuv faqat boshqa tillardan o‘zlashgan so‘zni

qanday yozishni o‘rgatadi. Lekin ayni vaqtda ko‘rib o‘tilgan yozuv qoidalarining o‘rtasida o‘zaro bog‘liqlik mavjud bo‘lib, ular bir-birini to‘ldirish uchun xizmat qiladi³.

SAVOLLAR

1. Grafika nima? Harf deb nimaga aytiladi? O‘zbek grafikasining asosiy prinsiplari mohiyatini tushuntirib bering.

2. Orfografiya nima? Uning jamiyat hayotida tutgan roli nimalardan iborat?

3. O‘zbek tilining qanday fonetik xususiyatlari yozuvda imlo qoidalarini qo‘llash zaruratini tug‘diradi?

4. O‘zbek orfografiyasining qanday prinsiplari bor? Shulardan qaysilari asosiy prinsip deb qaraladi?

5. Kirill alifbosiga asoslangan o‘zbek orfografiyasi qoidalarining kamchiliklari haqida qanday fikrlar bor?

6. Harflar va ularning imlosidagi o‘ziga xosliklarni tushuntiring.

7. Unli harflar imlosiga doir qanday taklif va mulohazalar mavjud?

8. Harflar va qo‘shimchalar bilan aloqador qanday tovush o‘zgarishlari mavjud?

TOPSHIRIQLAR

Matndagi so‘zlarni a) har bir so‘zdagi tovush va harflarning munosabati jihatidan xususiyatlarini ko‘rsating; b) har bir so‘z qaysi orfografik prinsip asosida yozilganligini izohlang; v) harf va qo‘shimchalar imlosidagi o‘ziga xosliklarni tushuntiring.

1-variant

I. O‘zbekiston Respublikasida ssenariylar, filmlarni va boshqa tomoshabop asarlarni respublika davlat tilida hamda millatlararo muomala tilida yaratish ta‘minlanadi. Boshqa ittifoqdosh respublikalardan, chet ellardan olinadigan kinofilmlar, sahna asarlari va boshqa tomoshabop asarlar o‘zbek va rus tillariga tarjima qilinadi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 21-modda).

II. Bul...t, bo‘l...q, bo‘l...m, o‘r...n, tutq...ch, bo‘y...n, tuz...m, tuz...sh, kum...sh, ko‘m...sh, mud...r, mumk...n, ko‘ng...l, qo‘y...n, to‘lq...n, xuq...q, xo‘k...z, tush...ncha, tush...sh, tux...m, tug‘r...qxona, xot...n, uyq..., cholg‘..., bult..r, butk...l, k...tob, kot...b, m...ktub, makt...b, so...un, soh..l, t...pla, ...o‘pla.

³Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: 2009. – B. 210. 74-81-betlar.

III. Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma‘noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e‘tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o‘z milliy manfaatlarini ta‘minlash, bu borada avvalo o‘z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

IV. 1. Hamisha g‘olib, bitmas-tuganmas hayot chashmasi bo‘lgan onani sharaflaylik! (M.Gorkiy.) 2. Hamma yoq sutdek yorishdi (S. Ahm.) 3. Birdan muzdek shamol esib, uning bag‘ri dilini ochib yubordi (S. Ahm.) 4. Yaxshilik va yomonlik. Bularning biri quyoshli kunduz-u, ikkinchisi esa zulmat qoplab olgan bulutli tunga o‘xshaydi. (Shukrullo) 5. Muqaddam devor tagiga tashlab qo‘yilgan yapaloq g‘ishtlar ustidan sakrab-sakrab o‘tib, ayvon eshigini sharaqlatib ochdi. (O‘.H.).

2-variant

I. ...tli, ...toqli; ...shamoq, ...‘zo, s...mon, q...bul, d...la, t...la, d...da, b...la, m...‘no, s...vun, s...vuq, s...vg‘a-s...lom, t...m...sh., d...r...mad, g...vjum, ketm...n, r..vn..q, sab...q, t...roq, qutl...v, aniql...vchi, t...vush, usto..., m...shina, st...l, p...rtfel, p...pka, ch...ynak, k...nspekt, m...ntyor, m...tor, k...nkret, p...rtret, k...styum, br...shyura, rest...r...n,

k...ms...m...l, aer...dr...m, g...str...n...m, v...leyb...l, pr...gr...mma, intern...t, rez...lyutsiya, m...nd...t, s...m...lyot.

II. 1. Odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydi. Daraxtni yaxshi parvarish qilsang, mevasi yaxshi va shirin bo'ladi («Qobusnoma») 2. Ona o'rgatgan til ham hamisha biz uchun ona kabi qadrli, issiq va ardoqlidir. Shularni his etish, ona tilini qadrlash, uning tunganmas boyliklarini e'tirof etish, madaniy so'zlash – bular hammasi nutq madaniyatini o'stirishning garovidir (S.Ibrohimov) 3. Ona tilini yaxshi bilmagan inson ona yurtning yuragini yaxshi bilmaydi (Zulfiya). 4. Har kim otasi va bobosi ko'rgan va bilganiga qaraganda ko'proq ko'rish va bilishga intilmog'i lozim (A.P.Chexov). 5. Do'stona ko'magingiz uchun tashakkur bildirishdan boshqa so'zim yo'q (A.Q.).

3-variant

I. Muassasa, korxonalar, davlat va jamoat tashkilotlarining rasmiy muhrlari, tamg'alari va ish qog'ozlarining matnlari respublika davlat tilida bo'ladi, ruscha tarjimada takrorlanadi.

Milliy-madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg'alari va ish qog'ozlarining matnlari ular tanlagan tildan tashqari respublika davlat tilida bo'lishi shart.

Lavhalar, e'lonlar, narxnomalar va boshqa ko'rgazmali hamda og'zaki axborot vositalari respublika davlat tilida yoziladi va e'lon qilinadi hamda rus va boshqa tillarda takrorlanadi. O'zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yorliqlari, korxonalar belgilari, ulardan foydalanish yo'l-yo'riqlari, o'zbek tilida hamda millatlararo muomala tilida bo'lishi ta'minlanadi.

Mamlakatning boshqa respublikalaridan yoki chet ellardan keltirilgan mahsulotni savdo idoralari va tashkilotlari o'zbek tilida va millatlararo muomala tilida bitilgan yo'l-yo'riqlar bilan ta'minlashi lozim. (O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 22-moddasi).

II. Ray...sat, y...mish, y...shil, by...est, uy...t, uy...lish, ehtiy...t, buy...m, tay...nch, apr...l, iy...l, s...nt...br, okt...br, no...br, d...kabr, y...nvar, f...vral, m...tafora, pul...my...t, by...ll...t...n, poy...zd, kaf...dra, broshy...ra, razry...d, obligatsiy..., adr....s, agly...tinativ (til), fl...ktiv (til), akty...r, sy...jet, snary...d, uy...tchan, y...ng'oq.

III. 1. Qush parvoz uchun, inson baxt uchun yaralgan (V.G.Korolenko) 2. Ertaga albatta mening qoshimga keling (O.) 3. Taqdirni qo'l bilan yaratur inson, G'oyibdan kelajak baxt - bir afsona (G'.G'.) 5. Toshpo'latov uch kundun beri shu yerda. Kecha kuni bo'yi tepalik yonida g'isht quyayotganlar bilan birga bo'ldi (R. F.). 6.

Kumush onasining yumushiga bir oz qarab turgandan keyin tashqariga tomon ketdi (A.Qod.) 7. Gulnor uch kunni jahannam azobida o'tkazdi. Onasidan mash'um xabarni eshitganidan boshlab tinmay yig'ladi... (O.)

4-variant

I. ...aydo, ...oyda, ...arvoz, ...ardozi, ...armon, ...arda, ...arzand, ...e'l, ...ikr, ...and, ...an, ...arvon, ...arg'ona, ...alata, ...arma, ...orma, ...aket, ...akultet, ...abrika, ...izika, ...raktika, ...iziologiya, ...arazitologiya, ...razeologiya, ...unktuatsiya, ...ason, ...atron, ...izkultura, trans...ormator, ka...t, a...t, o...tob, a...teka, sha...toli, sur..., takli..., tul...or, tur..., ur..., tu...rok, sa..., so...ol, gara..., ...otima, ...arog'at, ...uzayl, ...ozilov, ...ardaev, ...armonov, Ori..., Yusu..., Rau...

II. 1. Bahsni nima haqda bahs yuritilayotgan tushuncha yoki predmetning aniq ta'rifidan boshlash zarur (M.Gorkiy) 2. Inson so'zlash qobiliyati tufayli tafakkur sohasida odamzod unga nima qoldirgan bo'lsa, hammasini bilib olishi mumkin. Shu qobiliyat tufayli o'zgalardan o'rgangan va o'zida paydo bo'lgan fikrni zamondoshlariga va avlodlariga bera olishi ham mumkin (L.N.Tolstoy) 4. U tabiatining og'irligiga qaramay, o'rnidan sapchib turib ketdi (M.Ismoilij) 5. Doya kelgandan so'ng, ichkari hovli erkakdan tozalandi (A.Qod.) 6. Elmurod, ertalabdan beri non-choydan bo'lak hech narsa emaganligidan, ko'ngli ozganligini sezdi (P. T.) 8. Erta bilan oftob chiqmasdan burun boyning hovlisida ikki arava tayyor bo'ldi. (S.A.).

5-variant

I. ...avo, ...ovli, ...amma, ...ar kim, ...ech kim, ...ayol, ...ayr, ...ayriyat, ...arir (ro'mol), ...ayrat, ...urriyat, ...ushyor, ...ush kelibsiz, ...olis, ...ush yoqmas, ...ol-a...vol, ...issa, ...ira, ...iyla, ...ola, ...oshiya, ...islat, ...issiyot, ...ossa, ...odisa, ...alta, e...tirom, e...tiyot, i...tiyor, mu...it, me...r, mu...r, musta...kam, a...amiyat, mu...bir, mu...toj, se...r, so...ta, ba...t, ra...mat, ro...at, ma...fiy, ma...sus, ma...bus, ta...min, ta...sin, ...otira, ...om, ...ushbo'y, me...mon, ...o...ish, ma...si, a...il, a...ir, ...isobot, ...iyonat, ...iyobon, siyo...don, i...ota, iste...kom, mu...ojir, sul...parvar, i...losmand, gul...ayri, ru...sat, sa...ovat, ma...obat.

II. 1. Hayot quyosh bilan go'zal. Inson - xulqi bilan (Shukrullo) 2. Quyosh Kalkovuz bo'ylab o'sgan qalin tollarning uchida o'ynaydi (O.) 3. Xalq kuchli el bilan chayqalgan dengiz kabi birdan qo'zg'aldi (O.) 4. Gulnor ikki haftadan buyon dadasi va onasi bilan birga har kun bog'da ishlaydi (O.) 5. Unsinni ko'rish, go'zal xayol va dardli yodi bilan uning

yuragini borgan sari chuqurroq yaralagan Gulnor to‘g‘risida ikki og‘iz so‘z eshitish orzusi kuchli edi. (O.).

6-variant

I. 1) q yoki g‘ harflaridan biridan mosini qo‘ying: bo...cha, chiro..., charo...on, chiro...chi, qutlu..., quru..., qullu..., uru...;

2) b yoki v harflaridan mosini qo‘ying: bog‘...on, bedana...oz, bo...o, dar...oza, dar...oza...on, dor...oz, kamar...and, ka...ob, ar...ob;

II. 1. Qish qo‘ynidan baxt singari yoz uchib kelur (Mirt.) 2. Grammatika haqida bilimi yo‘q kishi tilni boshqarmaydi, aksincha, uni til boshqaradi (A.Peshkovskiy) 3. Jasorat iste‘dod singari maqsad sari boradigan yo‘lni osonlashtiradi (L.M.Leonov) 4. Noz-ne‘mat to‘la dasturxon ustida suhbat boshlanib ketdi. Urush davrida eshitilgan turli shaharlar, daryolar, xalqlar, davlatlar haqida, har nav qurol-aslahalar to‘g‘risida qizg‘in gaplashdilar (O.) 5. Inson yuksaklikka intilgan sari yanada barkamollashadi (M.Gorkiy).

7-variant

I. Milliy-madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari va ish qog‘ozlarining matnlari ular tanlagan tildan tashqari respublika davlat tilida bo‘lishi shart.

Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot vositalari respublika davlat tilida yoziladi va e‘lon qilinadi hamda rus va boshqa tillarda takrorlanadi. O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yorliqlari, korxonalar belgilari, ulardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari, o‘zbek tilida hamda millatlararo muomala tilida bo‘lishi ta‘minlanadi.

Mamlakatning boshqa respublikalaridan yoki chet ellardan keltirilgan mahsulotni savdo idoralari va tashkilotlari o‘zbek tilida va millatlararo muomala tilida bitilgan yo‘l-yo‘riqlar bilan ta‘minlashi lozim. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 22-moddasi).

II. ...amid, Zulay...o, Ra...im, Mu...tor, Shu...ratg Mu...abbat, ...adicha, ...afiza, ...osiyat, ...olida, ...ulkar, ...ilola, Mu...arram, Gu...z...d..., Mo...in, To...ir, Mo...ira, ...alima, So...ibov, ...akimov, ...olmatov, ...udoyberdiyev, ...asanov, E...sonov, ...alilov, Mu...tarama, ...olboyev, ...ojiyev, Ma...fuza, Zu...ra, ...ayyom, Ma...tumquli, Qa...or, ...amza ...akimzoda.

III. 1. Eshik ochilib, shop mo‘ylov, go‘shtdor yuzidan zahar tomchilagan Mochalov bilan birga, uning kabi pogonli, yarog‘-aslahali ikki to‘ra zinada qaqqaydi (O.) 2. Elmurod shu kuni kechqurun bir bola orqali Davlatyorni o‘z huzuriga chaqirdi (P.T.) 3. Shu payt o‘sha

daraxtzorlar osha esgan shamol yigitning qulog‘iga yengil qo‘shiq to‘lqinini keltirib urdi (Sh.G‘ulomov) 4. Aka-singil - Olyaxon bilan Abdurahmon – Bo‘zsuv bo‘ylab texnikum tomon yo‘l oldilar (N.S.) 5. Tursumbetov degan qirg‘izni polkda hamma bilar edi (A.Q.) 6. Yo‘lchi suzgan sayin o‘zini engil sezar, tomirlari kengayar edi (O.) 7. Tirishdim: tog‘dan oshdim, yorug‘lik sari yo‘l ochdim (Maqol) 8. Bu haqda boshqa fikr bo‘lmagani uchun maorifdan boshqa muallim so‘rashga qaror qilindi (P.T.).

8-variant

I. Al...y, d...m...kr...tiya, konst...t...siya, l...ks...ya, d...kl...d, m...t...ng, gr...mm, k...nf...r...ns...ya, s...ss...ya, i...l, p...d...g...g...k..., ...nst...t...t, ...n...v...rs...t...t, ...sp...r...nt...r..., k...nsp...kt, l...ft, t...z...s, f...k...lt...t, f...k...lt...t...v, ...k...p, gr...mm...t...k..., l...ks...k..., ...rf...gr...f...ya, ...er...pl...n, st...l...st...k..., pr...kt...k..., pr...kt...k...m, k...mm...t...t...r, pl...j, k...mp...n...ya, ka...i...ul, au...i...oriya, bro...yu...a, agi...a...iya, p...o...aga...da, o...r...d, g...a...diya, ...adio, po...ez..., ...ru...pa, koo...e...a...iv, s...a..., sh...an...a, ter...ito...iya, p...og...amma, ...itm, vis...avka, ...elevidenie, s...ul, ...elevi...or, vi...eofil‘m, ki...e...atog...afiya, p...ezi...ium, fi...t..., vi...e-p...ezi...ent, sh...ri..., g...n...ral-m...yo..., ...l...ktr.

II. 1. U birinchi ko‘rishdayoq bildiki, Gulnor zaharlangan edi. (O.) 2. Istaymizki, turib yonma-yon, ijod etsak ko‘rkam ertasin. (Zulfiya) 3. Paxta tolasi va chigit shunday xazina manbayi ekanki, undan olinadigan narsalarning son-sanog‘i yo‘q. (G‘ayratuy) 4. Biror baxt chirog‘i yongan uy yo‘qki, unda aytilmagan bo‘lsin bu qissa. (G‘.G‘.) 5. Johil ulfat — boshingga kulfat. 6. Kim gapirganga boqma, nima gapirganga boq. 7. Teran daryo tinch oqar. 8. So‘z bilmagan er – el boshiga yov keltirar. 9. Oz-oz o‘rganib, dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib, daryo bo‘lur. 10. Bo‘ladigan bola yoshligidan ma‘lum. 11. Fikri ravshanning so‘zi ravshan. 12. To‘qqizda bo‘lmagan aql to‘qsonda ham bo‘lmas.

9-variant

I. Bi...lio...ra...iya, geo...o...iya, zoo...o...iya, mo...og...afi...a, kon...ti...utsiya, u...ive...si...et, bib...io...eka, u...amo, i...or, ku...u...xona. xush — hush, tuzsiz — tussiz, yod — yot, xo‘p — xob, saf — sof, sof — sop, bot — bod, ham — xam, yog‘du — yog‘di, judo — juda, sa‘va — sava, yondosh — yondash, ahil — ahl, qurt — qurut, sahna — sahni, ta‘qib — taqib, asl — asil, chinni — chini, siylash —

silash, yuvundi — yuvindi, mudofaa, taassurot, mutolaa, taajjub, taalluq, matbaa, badiiy, tabiiy, Lutfiy, fanniy, juz'iy.

II. 1. O'tgan bulutdan yomg'ir kutma. 2. Bilak bilan bo'lmagan bilim bilan bitar. 3. Ularning bola-chaqalari bo'lmaganidan, uylari biznikiga o'xshash to's-to'polon emas, yig'inchoqlik. (G'.G'.) 4. Ta'til vaqtida borolmaganim uchun, kampir biroz ranjigan bo'ldi. (G'.G'.) 5. Sen otash ichida urasan javlon, Dushman qolmasin deb sevgan elimda. (H. O.) 6. Xotini yana valdiramasin uchun, yumshoq gapirdi. (O.) 7. Yana o'n yil o'tar, go'yo havodan g'uvillab o'tgandek o'nta samolyot. (G'.G'.) 8. Aravakash yelkasini gupchakka tirab itarsa ham, ot to'rt oyog'i yerga mixlangandek qimir etmasdi. (O.) 9. O'qituvchilik kasbining ulug'ligi shundaki, unga xalq va davlat ishonib, farzandlarini topshirib qo'yan. 10. Quyosh o'z nuri bilan hayotga abadiylik bag'ishlagani kabi ilm ham qalblarga nur beradi.

10-variant

I. Gulshan, gulchi, yot—yod, xiyla—hiyla, tilla—tila, she'r—sher, tana – ta'na, anor, anjir, bog', bug'doy, bahor, kuz, paxta, dala, yoz, zavod, Kattaqo'rg'on, mashina, mosh, mayiz, nok, charos, sholi, qish, husayni, sabzi, sholi, uzum, kish-mish, qish, G'ulomjon, agronom, agrotexnika, agent, agrobiologiya, telegraf, tipografiya, teploxod, ekskavator.

II. 1. Uying tor bo'lsa ham ko'ngling keng bo'lsin (Maqol). 2. Kimiki bo'lsa inson bo'lsa odam Xaloyiqning g'amin yeydur damo-dam (A.N.). 3. Qayerda ahillik bo'lsa o'sha yerda ish unumli bo'ladi (Maqol). 4. Axir qancha qadim bo'lmasin dunyo Bag'rida nur borki qarimas quyosh (A. O.). 5. Har kun ortar ko'zlarimda nur shuning uchun yo'q aslo g'amim (H. O.). 6. Bahor bog'lariga gul yarashganidek qo'shiq yarashadi she'r to'yiga (She'rdan). 7. Ko'z oldimda shu qadar pok edi olam nurdan yaralgandi inson degan zot (A.O.) 8. Chodirlarni yel ko'targan payt lopillab turardi bu ona diyor (Sh.). 9. Tog'day taxting bo'lmasa ham kaftday baxting bo'lsin (Maqol). 10. Agar havoda chang va g'ubor bo'lmasa odamzod uch yuz yil yashashi mumkin (Ibn Sino). 11. Hamal kirdi, bir kaft tuproqni olib, qulog'iga tutgan dehqon yerning nafas olishini eshitadi (S. Ahm.).

TESTLAR

1-variant

1. Eramizdan avvalgi VI-IV asrlarda O'rta Osiyoning Eronga yaqin hududlarida qanday yozuv rasmiy hisoblangan?

- a) sug'd yozuvi.
- b) o'rxun-enasoy yozuvi.
- c) mix yozuvi.

d) arab yozuvi.

2. V-VIII asrlarda turkiy xalqlar qaysi yozuvdan keng foydalanishgan?

a) O'rxun-Enasoy.

b) arab.

c) uyg'ur.

d) oromiy.

3. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi qachon tasdiqlandi?

a) 1992, 7-oktabr.

b) 1992, 7-sentabr.

c) 1993. 29-oktabr.

d) 1993, 2-sentabr.

4. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi uchun imlo qoidalari qachon va kim tomonidan tasdiqlandi?

a) 24-avgust, 1995-yil, Vazirlar Mahkamasi tomonidan.

b) 21-oktabr, 1995-yil, O'zbekiston Oliy Kengashi tomonidan.

c) 15-sentabr, 1994-yil, O'zbekiston Prezidenti tomonidan.

d) 10-yanvar, 1996-yil, O'zbekiston Xalq Ta'limi vazirligi tomonidan.

5. Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga qachon tuzatish kiritildi?

a) 25-oktabr, 1994-yil.

b) 6-may, 1995-yil.

c) 8-yanvar, 1996-yil.

d) 15-iyul, 1995-yil.

6. Tarixiy-traditsion prinsip asosida yozilgan so'zlar qatorini toping?

a) ilg'aganmiz, fikrlashdim, qayerdan.

b) borgan, yozdim, ko'rgani.

c) ko'rgali, kuydirgali, kilurman.

d) urmagin, qarashdi, yuzlashishdi.

7. Etimologik-grafik prinsip asosida yozilgan so'zlar qatorini toping?

a) arxeologiya, buldozer, zoologiya.

b) bioximiya, olomon, sayohatchi.

c) simyog'och, velosiped, oshqozon.

d) fabrika, tijoratchi, savdogar.

8. So'zlar noto'g'ri yozilgan qatorni toping?

- a) fototelegramma, fotoatele teletomoshobin.
- b) atseton, fraziologiya, veloseped.
- c) temirugox, teleyanchilik, magnitagrafik.
- d) minometchi, sariyog‘, akkardion.

9. Xato yozilgan so‘zlar qatorini toping?

- a) kuporos, kristallanmoq, kontsentrat.
- b) akkumilyator, akustika, akvarium.
- c) makkor, marmelad, mandarin.
- d) fototelegramma, fotoatele teletomoshobin.

10. Birinchi komponenti sifat, ikkinchi komponenti atoqli ot bo‘lgan geografik nomlar qanday yoziladi?

- a) chiziqcha bilan yoziladi.
- b) qo‘shib yoziladi.
- c) ajratib yoziladi.
- d) ikkinchi komponenti kichik harf bilan ajratib yoziladi.

2-variant

1. “Bahridan o‘tmoq” ma’nosi qaysi qatordagi “kech” so‘zida o‘z ifodasini topgan:

Har qancha bilsang-da, o‘qi erta-kech,
 Bilim tog‘iga chiq, dengizni kech.
 Quruq savlatingga mahliyo bo‘lma,
 Mehnat-mashaqqatsiz halovatdan kech.

- a) 1- qator.
- b) 2- qator.
- c) 4- qator.
- d) bunday ma’no yo‘q.

2. Farg‘ona dialektiga xos so‘zlar qatorini toping.

- a) norvon, poki, qalampir, pishak.
- b) norvon, ustara, garimdori, mushuk.
- c) shoti, ustara, qalampir, mishik.
- d) zangi, poni, murch, pishik.

3. Ilmiy terminlar qatorini toping.

- a) qabila, elat, davlat, miqdor.
- b) chizmachilik, piltakich, do‘ppido‘zlik.
- c) anjob, sog‘i, bichikchi, piltakich.
- d) bigiz, qolip, shopchuk, dastak.

4. Qanday so‘zlar tarixiy so‘zlarga kiritiladi?

- a) tarixiy so‘zlar hozirda mavjud narsa-hodisalarning eskirib

qolgan atamalari.

b) tarixiy soʻzlar – tarixga oid narsa-hodisalarni bildiruvchi soʻzlar.

c) tarixiy soʻzlar – tilda yangi paydo boʻlgan va yangilik belgisi sezilib turadigan soʻzlar.

d) tarixiy soʻzlar – maʼlum territoriyada yashovchi kishilar nutqiga xos soʻzlar.

5. Atama nima?

a) juda tor doira (guruh)ga mansub kishilar qoʻllaydigan soʻzlar.

b) sinfiy ayirmalikni koʻrsatib turuvchi soʻzlar.

c) ilm fan, texnika, qishloq xoʻjaligi va boshqa sohalarga oid tushunchalarning aniq atamasi boʻlgan soʻz yoki soʻz birikmalari.

d) mahalliy hudud dialektlarning soʻzlari.

6. Adabiy tilga mansub soʻzlar qatorini toping?

a) varrak, doʻppi, qalampir.

b) shoti, parrak, ipak.

c) pishak, sigir, takya.

d) tilla, shohin, murch.

7. Emotsional-ekspressiv boʻyoqsiz soʻzlar qatorini toping?

a) alomat, badburun, naynov.

b) kelinchak, boʻtaloq, qoʻzichoq.

c) ayyor, kambagʻal, muhtoj.

d) chehra, bashara, jilmaymoq.

8. Hissiy taʼsirchan, boʻyoqdor soʻzlar qatorini toping?

a) kambagʻal, katta, koʻtarmoq.

b) parivash, murgʻak, qiltiriq.

c) mazali, ovora, ariq, urmoq.

d) xunuk, yuz, gʻirrom.

9. Qaysi javobda uslubiy betaraf soʻzlar berilgan?

a) soʻzladi, qalb, chehra.

b) jamol, yuz, bashara.

c) yurak, yuz, gapirdi.

d) soʻzladi, turdi, baqirdi.

10. Qaysi javobda soʻzlashuv uslubiga xos soʻzlar keltirilgan?

a) maysa, bahor, jala.

b) boropti, mingʻirladi, qutladi.

c) sadoqat, totli, shirin.

d) pichirladi, soʻradi, keldi.

ADABIYOTLAR

1. Абдуазизов А. Ўзбек тили фонологияси ва морфонологияси. Т.: 1992.
2. Ахманова О.С. Фонология. Морфология. М.: 1966.
3. Бегматов Э. Адабий талаффуз маданияти. Т.: «Ўзбекистон», 1982.
4. Бегматов Э. Ўзбек исмлари имлоси. Т.: «Фан», 1972.
5. Иброҳимов С. Нутқ маданияти ва адабий талаффуз ҳақида. Т.: «Фан», 1972.
6. Иброҳимов С. Бosh ҳарфларни ишлатиш қоидалари. Т.: 1964.
7. Иброҳимов С. Ўзбек имлосидаги баъзи қийин ҳолатлар. Т.: «Фан», 1970.
8. Иброҳимов С., Бегматов Э., Аҳмедов А. Ўзбек тилининг имло луғати. Т.: «Фан», 1976.
9. Имло луғати. Тузувчилар: Абдуллаев Й., Омилхонова М., Зуфарова С. Т.: «Ўқитувчи», 1976.
10. Кононов А. Н. Грамматика современного узбекского литературного языка. М.-Л., 1960.
11. Маҳмудов А. Гласные узбекского языка. Т.: «Фан», 1968.
12. Маҳмудов А. Ўзбек тилида урғу. «Ўзбек тили ва адабиёти масалалари» журнали, 1958, 1.
13. Мирзаев М., Усмонов С., Расулов И. Ўзбек тили. Т.: 1978.
14. Миртожиев М. Ўзбек тили фонетикаси. Т.: 1981.
15. Неъматов Ҳ. Тарихий фонетика. Т.: 1992.
16. Раҳматуллаев Ш. Орфография қоидалари - саводхонлигимиз асоси. Т.: «Фан», 1980.
17. Решетов В. В. Основы фонетики и грамматики узбекского языка. Т.: 1965.
18. Решетов В. В. Узбекский язык. Т.: 1962.
19. Содиқова М., Усмонова У. Ўзбек тилининг орфоэрик луғати. Т.: «Ўқитувчи», 1977.
20. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: «Ўқитувчи», 1975.
21. Усмонова У. Талаффуз нормаларини белгилаш масаласига доир. «Ўзбек тили ва адабиёти» журнали, 1975, 6, 42-46-б.
22. Шоабдурахмонов Ш., Асқарова М., Ҳожиёв А., Расулов И., Дониёров Х. Ҳозирги ўзбек адабий тили. II қисм. Т.: «Ўқитувчи», 1980.

23. Ўзбек орфографиясининг асосий қоидалари. Т.: 1956.
24. Ўзбек орфографияси ва пунктуациясининг асосий қоидалари. Лойиҳа, «Ўқитувчилар газетаси», 1981 йил. 8, 15 август.
25. Ғуломов А., Абдуллаев Й., Маъруфов З., Омилхонова М. Ўзбек тили дарслиги, 5- ва 6- синфлар учун. Т.: 1985.
26. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида қўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. Т.: «Фан», 1963.
27. Ҳозирги замон ўзбек тили. Т.: «Фан», 1957.
28. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Т.: «Фан», 1966.
29. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Б.: 2005.
30. Imlo lug‘ati. Т.: 1995.

II qism
1-AMALIY MASHG‘ULOT.
LEKSEMA (SO‘Z)NING SEMANTIK STRUKTURASI

VA KO‘P MA‘NOLILIK

Maqsad: leksema (so‘z)ning semantik strukturasi mohiyatini tushunish u bilan bog‘liq hodisalar, so‘zning leksik ma‘nolari tiplari, ko‘p ma‘nolilikning mohiyati, ko‘p ma‘nolilikning paydo bo‘lishini o‘rganish.

Tanlanish asosi: Leksema (so‘z)ning semantik xususiyatlarini sistemali bilish leksikologik va leksikografik bilimlarni mukammallashtirishning asosidir. Ko‘p ma‘nolilikning tilda paydo bo‘lishi, so‘zlarning turli leksik ma‘noda qo‘llanishi bilan bog‘liq nazariy bilimlarni egallash va amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish g‘oyat zarurdir.

Tilshunoslikda leksema va uning lisoniy tizimda tutgan o‘rni masalasidagi murakkab va chigal muammodan biri – leksemaning til struktur birligi bo‘la olish-olmasligi. Ko‘plab tilshunoslar tilning struktur birliklarini sanar ekan, fonema, morfema va konstruksiya bilan cheklanib, leksemani tilning alohida qurilish birligi emas, balki morfemaning bir ko‘rinishi sifatida qaraydi. O‘zbek tilshunosligida leksikani tizim sifatida tadqiq etish natijalarini umumlashtiruvchi o‘quv qo‘llanmasida (H.Ne‘matov, R.Rasulov. O‘zbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari) bayon etilgan.

Formal tilshunoslik bir ma‘noli va ko‘p ma‘noli so‘zni farqlaganligi kabi nazariy leksikologiyada bir sememali va ko‘p sememali leksema farqlanadi. Nazariy leksikologiya nuqtayi nazaridan nutqda qo‘llangan so‘z har doim bir ma‘noli. Chunki so‘z leksemaning bir martalik ko‘rinishi bo‘lib, u leksemaga zid ravishda betakrorlik tabiatiga ega. Leksema bir tushunchani ifodalasa, u bir sememali leksema deyiladi. Masalan, [qalam] leksemasi bir tushunchani ifodalaydi va shu sababli bir sememali leksema hisoblanadi. Ammo nutqda leksema ko‘chma qo‘llanishda har xil tushunchalarni ifodalayverishi mumkin. Lekin ma‘no va tushuncha orasidagi munosabat ijtimoiy shartlanganlik va barqarorlik kasb etmasa, leksemaning ko‘p sememaliligi haqida hukm chiqarib bo‘lmaydi. Masalan, Qashqirlar tog‘- Toshlar aro izg‘ishardi gapidagi (qashqir) so‘zi jangari to‘dani tashkil etgan kishilarni ifodalamoqda. Ushbu qo‘llanishda (qashqir) so‘zi «tog‘da yashovchi o‘ta yirtqich bo‘ri ma‘nosini emas, balki «tog‘da uya qurgan yirtqich kishilar» ma‘nosini ifodalamoqda va leksema ongimizda ushbu ma‘no bilan emas, balki oldingisi bilan yashaydi. Demak, bu ma‘no nutqiy bo‘lib, tushuncha bilan vaqtinchalik bog‘lanishga ega. Jamiyat taraqqiy etishi bilan

nutqiy hosila ma'no vaqtincha ifodalagan tushunchasi bilan doimiy aloqadorlik kasb etib, borabora barqarorlashib boradi va hosila nutqiy ma'no lisoniylashadi. Natijada bir sememali leksema birdan ortiq sememali leksemalarga aylanib boradi. Leksema ko'p sememali bo'lsa, har bir sememada boshqa-boshqa tushuncha aks etgan, sememalarda farqli semalar mavjud, har bir sememaning nutqiy voqelanishidagi qurshovi o'ziga xos, har bir sememasi asosida bog'lanuvchi birliklar paradigmasi turlicha bo'ladi. Quyida bir leksemaning lisoniy mohiyati – sememalari tiklanishiga diqqat qilamiz. [qoyil] leksemasi ikki xil qurshovda kelish imkoniyatiga ega. Birinchi qurshovda leksema atributiv vazifada keladi va narsa-predmet shaxs kabilarni ifodalovchi otlar bilan birikib, [sifat+ot] qurshovi hosilasi sifatida namoyon bo'ladi. 1. Qoyil ish. Qoyil odam. 2. Belim qisib qovurg'amni shishirdim. Do'stim sening zo'rilingga qoyilman. Shuningdek, leksema, ushbu ma'nosi bilan [qolmoq], [bo'lmoq] fe'llari bilan qo'shma fe'llar hosil qiladi. 1. Zag'chako'z bir misol bilan hammani qoyil qilmoqchi bo'ldi. 2. Xolam ruschani ham qoyil qiladilar. 3. Qovun so'yildi. Smirnov xuddi asalning rangiga va ta'miga o'xshash bir karchni og'ziga soldiyu, mazasiga qoyil bo'ldi.(O'TIL). Mustaqil voqelanishdagi nutqiy ma'noda [qoyil] leksemasining «narsa-predmet yoki shaxsga oid», «belgi, «tasanno aytishga loyiq», «ijobiy», «so'zlashuvga xos», «umumiy xususiyat, «shaxsiy baho», «me'yordan ortiq» semalari voqelanishini kuzatish mumkin. Semalar qatorida «belgi», «tasanno aytishga loyiq», «shaxsiy baho» semalari uyushtiruvchi mavqeda bo'lib, leksemaning asl mohiyati shularda parchalangan. Leksema o'z semantik tabiatiga ko'ra [ajoyib), [zo'r) leksemalari bilan paradigmatic munosabatda bo'ladi. Bu leksemalar ham narsa-predmet yoki shaxsning biror me'yordan ortiq belgi-xususiyatga bo'lgan shaxsiy munosabatini ifodalaydi. Biroq ular shaxsiy munosabatning belgiga ko'ra darajalanishini namoyon qiladi. «Biror xususiyatning me'yordan ortiq belgisining oshib borishi» darajalanish qatori [zo'r) –[ajoyib) – [qoyil) tarzida bo'ladi. Demak, har uchala leksema ham ijobiy, umumiy belgini ifodalasa-da, ular o'rtasidagi darajali ziddiyat birliklarning tildagi o'ziga xos mavqeini saqlab turadi. Leksema asosida hosil bo'lgan qo'shma fe'llarda ham leksemaning asosiy semalari o'z mavqeda qoladi, yordamchi fe'l uni harakat-holatga aylantiradi va hosila shaxsning ichki holatini ifodalaydi. Demak, [qoyil) leksemasi asosida hosil bo'lgan nutqiy hosilada [qoyil) va [qilmoq) leksemalari semalari qorishgan holda

tajallilanadi. Hosila holat-belgi ifodasi sifatida namoyon bo‘ladi. [qoyil] leksemasi ikkinchi sememasi bilan so‘z-gap vazifasida keladi. I. Qoyil! Men buni hech kimdan kutmagan edim. 2. Qoyil!- Komil o‘tirgan yerida chapak chalib ketdi. Bu nutqiy ma’nolarda leksemaning vazifa semasi bo‘rtadi va leksema mohiyatidagi ma’noviy «mag‘iz»ni o‘z vazifasiga moslab voqelantiradi. Shu boisdan sememadagi «so‘z-gap» vazifa semasi alohida ajralib turadi. Shu asosda leksema sememasining bu turini «kuchli ijobiylik», «munosabat» va «so‘z-gap» semalari qurshovi tarzida qabul qilamiz. Demak, leksemaning ikkala semasi o‘zaro «shaxsiy baho» va «shaxsiy munosabat» semalari asosida darajali ziddiyatda tursa, vazifa semalarining o‘ziga xosligi asosida ekvipolent ziddiyat hosil qiladi. [qoyil leksemasi ikkinchi semasi bilan [tasanno], [ofarin] leksemalari bilan paradigmatic munosabatda bo‘ladi. Leksema bir tomondan o‘z semantik ko‘lami bilan ushbu leksemadan farqlansa, ikkinchi tomondan, uslubiy xoslanganligi va bo‘yoqdorligi bilan ham ajralib turadi. [qoyil] leksemasida uslubiy belgi «so‘zlashuvga xoslik» tarzida bo‘lsa, [tasanno], [ofarin] leksemalari badiiy bo‘yoqdorligi va kitobiyliigi bilan xarakterlanadi. Leksemalar orasidagi yana bir muhim farq ularning semantik imkoniyati va, shu asosda, vazifa semalarida. [qoyil] leksemasi fe’llar bilan erkin birikuv hosil qila olmaydi. Uning fe’llar bilan bog‘lanishi derivatsiya darajasida. [qilmoq], [bo‘lmoq], [qolmoq] fe’llari bilan birikib, yuqorida aytilgandek, qo‘shma fe’l hosil qiladi, xolos. [tasanno], [ofarin] leksemalari esa nutq fe’lining ba’zilari bilan erkin birikib, to‘ldiruvchi vazifasida kelish imkoniyatiga ega (tasanno aytmoq, ofarin aytmoq). Bu esa [tasanno], [ofarin], [qoyil] so‘zlarining lug‘aviy-grammatik xususiyati bilan belgilanadi⁴.

SAVOLLAR

1. Leksik ma’no nima va u qanday ifodalanadi? (19, 20-6.; 20, 199-201).
2. Semalar leksema sememasining tarkibiy qismi sifatida qanday mohiyatga ega?
3. Leksik ma’no komponentlari (sema) o‘rtasidagi umumiylik va differensiallik xususiyatlarini bayon eting. (20, 202-204).

⁴ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: 2009. – B. 210. 85-91-betlar.

4. Soʻzning semantik strukturasi qoʻshimcha maʼno ottenkalari qanday ifodalanadi? Qoʻshimcha maʼno ottenkalari tildagi barcha soʻzlarga xosmi? (16, 104; 20, 213-216).

5. Koʻp maʼnolilik qanday paydo boʻladi? (7.)

6. Soʻzning maʼno tiplari oʻrtasida qanday bogʻliqlik boʻladi? Maʼno tiplari oʻrtasidagi farqni koʻrsating. (29, 109- 111; 16, 108-110).

7. Maʼno koʻchish usullari va tiplarining nutq turlariga xoslanishi qanday? (16, 109-110).

TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan matnlardagi koʻp maʼnoli leksemalarni ajrating. Ularning semalar tarkibini tushuntiring.

2. Prof. H. Neʼmatov, R.Rasulovlarning «Oʻzbek tilining sistem leksikologiyasi asoslari» (Toshkent, 1995) kitobi, «Oʻzbek tilining izohli lugʻati» (2 tomlik, Moskva, 1981) yordamida leksema (soʻz)larning semantik strukturasi tahlil qiling. Taxminiy tahlil rejasi: a) leksema sememasidagi bosh maʼnoni aniqlang; b) izohli lugʻatda toʻgʻri va koʻchma maʼnolar qanday tartibda izohlanganligini tushuntiring; d) koʻp maʼnolilikning qanday usul bilan paydo boʻlganligini aniqlang; e) maʼnolar (dastlabki va keyingi koʻchma maʼno) oʻrtasidagi bogʻliqlikni izohlang; f) lingvistik faktorlarning yangi maʼno hosil qilishdagi oʻrnini belgilang; g) soʻzning qoʻshimcha maʼno ottenkalarini aniqlang.

3. Hozirgi («Oʻzbek tilining izohli lugʻati» Moskva, 1981) va tarixiy (Alisher Navoiy asarlari tilining izohli lugʻati. I-IV, T.: «Fan», 1983-1985) lugʻatdagi ayrim soʻz maʼnolarini oʻzaro qiyoslang. Shu asosda soʻz maʼnolarining oʻzgarib borishiga qisqacha izoh yozing.

1-variant

I. Oʻzbekiston Respublikasi darslar oʻzbek tilida oʻtilmaydigan umumiy taʼlim maktablarida, hunar-texnika bilim yurtlarining hamda oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarining darslar oʻzbek tilida oʻtilmaydigan boʻlim va gruppalarida oʻzbek tilini oʻquv planining asosiy fanlaridan biri sifatida oʻrganishni taʼminlaydi, bu fandan bitiruv imtihoni topshiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasi darslar rus tilida oʻtilmaydigan umumiy taʼlim maktablarida, hunar-texnika bilim yurtlarida, oʻrta maxsus va oliy oʻquv yurtlarida rus tilini oʻquv planining asosiy fanlaridan biri sifatida oʻrganishni taʼminlaydi. Bu fandan bitiruv imtihoni topshiriladi. (Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 15-moddasi).

II. Shekspirdan soʻradim savol,

Javobini keltirdi Hayyom:
«Chunki gʻamga oshinodir hol,
Qaygʻu bilan toʻliqdir ayyom».
Oʻyladim-u, uzoq qoldim jim,
Soʻngra savol qildim oʻzimdand,
Daryo kabi toshib sevinchim,
Yosh tirqirab keldi koʻzimdand (H.O.).

III. Bosh, boʻyin, tana, qoʻl, oyoq.

IV. Muassasa, korxonalar, davlat va jamoat tashkilotlarining rasmiy muhrlari, tamgʻalari va ish qogʻozlarining matnlari respublika davlat tilida boʻladi, ruscha tarjimada takrorlanadi.

Milliy-madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamgʻalari va ish qogʻozlarining matnlari ular tanlagan tildan tashqari Respublika davlat tilida boʻlishi shart.

Lavhalar, eʻlonlar, narxnomalar va boshqa koʻrgazmali hamda ogʻzaki axborot vositalari respublika davlat tilida yoziladi va eʻlon qilinadi hamda rus va boshqa tillarda takrorlanadi.

Oʻzbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yorliqlari, korxonalar belgilari, ulardan foydalanish yoʻl-yoʻriqlari, oʻzbek tilida hamda millatlararo muomala tilida boʻlishi taʻminlanadi.

Mamlakatning boshqa respublikalaridan yoki chet ellardan keltirilgan mahsulotni savdo idoralari va tashkilotlari oʻzbek tilida va millatlararo muomala tilida bitilgan yoʻl-yoʻriqlar bilan taʻminlashi lozim. (Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 22-moddasi).

2-variant

I. Shodlik yoʻlga boshladi meni,
Baxtiyorlik boʻldi odatim,
Shoir boʻlib shodlik va baxtni
Kuylamaklik zoʻr saodatim...
Shuning uchun shodman bir umr,
Shuning uchun shodlik hamdamim,
Har kun ortar koʻzlarimga nur,
Shuning uchun yoʻq aslo gʻamim. (H. O.)

II. Yelka, koʻkrak, qorin, bel.

3-variant

I. Oʻzbekiston Respublikasida yashovchi grajdanlar millatidan qatʻi nazar, oʻz ismini (bir yoki bir necha) ota ismi va familiyasini (bir yoki

bir necha) tarixiy-milliy anʼanalarga muvofiq shaklda yozdirish huquqiga egadirlar. Ismlar, ota ismi va familiyalarining yagona toʻgʻri shakli maxsus maʼlumotnomalarda qayd etiladi. Oʻzbekcha, ismlar, ota ismi va familiyalar boshqa tillarda berilganda, ayni chogʻda, dunyoga mashhur kishilarning ota ismi va familiyasi oʻzbek tilida berilganda ularning asl yozilish xususiyati saqlanib qoladi.

Ismlar, ota ismi va familiyalarni yozishda oʻzbek tilining ifoda va talaffuz qonuniyatlariga rioya etiladi. (Oʻzbekiston Respublikasi Qonuni, 25-moddasi).

II. Olamda koʻp narsa kamyob bir qadar,
Ne-ne tuygʻular ham kamyobdir, alhol.
Men derdim: sof qalbni uchratgan safar
Darhol oʻrab oling atrofin, darhol.
Insof yoʻqolmasin, oʻrang mustahkam,
To uni yuzsizlik etmasin xarob.
Ezgulikni asrang, olamda u ham
Tojdor turna kabi boʻlmasin kamyob.
III. Tirsak, bilak, panja, barmoq.

4-variant

I. Oʻzbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obroʻ-eʼtiborini tubdan oshirish, unib-oʻsib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy anʼana va qadriyatlarga sadoqat, ulugʻ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash, mamlakatimizda davlat tilini toʻlaqonli joriy etishni taʼminlash maqsadida:

1. Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, Oʻzbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Maʼnaviyat va maʼrifat markazi, Oʻzbekiston Yoshlar ittifoqi, Oʻzbekiston Xotin-qizlar qoʻmitasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning oʻzbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun – 21-oktabr sanasini “Oʻzbek tili bayrami kuni” deb eʼlon qilish toʻgʻrisidagi taklifi maʼqullansin.

2. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilsin va uning tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish kabi... (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

II. Oqibatni asrang, oqibat go'yo
Ayiqday qaydadir topmasin zavol.
Hayoni asrangiz, kuymasin hayo -
Otashga duch kelgan polapon misol...
Vijdonni asrangiz har nedan ortiq,
Yagona zaminni asragansimon.
Bobolardan qolgan noyob bu tortiq
Toki avlodlarga yetolsin omon.
III. Yuz, peshona, chakka, yanoq.

5-variant

I. Bobolardan so'z ketsa zinhor,
Bir kalom bor gap avvalida.
Osmon ilmi tug'ilgan ilk bor
Ko'ragoniy jadvallarida.
Qotil qo'li qilich soldi mast,
Quyosh bo'lib uchdi tilla bosh.
Do'stlar, ko'kda yulduzlar emas,
U Ulug'bek ko'zidagi yosh.
Yerda qolgan, o, tanim manim,
O'zbekiston, Vatanim manim! (A. O.)
II. Til, tish, lab, og'iz.

6-variant

I. Ba'zan so'zlar «Bejoman» deb dod soladi,
Goh xuddi yov ustiga ot soladi.
Goh loqayd bo'ladilar har narsaga,
Na g'aflatga soladilar, na larzaga.
Esiz husnim deya o'ksib turadilar,
Yo azada, go'yo, qah-qah uradilar.
O'z o'rnida: birovga - jon, birovga - o'q,
Aytib bo'lgach, qaytib bo'lmas, foydasi yo'q.
Suvda birov, ko'rsangki, jon talashadi,
«Ber ko'lingni» desang, qanday yarashadi! (G.X.)
II. Tizza, tirnoq, to'piq, tovon.

7-variant

I. Arab alifbosiga asoslangan qadimiy o‘zbek yozuvini o‘zbek umumiy maktablarida, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarining darslar o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘limlarida o‘quv plani fanlaridan biri sifatida o‘qitish ta‘minlanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu yozuvni o‘rganishni istaydiganlarga har tomonlama imkoniyat yaratiladi. Buning uchun tegishli ilmiy-pedagogik kadrlar va darslik hamda metodik o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi, qadimiy o‘zbek yozuvida adabiy-tarixiy yodgorliklar, kitoblar, gazeta va jurnallar nashr etiladi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 16-modda).

II. Oramizda bor so‘z bilan o‘ynovchilar,
Qadrin bilmay, shaldiraq deb o‘ylovchilar.
Bulbullar bor, ovozlari shirin, loabar,
Sayrashlari do‘st-dushmanga bab-barobar.
So‘z qoldirar yaxshi otni, yomon otni,
So‘z oyoqqa turg‘izadi tumonatni.
So‘zni qayliq saylagandek sevib sayla,
To qo‘l ursa, muharrirga rashk ayla.
Gomer kabi mangulikka tanla uni,
Mangu yonar, topsang agar qalovini.
III. Yurak, o‘pka, oshqozon, xalqum.

8-variant

I. Avval yuragingga mo‘ralaydi u,
So‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi so‘z.
Zaminning ko‘zidan qochadi uyqu,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro‘z!
Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,
Yum-yum yosh to‘kmoqda eriyotgan muz.
Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro‘z! (A. O.)
II. Tumshuq, burun, ichak, jig‘ldon, ensa.

9-variant

I. Ona bag‘ri kabi iliqdir olam,
Harir hovur ichra yayrar dala-tuz.
Qoldi puchmoqlarda xazon yanglig‘ g‘am,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro‘z!
Yana ko‘ngillardan rutubat ketdi,

Yana shu'lalardan qamashmoqda ko'z.
Yana dildorlikning fursati yetdi,
Demak, Bahor keldi,
Kelmoqda Navro'z! (A. O.)
II. Ko'k, oq, qora, sariq, yashil

10-variant

I. Bu dunyoda maqsadlarim ko'p edi,
Istaklarim, orzularim mo'1 edi.
Qalbm olov, lovillagan cho'g' edi.
Armonlarda o'tib ketgan Usmonman.
Bu ko'zlarim to'ymagandi quyoshga,
Osmondagi porlab turgan yulduzga,
Tong pallasi chug'urlagan qushlarga.
Evoh... qora tunda qolib ketgan Usmonman (M.M.)
II. Devor, eshik, tuynuk, aybon, tom.

TESTLAR

1-variant

1. Leksikologiya nimani tekshiradi?

- a) leksik birliklarni, so'z boyligini tekshiradi.
- b) so'zlarning tovush tomonini tekshiradi.
- c) so'zlarning barqaror bog'lanmasini tekshiradi.
- d) so'zlarning erkin bog'lanmasini tekshiradi.

2. Leksema...

- a) tilning lug'aviy ma'no ifodalaydigan eng kichik, mustaqil birligi.
- b) tilning grammatik ma'no ifodalaydigan eng kichik, mustaqil birligi.
- c) tilning lug'aviy ma'no ifodalamaydigan eng kichik, mustaqil birligi.
- d) tilning ba'zan lug'aviy ma'no ifodalaydigan eng kichik, mustaqil birligi.

3. Partonimik munosabatlar...

- a) butun-bo'lakni ifodalaydigan turi.
- b) so'zlarning butun-bo'lak munosabati ifodalanadigan turi.
- c) butun yoki bo'laklarning ma'lum to'dasi.
- d) faqat butunlardan tashkil topgan turi.

4. Giponimik munosabatlar...

- a) so'zlarning butun-bo'lak munosabati ifodalanadigan turi.
- b) so'zlarning tur-jins munosabati ifodalanadigan turi.

- c) butun yoki bo‘laklarning ma‘lum to‘dasi.
- d) faqat butunlardan tashkil topgan turi.

5. Gradual munosabatlar...

- a) so‘zlarning butun-bo‘lak munosabati ifodalanadigan turi.
- b) so‘zlarning tur-jins munosabati ifodalanadigan turi.
- c) so‘zlarning darajalanish munosabatini ifodalaydigan turi.
- d) faqat butunlardan tashkil topgan turi.

6. Iyerarxik munosabatlar...

- a) so‘zlarning butun-bo‘lak munosabati ifodalanadigan turi.
- b) so‘zlarning tur-jins munosabati ifodalanadigan turi.
- c) so‘zlarning darajalanish munosabatini ifodalaydigan turi.
- d) so‘zlarning pog‘onaviylik munosabatini ifodalaydigan turi.

7. Semantika nimani o‘rganadi?

- a) so‘zlarning ma‘nosini.
- b) tilning lug‘at tarkibini.
- c) so‘zlarning kelib chiqishini.
- d) tilning hozirgi mavjud so‘z boyligini.

8. “Kirib shohning qoshiga shoir, ta‘zim, qulluq ado qiladir” gapida qoshida so‘zida ma‘no qaysi usul bilan ko‘chgan?

- a) metonomiya.
- b) sinekdoxa.
- c) vazifadoshlik.
- d) metafora.

9. Bir ma‘noli so‘zlar qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

- a) changchi, sifat, kasr, nuqta.
- b) ko‘k, eshik, ot, savol.
- c) gul, ko‘p, soat, burun.
- d) bog, sadaf, kumush, ogiz.

10. Ko‘p ma‘noli so‘zlar qaysi javobda to‘liq ko‘rsatilgan?

- a) oyoq, o‘t, yuz, ko‘k.
- b) buloq, uyg‘on, kuy, olam.
- c) yer, bir, koptok, ko‘k.
- d) tish, surat, taom, shox.

2-variant

1. Ushbu gaplarning qaysilarida ko‘chma ma‘noli so‘zlar qo‘llangan?

1. Kishilar o‘rtasidagi iliq munosabat kamayib ketmoqda. 2. Mustaqillik tufayli millatning g‘ururi, obro‘-e‘tibori o‘sdi. 3. Zamira

bugun darsga kech qolib keldi. 4. Tinchlik xalqni farovon qiladi, yurtni gullatadi, uning istiqboliga keng yo‘l ochadi.

A) 1,2,3 B) 1,2 C) 1,4 D) 1,2,4

2. 1. O‘t ishi - qovurmoq. 2. Bitta ham yovvovi o‘t qolmasin. 3. Ko‘chadan o‘tsang, to‘g‘ri o‘t. 4. Qalbida ishq o‘ti alangalandi. **Ushbu gaplarning qaysi birida o‘t so‘zi bir so‘zning ko‘p ma‘nolari hisoblanadi?**

A) 1-2 B) 1-4 C) 1-3 D) 2-4

3. Gaplarning qaysi birida ko‘chma ma‘noli so‘z berilgan?

A) O‘choq og‘zida o‘tga qo‘yilgan qumg‘on vaqirlab qaynamoqda edi.

B) Olimjon og‘zini katta ochib esnadi.

C) Sarvar xola qo‘lidagi ko‘sakning og‘zini yorar ekan, javob kutib tikilgan juvonlarga qaradi.

D) A, C

4. Yoqa so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma‘noda qo‘llanmagan?

A) Kanalning ikki yoqasi bo‘ylab qurilganlar juda ko‘rkam edi.

B) Umar qamishzorni oralab, ko‘l yoqasiga chiqdi.

C) Salim anchagacha yoqasining tugmasini o‘tkaza olmadi.

D) Sodiq ham o‘lim yoqasida. Endi siz bilan ikkimizgina qoldik.

5. Qaysi qatorda so‘zning so‘z birikmasi bilan ifodalangan ma‘nosi noto‘g‘ri berilgan?

A) samolyot - havo kemasi, g‘o‘nan - ikki yashar ot

B) jayron -yovvoyi tog‘ echkisi, nor - urg‘ochi tuya

C) ayg‘ir - erkak ot, maktab - bilim maskani

D) ezma - sergap odam, bo‘taloq - tuyaning bolasi

6. Ko‘chma ma‘noda ishlatilgan so‘z birikmalari qaysi qatorda berilgan?

A) non isi, harbiy xizmat, yoqimli hid

B) hunarli kishi, ahil oila, yog‘och qoshiq

C) kumush osmon, shishaning og‘zi, po‘lat iroda

D) ikki bola, shirin qovun, chuqur ko‘l

7. Qaysi qatorda ko‘chma ma‘noda qo‘llangan so‘z berilgan?

A) Kishi dunyoda baxtli bo‘lish uchun yashaydi.

B) Mehmon va mezbon allamahalgacha Lutfiy g‘azallarini zavq bilan o‘qishdi.

C) Barmog‘imning tirnog‘i etidan ajrab ketdi

D) U soy yoqasidan pastga tomon qiyalab yurdi.

8. So‘zning ko‘chma ma‘nosi deyilganda nima nazarda tutiladi?

A) so‘zning nutq tarkibidan tashqarida ifodalaydigan ma‘nosi

- B) nutq tarkibidagi boshqa soʻzlar yordamida anglashiladigan maʼnosi
- C) morfologik yoʻl bilan yasalgan soʻzlar maʼnosi
- D) sintaktik yoʻl bilan yasalgan soʻzlar maʼnosi

9. Qaysi gapda yengil soʻzi koʻchma maʼnoda ishlatilmagan?

- A) Es-hushingni yigʻ, unaqa yengil boʻlma!
- B) Davlatbekov radiodan aytilayotgan yengil kuydan, xususan, uning soʻzlaridan zavqlanib tebrandi.
- C) Yigirma minut oʻtgandan keyin yengil taʼzim bilan Gulandom kirib keldi.
- D) Yoʻlchi yengil eshikchani ochib kirdi.

10. Soʻzning oʻz (asl) va koʻchma maʼnosi qaysi qatorda berilgan?

- A) Qishloq markaziga shu yoʻl bilan boriladi. Bahslashishga yoʻl qolmagan edi.
- B) Egri ish qirq yildan keyin ham bilinadi. Mehribon qoʻllar hamisha sizni qoʻllab-quvatlasin.
- C) Ilgari ostonamiz tuyoq koʻrmagan. Harbiy xizmat temir intizomni talab qiladi.
- D) Bunday sovuq xabami kim tarqatdi? Daraxtlar uygʻondi.

2-AMALIY MASHGʻULOT
SHAKL MUNOSABATIGA KOʻRA LEKSEMALAR

Maqsad: tilda shakl munosabatiga asoslangan soʻzlar guruhlarini ajratish va ularga xos xususiyatlarni aniqlash misollar asosida ochib berish.

Tanlanish asosi: matnda qoʻllanilgan omonim va paronim soʻzlar topish, ularni turlariga koʻra ajratish koʻnikmalarini hosil qila olish muhim ahamiyatga ega.

Leksik birliklar lisonda turli semantik munosabat asosida har xil paradigma hosil qilgan holda mavjud boʻladi. Sinonimik, antonimik, graduonimik, paronimik, giponimik munosabat ana shunday lisoniy munosabat.

Sinonimiya. Shaklan har xil, ammo bir tushunchani turli boʻyoq va oʻttenka tu si bilan ifodalaydigan leksemalar sinonim deyiladi. Sinonim leksema orasidagi munosabat sinonimiya yoki sinonimik munosabat deb yuritiladi. Sinonim leksema sememalaridagi atash va vazifa semasi aynan bir xil boʻlib, ifoda semasi farqlanadi. Misol sifatida [yuz]-[bet]-[aftl]-[bashara]-[turq] qatorini keltirish maqsadga muvofiq. Aniqrogʻi, «shaxsiy munosabat» har bir leksemada boshqa-boshqa namoyon

bo'lgan. U [yuz] leksemasida «shaxsiy betaraf munosabat» ko'rinishida bo'lsa, [turq] leksemasida «o'ta kuchli shaxsiy salbiy munosabat» tarzida. Ma'nodoshlik qatoridagi leksemalarning ifoda semasi turli-tuman. Ulardan ayrimlari quyidagilar: 1) ijobiy yoki salbiy baho yoxud munosabat semasi; 2) leksemaning qo'llanish davrini ko'rsatuvchi sema: «eskirgan», «yangi», «o'ta yangi», «arxaik», «tarixiy»; 3) leksemaning qo'llanilish doirasini ko'rsatuvchi sema: «shevaga xos», «so'zlashuvga xos», «kitobiy», «ko'tarinkilik» va h.k. Ma'nodoshlik qatoridagi leksemaning bittasi dominanta (bosh) leksema bo'lib, boshqalari shu leksema atrofida birlashadi, ma'nodoshlik qurshovi hosil qiladi. Dominanta leksemaning yuqorida sanalgan barcha ifoda semasi neytral, betaraf. Masalan, [katta]-[ulkan]-[bahaybat] sinonimik qatori «kitobiylik», «ko'tarinkilik» ifoda semalari asosida tashkil topgan. Qatordagi katta leksemasida bu sema belgilanmagan (neytral), [ulkan] va [kalta] leksemalarida ifodalangan, oydinlashtirilgan. Ma'nodoshlik qatoridagi dominanta leksemaning bir qancha o'ziga xos xususiyati bor: 1) dominanta leksemaning mazmuni boshqa leksemalamikiga nisbatan «kambag'alroq» bo'ladi. Qiyoslang: [chiroyli], [go'zal] va [suluv]. Qatordagi [chiroyli] leksemasida [go'zal] va [suluv] leksemasidagi ko'tarinkilik bo'yog'i yo'q; 2) dominanta leksemaning qo'llanish doirasi va miqdori boshqa ma'nodoshlamikiga nisbatan keng va ko'p bo'ladi; 3) dominanta leksema belgilanmagan ifoda semasiga ega bo'lganligi bois istalgan vaqtda o'z ma'nodoshlarini almashtira oladi; 4) ma'nodoshlik qatori mansub bo'lgan katta tizimga faqat dominanta leksema kiradi. Masalan, «kishi tanasi a'zolari» lug'aviy ma'noviy guruhiga [yuz] dominanta leksemasi kirib, [quloq], [burun], [lab], [qosh], [peshona] leksemalari bilan paradigma hosil qiladi. Boshqa ifoda semasi belgilangan leksema «betaraf» bo'lolmaganligi bois yuqori paradigmaga kira olmaydi va uning betaraf vakili bu huquqqa ega bo'la oladi, xolos. Ma'nodoshlik paradigmasi doimo ochiq. Jamiyat, davr talabi asosida keraksizi iste'moldan chiqib, qator yangilari bilan boyib boraveradi. Nutqda ma'nodoshlik qatorlari nutqning atash birliklari, iboralar, mustaqil leksema sememalarining turi, yasama so'z, so'z birikmasi, nutqiy ko'chma so'z bilan to'lib, kengayib boradi. Bular kontekstual sinonim sifatida nutqning go'zalligi va boyligini ta'minlovchi vosita sanaladi.

Antonimiya leksemalar orasidagi zidlik munosabatidir: [katta]-[kichik], [yosh]-[qari], [mitti]-[ulkan], [oq]-[qora] va hokazo. Antonim

leksemalarning umumiy, birlashtiruvchi semasi bilan bir qatorda, qarama-qarshi semasi ham bo‘lishi lozim. Masalan, [katta] va [kichik] leksemalari umumiy - «sifat, «ko‘lam» semasi bilan birga, qarama-qarshi - «nisbatan ortiq» ([katta]) va «nisbatan katta bo‘lmagan» ([kichik]) semasiga ham ega.

Antonim leksemalar asosida borliqdagi qarama-qarshi hodisaning in‘ikosi bo‘lgan qarama-qarshi tushuncha yotadi. Antonim leksemalar bir turga kiruvchi giponim leksemalar: [issiq]- [sovuq] (harakat), [katta]-[kichik] (hajm), [erkak]-[ayol] (jins) va hokazolar.

Antonimlarning mantiqiy asosini ikki tur qarama-qarshilik tashkil etadi:

- a) kontrar qarama-qarshilik;
- b) komplementar qarama-qarshilik.

Kontrar qarama-qarshilik – darajalanuvchi leksema qatoridagi tafovutning farqlarga, farqning ziddiyat, ya’ni qarama-qarshilikka o‘tib borishi natijasida birinchi a’zo bilan oxirgi a’zoning antonimlashuvi. Masalan, [kichik]-[o‘rta]-[katta] , [yosh]-[o‘smir]-[o‘rta yosh]-[qari] kabi. Bunda [kichik] va [katta], [yosh] va [qari] leksemalari daraja qatorining ikki qarama-qarshi qatori a’zolari o‘rtasida ikki antonim a’zo belgilarini o‘zida mujassamlashtirgan bog‘lovchi bo‘g‘in. Yuqoridagi [o‘rta] leksemasida [kichik] va [katta] leksemalarining qarama-qarshiligi so‘nadi. Demak, leksemalarning kontrar qarama-qarshiligini ularning darajalanish (graduonimik) qatoridan izlash lozim.

Komplementar antonimiyada qarama-qarshilik uchinchi, oraliq bo‘g‘insiz bo‘ladi: [rost]-[yolg‘on], [arzon]-[qimmat], [oson]- [qiyin]. Bu leksemalar orasida oraliq uchinchi leksema yo‘q. Antonimlar strukturasi ko‘ra quyidagi turlarga bo‘linadi: 1) har xil o‘zakli antonim: [katta]-[kichik] , [kirmoq]-[chiqmoq], [muhabbat]-[nafrat]; 2) bir xil o‘zakli antonim: [madaniyatli]-[madaniyatsiz], [aqli]-[aqlsiz], [ongli]-[ongsiz]. Fanda antonimlar, asosan, sifat va ravish turkumiga xos degan hamda har xil o‘zaklilarini tan olishdek tor tushunish ham mavjud⁵.

SAVOLLAR

1. Mavjud adabiyotlar asosida omonim va paronim so‘zlarga berilgan ta’riflarni qiyoslang va ulardagi xususiyatlarni ko‘rsatib bering.

2. Omonimlarning ko‘p ma’noli so‘zlardan farqlarini tushuntiring.

⁵ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: 2009. – B. 210. 112-118-betlar.

3. Omonimning qanday turlari mavjud?
4. Omonimlar qanday yo‘llar bilan hosil qilinadi?
5. Omonimlarning she‘riyatdagi ahamiyatini tushuntiring va misollar keltiring.

TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan matnlardan omonim (paronim) so‘zlarga misollar toping.
2. Omonimlarning turlarini tushuntiring.
3. Omonim so‘zlarning ma‘nolarini izohlab bering.

1-variant

I. O‘zbekiston Respublikasi respublika davlat tilida, shuningdek, millatlararo muomala tilida darsliklar, o‘quv-metodik va ilmiy-texnik adabiyotlar nashr etilishini ta‘minlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida boshqa respublikalar bilan muayyan shartnomalar tuzgan yoki kelishgan holda rus, qoraqalpoq, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va boshqa tillarda o‘qitiladigan maktablar darsliklar, o‘quv-metodik, badiiy va ilmiy-texnik adabiyotlar bilan ta‘minlanadi. Shuningdek, qardosh respublikalarda yashayotgan o‘zbeklarni o‘zbek tilidagi o‘quv-metodik, badiiy va ilmiy-texnik adabiyotlar bilan ta‘minlaydi. O‘zbekiston Respublikasi respublikadan tashqarida ham o‘zbek tilini asrash va rivojlantirishga, maorif va madaniyatni tariqqiy ettirishga yordam beradi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 17-moddasi).

II. Charxi kajraftor elidin yozamen,
Chiqmadim hijron qishindin yoza men.

Bir meni yorliq bila yod etmas ul,

Har necha ul shahga qulluq yozamen (Lutfiy).

III. 1. Yaxshi otga bir qamchi, yomon otga ming qamchi (Maqol.)
2. Mana shu yorug‘ yulduzning oti nima, otaxon? (H.N.) 3. Yaxshidan ot qolar, yomondan dod qolar (Maqol). 4. Ot predmetlik ma‘nosini bildiruvchi so‘zlar turkumi hisoblanadi. 5. Ana unisiniyam ot! Zora tegizsang! (O.Y.) 6. Kech kirdi. 7. Hech bo‘lmaganidan ko‘ra kech bo‘lgani yaxshi (Maqol) 8. Yoningda bo‘lmoq orzum ertayu kech, faqat naylay ilojin topmadim hech (Uyg‘un va I.Sultonov.) 9. Behuda xayollardan kech.

2-variant

I. La‘lidin jonimg‘a o‘tlar yoqilur,

Qoshi qaddimni jafodin yo qilur.

Men vafosidin shodmen, ul vafo,

Bilmonki, qilmas yo qilur (Navoiy).

II. 1. Sherbek bu fikridan tok urgandek seskandi (S.A.). 2. Tub maqsading nima? 3. Erta bahorda o'n tup mevali daraxt ko'chati o'tqazdik. 4. Bahor chog'i butun tabiat gullar... (H.O.) 5. Juvonmarg g'unchani gam esla, yod et (Uyg'un va I. Sultonov.) 6. Qadr bilmas qarindoshdan qadr qilgan yot yaxshi (Maqol.) 7. Bu ko'zlar nimani ko'zlar? (Qo'shiqdan) 8. Soya so'zi kelib chiqish jihatidan tojikchadir. 9. Soya – dukkakli o'simlik turi. 10. Orqada qolganlarni ilgariga tort. 11. Dasturxonda xonaki pishiriqlar, atirgul nusxa tort va turli xil mevalar bor edi (S. Ahm).

III. O'zbekiston Respublikasida yashovchi grajdanlar millatidan qat'iy nazar, o'z ismini (bir yoki bir necha) ota ismi va familiyasini (bir yoki bir necha) tarixiy-milliy an'analarga muvofiq shaklda yozdirish huquqiga egadirlar. Ismlar, ota ismi va familiyalarining yagona to'g'ri shakli maxsus ma'lumotnomalarda qayd etiladi. O'zbekcha, ismlar, ota ismi va familiyalar boshqa tillarda berilganda, ayni chog'da, dunyoga mashhur kishilarning ota ismi va familiyasi o'zbek tilida berilganda ularning asl yozilish xususiyati saqlanib qoladi.

Ismlar, ota ismi va familiyalarni yozishda o'zbek tilining ifoda va talaffuz qonuniyatlariga rioya etiladi. (O'zbekiston Respublikasi Qonuni, 25-moddasi).

3-variant

I. "Davlat tili haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini bugungi kun talablari nuqtai nazaridan takomillashtirgan holda uning yangi tahrirdagi loyihasini ishlab chiqsin va O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga kiritсин;

b) ikki oy muddatda xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o'rgangan holda ilmiy asoslangan yangi so'z va atamalarni rasmiy iste'molga kiritish bo'yicha Atamalar komissiyasini tashkil etish va uning faoliyatini tartibga solish to'g'risida qaror qabul qilsin;

v) 2020-yil 1-iyunga qadar quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga olgan 2020 – 2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish hamda til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi va davlat dasturi loyihalarini kiritсин:

mamlakatimiz ijtimoiy hayotining barcha sohalarida, jumladan, davlat boshqaruvi, zamonaviy va innovatsion texnologiyalar, sanoat, bank-moliya tizimi, huquqshunoslik, diplomatiya, harbiy ish, tibbiyot va boshqa sohalarda davlat tilining imkoniyatlaridan to'liq va to'g'ri foydalanishga erishish;

ta'lim muassasalarida davlat tilini o'rgatish va uni bilish darajasini baholash tizimini yanada takomillashtirish, davlat tilining ilm-fan tili sifatidagi nufuzini oshirish;

davlat tili sofligini saqlash, uni boyitib borish va aholining nutq madaniyatini oshirish;

davlat tilining axborot va kommunikatsiya texnologiyalari, xususan, Internet jahon axborot tarmog'ida munosib o'rin egallashini ta'minlash, o'zbek tilining kompyuter dasturlarini yaratish;

davlat tili qoidalarining buzilishi bilan bog'liq holatlarni muntazam va har tomonlama o'rganish, ularni bartaraf etishga doir chora-tadbirlarni ishlab chiqish;

mamlakatimiz hududida istiqomat qiluvchi barcha millat va elatlar tillarining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratish, ularga davlat tilini o'rganish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish;

davlat tilining xalqaro miqyosdagi o'rni va nufuzi, uning boshqa tillar bilan aloqalari istiqbollarni belgilash, xorijda istiqomat qiluvchi vatandoshlar va o'zbek tilini o'rganish istagida bo'lgan chet el fuqarolari uchun o'zbek tili darsliklari va elektron dasturlarni ishlab chiqish va ularni keng miqyosda tarqatish, o'zbek tilini o'rgatish bo'yicha maxsus kurslarni tashkil etish. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

II. Qo'lingdan kelganча chiqar yaxshi ot,

Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.

Nasihatim yod qilib ol, farzandim,

Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yakka ot (Fozil Yo'ldosh o'g'li).

III. 1. Paxtakorlarimiz bu yil ham o'z majburiyanlarini muvaffaqiyatli ado etdilar. 2. Mehnat lagerida har bir a'zo o'z vazifasini aniq va puxta bajardi. 3. Katta ishni ko'ngildagidek bitirib keldingiz (X.Seitov.) 4. Bu yil guruh sardorligini o'rinlating... (U.) 5. Korxonamizning xor kollektivi har bir qo'shiqni zo'r mahorat bilan ijro etdi. 6. Muhabbat so'z bilan izhor etilmas. So'z bu vazifani o'tashdan yiroq (U.) 7. Hasanov buyruqni darhol bajo keltirdi. (N.S.) 8. Qishloqning husniga husn qo'shgan qaddi raso teraklar tik qomatlarini mag'rur ko'rsatib turadi (Sh.R.).

4-variant

I. Ey ko'ngul, yorsiz sango ne bor, bor,

Qaydakim ul zulfi anbar bor, bor.

Chek jafovu javru nozi borini,

Bir kun o'lg'aykim, degaydur: bor-bor.

II. 1. Yo‘lchi mashaqqatlar, qiyinchiliklar ichida bo‘lsa ham, faqir hayotning uch yilini Mirzakarimboy eshigida o‘tkazdi (O.). 2. Yuzi nam, yaltiroq o‘tloqning betida yuk mashinalarining behisob izlari ko‘rinib turardi. 3. Uning quvnoq chehrasi suv betida qizga yanada yoqimli ko‘rindi (I.R.) 4. Basharasiga tushgan qamchi zarbidan yerga yiqildi (Mirm.) 5. Rahmat kulib Otabekka qaradi. Otabek ham istehzoli tabassum orasida Homidga ko‘z qirini tashladi (A.Qod.) 6. Kampir Haydarning sog‘-salomatligi, onasi, qo‘ni-qo‘shnisi, uzoq-yaqin qarindosh-uruhlarning eson-omonligini so‘rab bo‘lgach, dasturxon yozib, patnis tuzatishga kirishdi (I. R.) 7. Azamat xalq - ulkan qozoq, o‘zbek elidan qutlov (G‘.G‘.).

5-variant

I. Ko‘z yoshim tuproq ila gar qotila,
Kelmagayman javridin, haqqo, tila.
G‘amzasi o‘ltirdiyu, ul bexabar,
Men agar o‘lsam, ne g‘am ul qotila.

II. 1. Avji qish vaqti bo‘lsa ham, yerda sira qor yo‘q, havo xuddi bahor havosiday yumshoq edi (S. Zunnunova) 2. Yo‘lchi rastalarni aylandi: mol ham ko‘p, pul ham ko‘p, lekin bular boylarniki (O.) 3. Saraton kirgan bo‘lsa ham, hamma yoq ko‘m-ko‘k, tog‘ cho‘qqilarini qalin qor qoplaganicha turibdi (H.N.) 4. Ufqqacha borib tutashgan bepoyon cho‘l qish bo‘yi namiqib chiqadi-da, bahor nafasi bilan selgiydi, yovvoyi o‘t-o‘lanlarga jon kiradi-yu ko‘kara boshlaydi (R.F.) 5. Yo‘llarda odam siyrak, ammo bu o‘lkaning alvon-alvon qushlari g‘oyat ko‘p, og‘ochdan-og‘ochga sakrab chug‘urlab yurgan to‘tilar havoni yangratar edi (O.) 7. O‘zi sezib turibdiki, bu gaplarga hech kim quloq solayotgani yo‘q: har kim o‘z xayoli bilan band edi (As.M.). 8. O‘rdaklar birin-ketin suvga tushib, suzib ketgach, g‘ozlar ham qo‘zg‘aldi: bo‘yinlari uzun, semiz, kattakon g‘ozlar lapanglaganlaricha suv tomon chopib ketdilar (M.M.).

6-variant

I. Ko‘ngluma har yonki boqsam, dog‘i bor,
Har necha dardimni desam, dog‘i bor
Qilcha tanga bori ishqing yor edi,
Bir sori bo‘ldi firoqing dog‘i bor.

II. 1. U sokin, kamtarin, muomalada nozik, lekin ulug‘ sifat, butun olimlar uning ma‘lumotining jamiki ilmlarda chuqur ekanligiga qoyil bo‘lsalar, har yerda tasdiqlasalar ham, ...u ko‘proq o‘z nuqsonlaridan gapirardi (O.) 2. Vohid uyquli ko‘zlarini arta-arta perronga chiqqanida,

tong nafasi sezilib qolgan, lekin ro‘paradagi chorbog‘ning ichi hali qorong‘i, u yer-bu yerdagi chiroqlar charaqlab turardi (O.Y.). 3. Aql berdim, yov bosganda, yengishga yo‘l topsin deb; ot ham boqdim, mavrid kelsa, jangda minib chopsin deb (H.O.) 4. Bahor quyoshi ko‘kning tiniq firuzasida Hirotning «Gavharshod» madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat peshtoqlarining naqshlari shu‘lalarda jonli, havoyi bir chamanzor kabi turli-tuman olov ranglar chaqnatar, kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qo‘nib, gumbaz tevaragida quvonch bilan inoq o‘ynashar edi. (O.) 5. Ko‘zim qirg‘oqda, ammo u yer bo‘sh, hech kim ko‘rinmaydi (O‘.Umarbekov).

7-variant

I. Tig‘i ishqing yorasidur butmagan,
Dardini har kimga aytib butmagan.
Hajr sahosidur ohim o‘tidin
Anda gul yohud giyohe butmagan.

II. 1. Bugun osmonni bulutlarning og‘ir, qalin, qoramtir namati qoplagan: izg‘irin burunlarni chimchilar edi, lekin odamlar bayramdagidek xursand, baland ruhda edi (O.) 2. Qorong‘i, lekin iliq bir kecha edi. Mayin qor uylarni, daraxtlarni oppoq qilib yasantirgan... yo‘l loy va sirpanchiq edi. (O.) 3. Bu yil tok shunday hosil qildiki, uzumi bargidan ko‘p, lekin ta‘mi boshqacharoq bo‘ldi (Ertakdan.) 4. Yomg‘ir yog‘ib, erir ekan qor, ochilarkan tog‘ning lolasi va yetilib to‘larkan bahor, boshlanarkan bulbul nolasi (H. O.) 5. Yana momaqaldiroq gulduradi, yana chaqmoq chaqib, yomg‘ir chindan ham chelaklab quya boshladi (O.Y.). 6. Boy ariqdan tetik hatlab, oldinga yurdi. Uning yangi amirkon kavushi yumshoq g‘irchillar, shohi yaktagi quyosh nurida jivir-jivir tovlanib, uchqunlanib yaltirar edi (O.).

8-variant

I. Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘trusig‘a oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

II. Ayrim xalqlar vaqt hisobini oy taqvimini bo‘yicha olib borishadi, shuning uchun yilning boshi goh kuzga, goh qishga to‘g‘ri keladi. Biroq qadimgi xalqlarda Yangi yilni nishonlash tabiatning uyg‘onishiga to‘g‘ri kelgan va bu, odatda, mart oyida yuz beradi.

Qadimgi rimliklarda mart birinchi oy hisoblangan, chunki bu oyda dala yumushlari boshlangan. Yil o‘n oydan iborat bo‘lgan. Keyinchalik oylar soni ikkitaga oshgan. Eramizdan avvalgi 46-yilda Rim imperatori

Yuliy Sezar yilning boshlanishini 1-yanvarga ko‘chirgan. Uning nomi bilan ataluvchi yulian kalendari butun Yevropaga tarqalgan.

9-variant

I. Raxshi himmat men tutub mahkam yolin
Yor izidin yet, karam qil, deb yolin,
Yo‘q-u borimni yoqib kul ayladi,
Ishq o‘tidin ko‘kka chirmoshg‘on yolin.

II. Sizga yaxshi ma‘lumki, yangi yil har doim ham 1-yanvarda nishonlanavermagan. Fransiyada 755- yilgacha yangi yilni 25-dekabrda, keyinchalik 1- martda, XII asrda pasxa bayrami kuni, 1564-yildan esa qirol Karl IX ning farmoni bilan 1-yanvar kuni bayram qila boshlashgan. Germaniyada XVI asrning ikkinchi yarmidan, Angliyada esa XVIII asrdan shunday qilishadi.

Rossiyada xristianlik joriy etilgan paytlardan boshlab yangi yil goh martda, goh pasxa bayramida nishonlanar edi. 1492-yili buyuk Ioann III yangi yilni 1-sentabr kuni nishonlash to‘g‘risida farmon chiqaradi. Mamlakatda 1-sentabr oxirgi marta 1698- yilda yangi yil sifatida bayram qilingan. Pyotr I ning farmoniga binoan Yevropada amalda bo‘lgan kalendar joriy etilgach, Rossiyada ham 1-yanvar yil boshi bo‘lib qoldi.

10-variant

I. Muniso, to‘kmay yigirma yetti yosh,
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh,
Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatingg‘a yetti yosh.

II. Umuman olganda, yozma manbalarning guvohlik berishicha, Yangi yilni bayram qilish an‘anasi kamida 25 asrlik tarixga ega bo‘lib, qadimgi Mesopotamiya va Nilning quyi vodiysida paydo bo‘lgan. Dajla va Frot daryolarining suvi ko‘paygan mart oyining oxirlaridan Mesopotamiyada dala yumushlari boshlangan. O‘rni kelganda dehqonchilik qadimgi turmushda muhim ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlash joiz. Shundan so‘ng yangi yil 12 kun mobaynida bayram qilingan. Bu paytda ishlash, kishilarni jazolash va sud qilish taqiqlangan.

Shu tariqa ushbu an‘ana bobilliklardan greklarga, ular orqali Yevropaga, undan butun dunyoga tarqalgan (Gaz.).

TESTLAR

1-variant

1. Omonimlar deb nimaga aytiladi?

a) fonetik strukturasi ma'lum tovushi farqli, lekin talaffuzi bir xil bo'lgan so'zlar omonimlar deyiladi.

b) talaffuzi bir-biriga yaqin, mustaqil ma'noli har xil so'zlar omonimlar deyiladi.

c) talaffuzi har xil, ma'nosi bir-biriga yaqin so'zlar omonimlar deyiladi.

d) ham talaffuzi, ham yozuvi jihatdan bir xil mustaqil ma'noli so'zlar omonimlar deyiladi.

2. Omonim so'zlar qaysi javobda to'g'ri berilgan?

a) burun, uch, yoqa, tuyoq.

b) bosh, etak, quloq, oqsoqol.

c) kul, yer, et.

d) oq, yoki, ter, tuz.

3. Qaysi javobda paronimiga ega so'zlar berilgan?

a) afzal, fakt, irq, naql.

b) asr, asl, azm, amr.

c) qolmoq, bosh, otmoq, tuzla.

d) bahs, jips, diplomat.

4. "Asl" so'zi qaysi gapda noto'g'ri qo'llanilgan?

a) ko'ylak asl shohidan tikilgan.

b) qizchanning asl ismi – Mehrinoz.

c) so'zning asl ma'nosi nima?

d) asl haqiqatdan xabardormisiz?

5. Qaysi javobda sinonim so'zlar berilgan?

a) uchramoq, yo'liqmoq, duch kelmoq, urilmoq.

b) yakka, tanho, yolg'iz, betaraf.

c) yuksalmoq, o'smoq, rivojlanmoq, taraqqiy etmoq.

d) yuz, aft, rang, soz.

6. Ideografik sinonimlar berilgan qatorni toping.

a) yuzi qora – beti qora.

b) dunyo, jahon, olam.

c) yuz, aft, bashara, turq.

d) yel, shamol, shabada.

7. Payt-zamonni bildiruvchi antonimlar qatorini toping.

a) qish-yoz, kun-tun, bugun-erta, hozir-qadim.

b) ichi-sirti, nari-beri, yer-osmon, yaqin-uzoq.

c) tez-sokin, ildam-bo'sh, baland-past.

d) tanish-notanish, aqlli-aqlsiz, dono-ahmoq.

8. Qaysi gapda antonim so'zlar berilgan?

- a) ko‘ngli toza kishining do‘sti ko‘p.
- b) shaharning chetida hali past-past binolar ham bor.
- c) suvning mo‘li – ekinning sho‘ri.
- d) aqlli o‘zini ayblar – aqlsiz do‘stini. bo‘ladi.

9. Yasama antonimlar qatorini toping?

- a) yigit-qiz, vafo-jafo, do‘st-dushman.
- b) yaxshilik-yomonlik, aqlli-aqlsiz, unumli-unumsiz.
- c) kulmoq-yig‘lamoq, uxlamoq-uyg‘onmoq, turmoq-o‘tirmoq.
- d) bahor-kuz, oz-ko‘p, chol-kampir.

10. “Asl” so‘zi qaysi gapda noto‘g‘ri qo‘llanilgan?

- a) ko‘ylak asl shohidan tikilgan.
- b) qizchaning asl ismi – Mehrinoz.
- c) so‘zning asl ma‘nosi nima?
- d) asl haqiqatdan xabardormisiz?

2-variant

1. “Tirikchilik” so‘zida -chilik affiksi qanday ma‘noni ifodalaydi?

- a) asosdan anglatilgan narsa-hodisaning sohani bildiradi.
- b) asosdan anglatilgan narsa-hodisaning borlik holatini bildiradi.
- c) asosdan anglatilgan tushuncha bilan bog‘liq bo‘lgan ishni anglatadi.
- d) muayyan kasb-korni ifodalovchi so‘zlar hosil qiladi.

2. Affiksal sinonimiya deb nimaga aytiladi?

- a) ma‘nosi o‘zaro bog‘liq bo‘lmagan, har xil affikslarning shaklan bir xil bo‘lishi.
- b) affikslarning shaklan har xil, umumiy ma‘nosi bir xil bo‘lishi.
- c) affikslarning ko‘p ma‘noga ega bo‘lishi.
- d) bir affiksning turli o‘zaklarga qo‘shilib turlicha ma‘no ifodalashi.

3. “Kirib shohning qoshiga shoir, ta‘zim, qulluq ado qiladir” gapida qoshida so‘zida ma‘no qaysi usul bilan ko‘chgan?

- a) metonomiya.
- b) sinekdoxa.
- c) vazifadoshlik.
- d) metafora.

4. Metonimiya nima?

- a) tildagi ba‘zi so‘zlarning dastlabki anglatgan ma‘nolaridan tashqari boshqa yangi ma‘nolarni ifodalashi.
- b) ma‘lum narsa, voqea-hodisaning biror tomoni yoki ayrim belgisi bilan boshqa narsa yo voqea-hodisaning o‘xshatilishi.

- c) bir nom orqali ikkinchisining ifoda etilishi.
- d) butun haqidagi tushunchaning bo‘lak tushunchasi orqali ifodalash.

5. “Shirin” so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma’noda kelgan?

- a) shirin-shirin uzumlar patnisga qo‘yildi.
- b) sumalak – shirin taom.
- c) xayolini birpasda shirin xotiralar chulg‘adi.
- d) mineral tuzlar shirin suvda ko‘p.

6. Omonimlar deb nimaga aytiladi?

- a) fonetik strukturasi ma’lum tovushi farqli, lekin talaffuzi bir xil bo‘lgan so‘zlar omonimlar deyiladi.
- b) talaffuzi bir-biriga yaqin, mustaqil ma’noli har xil so‘zlar omonimlar deyiladi.
- c) talaffuzi har xil, ma’nosi bir-biriga yaqin so‘zlar omonimlar deyiladi.
- d) ham talaffuzi, ham yozuvi jihatdan bir xil mustaqil ma’noli so‘zlar omonimlar deyiladi.

7. Har yoqda buloqlar oqmoqda sharaqlab, Har siynada shoqlik, toshmoqda tilaklar misrasidagi “siynada” so‘zining sinonimlarini toping?

- a) qalb, yurak, dil, a’lo, ko‘ngil.
- b) yurak, qalb, dil, ko‘ngil, ko‘krak.
- c) dil, ko‘ngil, kurak, ko‘krak, qalb.
- d) ko‘ngil, yurak, dil, kurak, tana.

8. “Yana” so‘zining oddiy so‘zlashuviga xos bo‘lgan sinonimi ishtirok etgan gapni toping?

- a) kichkina eshikcha yoniga yetganda tag‘in haligidek orqasiga qarab qo‘ydi.
- b) eshon bir ko‘zini qisib turib qayta so‘radi.
- c) qodir boshqa ichmaslik sharti bilan ikkinchi piyolaning yarmini ichishga rozi bo‘ldi.
- d) oydin xola jahl bilan bo‘lak indamadi.

9. “Bahridan o‘tmoq” ma’nosi qaysi qatordagi “kech” so‘zida o‘z ifodasini topgan:

Har qancha bilsang-da, o‘qi erta-kech,

Bilim tog‘iga chiq, dengizni kech.

Quruq savlatingga mahliyo bo‘lma,

Mehnat-mashaqqatsiz halovatdan kech.

- a) 1- qator.

b) 2- qator.

c) 4- qator.

d) bunday ma'no yo'q.

10. **“Kulmoq” so‘zining salbiy ma’nosi qaysi qatordagi gapda kuchli ifodalangan?**

a) mirshab iljayib qo‘ydi.

b) Salimboyvachcha tirjayib qaradi.

c) Navoiy tabassum qildi.

d) bolalar xoxolashdi.

3-AMALIY MASHG‘ULOT SINONIMIYA VA UNING XUSUSIYATLARI

Maqsad: leksik sinonimlarning ma'no va funksional xususiyatlari, sinonimik qator, sinonimiya va uning turlari kabilar bilan tanishish.

Tanlanish asosi: Sinonimik qatorni tashkil etuvchi so‘zlarning birlashtiruvchi ma'nosi va bosh so‘zni aniqlash, har birining emotsional va stilistik bo‘yog‘ini belgilash nutq taraqqiyoti uchun katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Leksik birliklar o‘zaro sinonim bo‘lishi uchun ular umumiylikka ham, farqli belgiga ham ega bo‘lishi lozim: leksik ma'no tarkibidagi ideografik semalari teng bo‘ladi; farqlanish odatda biror ideografik semaning ma'no qirrasida, baho semasida, nutq ko‘rinishiga birkutilish belgisida voqe bo‘ladi. Sinonimlar o‘zaro yuqorida sanalgan har uch jihati bilan yoki ikki jihati bilan, hatto bir jihati bilan farq qilishi mumkin. Sinonimlarga bunday uch jihatdan yondashib beriladigan tavsif – ularni uchga tasniflash emas, balki sinonimlarni har xil nuqtayi nazardan baholash; shunga ko‘ra bunday tavsiflar bir-birini inkor qilmaydi. Agar ikki leksema (leksosemema) har jihatdan teng bo‘lsa, o‘zaro farqlovchi belgiga ega bo‘lmasa, leksik dubletlar deyiladi (Bu hodisani absolut sinonimiya deb nomlash ham mavjud). Leksik dubletlar odatda terminlarda uchraydi: ayni bir tushunchani anglatish uchun bir necha leksema ishlatiladi: affiks – qo‘shimcha kabi. Bunday dubletlardan biri asli ortiqcha deyiladi. Agar bunday leksemalarda biror jihatdan farqlanish yuz bermasa, bittasi iste’moldan chiqib ketadi. Demak, leksik dubletlar – o‘tkinchi hodisa.

Sinonimlar o‘zaro baho semasi bilan farqlansa, baholovchi sinonimlar deyiladi (Bu hodisa stilistik sinonimlar deb ham nomlanadi). Har bir sinonimik uyada odatda: a) baho semasi betaraf leksik birlik va b) baho semasi mavjud leksik birlik bo‘ladi. Masalan,

[yuz], [bet], [aft], [bashara], [chehra] sinonimik uyada [yuz] leksemasi, [kul], [iljay], [irjay], [tirjay], [ishshay], [hiringla], [tabassum qil], [xaxola], [xandon] [tashla] sinonimik uyada kul-leksemasi baho semasi jihatidan betaraf, qolgan leksemalarda esa baho semasi bo‘rtib turibdi. Sinonimlarda baho semasi: 1) ijobiy bo‘ladi: [chehra], [jilmay], [tabassum qil] leksemalaridagi kabi; 2) salbiy bo‘ladi: [aft], [bashara], [irjay], [tirjay], [ishshay] leksemalaridagi kabi. Leksemalarni tanlab ishlatishda sinonimlarning baho semasiga alohida e‘tibor beriladi, chunki baho semasi shu leksema (leksosemema) anglatayotgan voqelikka so‘zlovchining ijobiy yoki salbiy munosabatini bildirib turadi.

Sinonimiya ko‘pma‘nolilik hodisasi bilan uzviy bog‘langan, chunki sinonimik munosabat leksemalarda leksik ma‘nolar bo‘yicha voqe bo‘ladi. To‘g‘ridan to‘g‘ri leksema bilan leksema sinonim bo‘lishi uchun ular bir leksik ma‘noli bo‘lishi lozim. Ko‘pma‘noli leksemalarda har bir semema boshqa bir leksema bilan (agar u birma‘noli bo‘lsa) yoki semema bilan (agar u ko‘pma‘noli bo‘lsa) sinonimik munosabatga kirishadi. Masalan, [bosh] leksemasi bir sememasida [to‘ng‘ich] leksemasi bilan, ikkinchi sememasida asosileksemasi bilan sinonimik munosabat hosil qiladi. Leksik ma‘no turlari jihatidan qaraganda sinonimik munosabat: 1) bosh (to‘g‘ri) ma‘nolar orasida bo‘ladi; bu – asosiy holat: butunlay-tamomila kabi; 2) bosh (to‘g‘ri) ma‘no bilan hosila (ko‘chma) ma‘no orasida; bunday hodisa anchagina uchraydi: [to‘ng‘ich], [bosh]; [puxta], [pishiq] kabi; 3) hosila (ko‘chma) ma‘nolar orasida bo‘ladi; bunday holat ko‘p emas. Masalan, [gapning mag‘zi], [gapning tuzi] birikmalaridagi [mag‘iz], [tuz] leksemalari o‘zaro hosila ma‘nolarida sinonim bo‘ladi.

Sinonimik munosabat til taraqqiyotining muayyan bir bosqichi doirasida beigilanadi. Shunga ko‘ra ilgari poetik asarlarda qo‘llanib, hozir iste‘moldan chiqib ketgan [kavkab] (arabcha [yulduz]) leksemasi bilan yulduzleksemasi hozirgi o‘zbek tili nuqtayi nazaridan sinonimlar deb qaralmaydi. Har xil ijtimoiy tuzumga taalluqli tushunchalami anglatadigan leksemaiar ham o‘zaro sinonim deb qaralmaydi, chunki bulari hozirgi tilda biri o‘rnida ikkinchisini ishlatib bo‘lmaydi: [sudya], [qozi], [militSIONER], [politsiyachi] kabi. Sinonimlar – tilning boy ekanini, taraqqiyot darajasini ko‘rsatib turuvchi hodisalardan biri. Sinonimlar yordamida nozik ma‘no qirralari anglatiladi, voqelikka turlicha baho, munosabat ifodalanadi. Sinonimlardan birini tanlab ishlatish bilan voqelikning ma‘lum bir qirradi bo‘rttirib anglatiladi,

ifodalanadi. O‘z fikrini anglatishda, voqelikka o‘z munosabatini ifodalashda yagona o‘rinli leksemani sinonimlari orasidan tanlab ola bilish kerak. Sinonimlardan yana nutqni ixcham, ravon tuzishda, shuningdek talaffuzni qulaylashtirishda ham foydalaniladi. Bulardan tashqari, sinonimlar bilan juft leksemalar ham tuziladi: [or-nomus], [baxt-saodat] kabi⁶.

SAVOLLAR

1. Sinonimlarga qanday ta’riflar berilgan?
2. Sinonimlarning umumiy ma’nosi, har bir sinonimning o‘ziga xos ma’no qirralari qanday belgilanadi?
3. Sinonimik qator nima va u qanday xususiyatlarga ega?
4. Sinonimlarning paydo bo‘lishidagi lingvistik omillar nimalardan iborat?

TOPSHIRIQLAR

1. So‘zlarning sinonimlarini toping, bosh so‘zni aniqlang, bosh so‘z bo‘lish sababini izohlang.
2. Sinonimik qatorga xos umumiy ma’noni, har bir sinonim so‘zga xos leksik ma’noni va ularning stilistik, emotsional bo‘yog‘ini izohlang.
3. Sinonimik qatordagi so‘zlarning ma’nolarini «O‘zbek tilining izohli lug‘ati»dan ko‘chirib oling, nechta ma’nosi borligini, shulardan qaysi biri bosh ma’no ekanligini aniqlang.
4. Berilgan matndan sinonimga ega so‘zlarni toping, ularning sinonimlarini sanang.

1-variant

I. O‘zbekiston Respublikasi davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatida, syezd, plenum, qurultoy, sessiya, konferensiya, majlis va kengashlar respublikaning davlat tilida olib boriladi va aynan tarjimasi ta’minlanadi.

Mehnat kollektivlarida majlislar davlat tilida, shuningdek, majlis ahli tanlangan tilda olib boriladi.

Majlis ishtirokchilari istagan tilda so‘zga chiqishlari mumkin: ularning nutqlari majlisning ish tiliga tarjima qilinadi.

O‘zbekiston Respublikasida o‘tkaziladigan xalqaro, umumittifoq va respublikalararo simpoziumlar, konferensiyalar, kengashlar va majlislarda respublika davlat tili va majlis ahli tanlangan til qo‘llanadi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 5-modda).

II. Avvalgi...

⁶ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Darslik. T.: 2006. – B.450, 77-78-betlar.

III. Ayyor, mug‘ombir, hiylagar, quv, ustomon, makkor, dog‘uli, mo‘ltoni, qilvir, shayton, tulki, tullak, qirriq, xirpa, maston.

IV. Xadichabegim Boburni qasrning muhtasham qabulxonasida kutib oldi va oyog‘i ham quyma oltindan ishlangan, ustiga yaxlit sadaf qoplangan miz yoniga o‘tqazdi.

Salobatli xushqomat begimning orqarog‘ida - qabulxonaning eng ko‘zga ko‘rinarli joyida bir tup atirgul yarqirab turibdi: poyalari oltindan, barglari zumraddan, to‘q qizil gullari yoqutdan. Gul shoxiga qo‘nib turgan kichkina oltin bulbulning tumshuqchasida don o‘rnida sof gavhar jilolanib turibdi. qabulxonaning eshik va derazalariga osilgan shohi darpardalariga ham durlar, la‘llar va boshqa qimmatbaho toshlar qadalgan.

Faqat Xadichabegimning o‘zi qoramtir-kumushrang parchadan bezaksiz qabo kiygan, uning boshidagi ko‘kish toqida ko‘zga uncha tashlanmaydigan siyrak marvarid donalari ko‘rinar edi. Aqlni shoshiradigan bunday javohirot orasida go‘zal qiz-juvonlar qurshovida o‘tirgan ellik yoshli ulug‘ sifat malika Boburni ham, Qosimbekni ham ancha dovdiratib qo‘ydi (P.Qodirovdan).

2-variant

I. Xalqimizning ko‘p asrlik madaniy, ilmiy-ma‘rifiy va badiiy tafakkuri, intellektual salohiyatining yorqin va bebaho mahsuli bo‘lgan o‘zbek tili jahondagi boy va qadimiy tillardan biridir.

O‘zbekistonda 1989-yil 21-oktabrda el-yurtimiz asrlar davomida orzu qilib, intilib va kurashib kelgan davlat tili haqidagi qonunning qabul qilinishi mamlakat suvereniteti va mustaqilligi sari qo‘yilgan dastlabki dadil qadam edi. Aynan ana shu tarixiy hujjatga binoan o‘zbek tili mustahkam huquqiy asos va yuksak maqomga ega bo‘ldi.

Istiqlol yillarida ona tilimiz tom ma‘noda davlat tiliga aylanib, xalqimizni yurtimizda erkin va ozod, farovon hayot qurishdek buyuk marralarga safarbar etadigan beqiyos kuch sifatida maydonga chiqdi.

Bugun O‘zbekistonimiz “Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari” degan bosh tamoyil asosida taraqqiyotning yangi, yanada yuksak bosqichiga ko‘tarilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar jarayonida davlat tilining hayotimizdagi o‘rni va nufuzi tobora oshib bormoqda.

O‘zbek tili siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy jabhalarda faol qo‘llanib, xalqaro minbarlarda baralla yangramoqda. Xorijiy mamlakatlarda tilimizga e‘tibor va uni o‘rganishga qiziqish kuchaymoqda.

Bugungi globallashuv davrida har bir xalq, har qaysi mustaqil davlat o'z milliy manfaatlarini ta'minlash, bu borada avvalo o'z madaniyatini, azaliy qadriyatlarini, ona tilini asrab-avaylash va rivojlantirish masalasiga ustuvor ahamiyat qaratishi tabiiydir. (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

II. Avvaldan...

III. Aylanay, aylansin, o'rgilay, o'rgilsin, girgitton, qoqindi?, sadaqa.

IV. Mana, qariyb bir oydirki, Onaxon uyda to'shakda mixlanganday qimir etmay yotadi... Tinimsiz azobli og'riq uning ruhini, miyasini charchatar, bu ayniqsa boshini yo qo'lini bir oz qimirlatganida, yoki uning karovatini uydan ayvonga va ayvondan uyga ko'chirganlarida ko'proq sezilar edi. Ba'zan miyadagi og'riq lovullab butun badanini qoplab olar, isitma birdan ko'tarilib, ko'zlaridan o't chiqquday bo'lar, keyin hammayoq qorong'ilashib, Onaxon tubsiz va dahshatli qandaydir yoqimsiz iliq to'lqinda suzib ketayotganday bo'lar, hushini yo'qotar edi... Avvallari ikki haftagacha uni uyqusizlik qiynadi, sal pinakka ketishi bilan ko'z oldida paydo bo'ladigan qo'rqinchli narsalar, bosinqirashlar uni uyqudan cho'chitib qo'ydi, uyqu unga dahshatli ko'rinar edi. Shuning uchun ko'zini yummaslikka tirishar, bu esa uni battar toliqtirar, og'riqqa qarshi chidamini susaytirar edi. Dastlabki kunlarda o'qtin-o'qtin hushidan ketib turgan Onaxonning nazarida uning hayoti go'yo milt-milt etib xira yonayotgan shamdek, uzilib-uzilib davom etganday ko'rinar edi (A.Muxtordan).

3-variant

I. Avvalo...

II. Aytishmoq, janjallashmoq, koyishmoq, mojarolashmoq, urishmoq, g'ijillashmoq, qizarishmoq, tiklashmoq, olishmoq, so'kishmoq.

III. Shoir «Xiyobon» ko'chasini o'tib, «Bog'i zog'on»ning katta darvozasiga etishi bilan bu erda tartib kuzatib turgan navkarlar muhrdorga salom berib, darrov otning jilovini ushladilar. Shoir ularning yordamisiz otdan tushdi-da, «Bog'i zog'on»ga kirdi. Bu - turli qasrlar, ko'shklar va boshqa go'zal binolar va ajoyib xiyobonlarga boy g'oyat katta bog' edi. Daraxtlar oralab ketgan keng, toza va quyosh nurlari bilan olachalpoq yo'ldan borib, bir necha tanob joyni ishg'ol etgan katta gulzorga chiqdi. Bu erga go'yo butun dunyoning gullari to'plangan edi. Turli-tuman rang va ziyo bilan quyoshda yashnagan bu

chaman koʻzlarni qamashtirardi. Navoiy gulni, rangni juda sevar edi. Har kungidek toʻxtab, zavq bilan tomosha qildi. Keyin bu chamanzor qarshisidagi koshonaga - devorlari, ustlari, eshiklari naqqoshlar qoʻli bilan yasalgan naqsh gulzorini tovlantirgan binoga tomon yurdi. Oltin qubbachalar, oʻymakor gullar bilan bezangan eshikni ochib, kichikroq, lekin serhasham bir xonaga kirdi (Oybekdan).

4-variant

I. Agar...

II. Albatta, shubhasiz, muqarrar, soʻzsiz, aniq, tayin, shaksiz, beshak, begumon.

III. Anvar «istehzoli» vaziyatda Sultonaliga yon qaradi:

- Menim qarshimga ishlab, janobga neqadar sodiq qolsangiz ham, sadoqatingiz sizni najotga chiqara olmadi, bilʼaks, siz oʻylagancha men - insofsiz sizni qutqardim... Siz shuni unutmangiz boʻldi, Sultonali aka! - dedi Anvar va xonga ishorat qildi - qoʻlimni bogʻlasinlar, chiqarib oʻldirsinlar!

Sultonali orqasiga qaytdi, qaytar ekan, koʻzidan bir necha tomchi yoshi oqib tushdi. Jallodlardan biri kelib, Anvarning qoʻlini orqasiga bogʻladi. Anvarning qoʻli bogʻlanar ekan, Muhammad Niyoz domla oʻrnidan turib, xonga qulluq qildi.

- Shu odobsizning gunohini mening uchun kechsinlar.

Xon yuzini chetga oʻgirdi:

- Rastagʻa chiqaring?!

Anvar, xonni va hamnishinlarini masxaralagandek, taʼzim ado qildi. Jallod oldinga tushdi, uning orqasidan ikki nafar qurollik yasovul ergashdilar. Anvar oʻzini oʻrdaga kirishda qanday tetik tutgan boʻlsa, oʻlim sari chiqishda ham oʻshandoq parvosiz edi. Koʻzi tushgan har kimsa bilan «xayr», «xoʻsh» degan kabi imlashib olar edi. Rangi quv uchib, hushsiz kabi tashqi darvoza yonida turgan Sultonali bilan ham alohida vidolashdi. Anvarning karashidagi maʼnoga tushungan Sultonalining yuragi suv boʻlib oqdi va hushsiz, hissiz, Anvar koʻzdan yoʻqolguncha qarab qoldi...(A.Qodiriydan).

5-variant

I. Ajablanmoq...

II. Ataylab, atay, atayin, ataydan, joʻrttaga, joʻrtta, maxsus, azza-bazza.

III. Qayerdandir paydo boʻlib qolgan moʻysafid bogʻbon mehmonlar bilan soʻrashib, ularni kattakon hovuz boʻyidagi baland... shiyponga olib chiqdi. Shiyponni haqiqatan juda didlik odam zoʻr

havas bilan solganligi ko‘rinib turar edi. Uning atrofidagi gulzorda rang-barang kapalaklar, ignachilar qanot qoqar, asalarilar g‘o‘nqillar, allaqaerda, g‘urrak g‘urillar edi. Chol shogirdi bo‘lmish yoshgina, ozg‘in, juda sertavoze yigitning qo‘liga qoshiqdon savatni berib, meva-chevaga yubordi-da, o‘zi poygakka cho‘kka tushib, mehmonlar kimlar va nima uchun kelganliklari bilan ishi bo‘lmay, bog‘ning tarixi, bunda qandoq mevalar borligi, bularning ko‘chatlari qayerlardan keltirilganligi, bog‘da qanday ulug‘ kishilari bo‘lganligi-yu, nimalar deganligi to‘g‘risida so‘zlab ketdi. Vohaning har qayeridan keltirilgan turli-tuman ko‘chatlar ichida uning uchun eng mo‘tabari allaqayerdan samolyotda keltirilgan yigirma tup anor bo‘lib, uning o‘sha yer anori ekanligidan ko‘ra samolyotda keltirilganligini ko‘proq pisanda qilar edi (A.Qahhordan).

6-variant

I. Azob...

II. Atrof, tevarak, gird, tegra, har tomon, har taraf, har yon, aylana, qurshov, o‘ng-u so‘l...

III. Sul-tonmurod majlisdagilarning gapidan, Alisherning hali saroyda ekanligini fahmladi... Oradan ko‘p vaqt o‘tmay kimdir shoirning kelganidan xabar berdi. Sul-tonmurod darhol o‘zini ayvonga oldi. Shu vaqt uydagilarning aksari, shu jumladan mavlono Fasihiddin ham chiqdi. Hammaning ko‘zi unda-munda daraxtlar o‘sgan katta hovlida edi. Zaryoqa to‘n kiygan, mag‘rur bir necha saroy odamlari orasida Sul-tonmurod shoirni xuddi ilgari ko‘rgandek darrov tanib oldi, ko‘zlari cheksiz quvonch bilan yonib ketdi. Shoirning boshida uchli ko‘k taqyaga silliq o‘ralgan ko‘rkamgina salla. Egnida odmi shohi to‘n, ustida yalang qo‘ng‘ir movut chakman... Navoiy o‘ttizdan oshmagan bo‘lsa ham, yoshi ulug‘roq ko‘rinadi. Qomati o‘rtadan baland, ingichka, lekin pishiq barmoqlari uzun va nafis; qora va qisqa soqoli, xushbichim miyiq-lari tekis va silliq; yonoqlari toza, kenggina yuzida doimiy tafakkurning asl ma‘nosi, ma‘naviy qudrat va engil, go‘zallashtiruvchi bir horg‘inlik jilvalanadi. Qabariqroq qovoqlari ostidagi qiyg‘os ko‘zlarida go‘yo tafakkur va xayol bilan birga qandaydir iroda kuchli ifodalanadi (Oybekdan).

7-variant

I. Azobli...

II. Atroflicha, har tomonlama, har taraflama, batafsil, mufassal, mukammal, to‘la, to‘liq, to‘la-to‘kis.

III. It quvgan tulkiday olazarak Omon menga ergashdi. Tugunni ko'tartirdim. Yaxshiqiz degan bo'zagar kampirning o'toviga qarab ketdik.

Kampirning o'tovi Zolariqning chap qirg'og'ida edi. Atrofi ozodagina qilib supurilgan. Tuproqdan kattagina supacha ko'tarilib, ustiga bir kir sholcha tashlab qo'yilgan. O'tovning yonboshida loy o'choqqa o'rtacha kattalikdagi bir qozon o'rnatilgan. O'choqdan nariroqda ikkita ayriga ip arqon tortib, unga chambaraklarda uch-to'rtta sopol tovoq osib qo'yilgan. Sut-qaymoq bo'lsa kerak. Ikkita qovoq idish osiqliq turibdi. Ularda qatiq bo'lsa kerak. Qozon tuvoqsiz, uning yonida bir o'qir, katta kuv turibdi. Bitta yechiq buzoq shataloq otib o'ynoqlab yuribdi. Chala qurigan bir tolga bog'lab qo'yilgan qari ola ko'ppak juda hafsalasizlik bilan ko'ksovlarning yo'taliga o'xshagan ovoz bilan hurib bizlarni kutib oldi. Itning ovozigina o'tov ichidan kampir - Yaxshiqiz chiqib keldi. Oltmishlardan oshgan bir xotin, oq oralagan sochlari taralmagan, boshida dakana, belida shol belbog'. Ayolning orqa sochiga besh-oltita bir so'mli, yarim so'mli so'lkavoylardan sakina osilgan (G'.G'ulomdan).

8-variant

I. Mazali...

II. Tarixdan ma'lumki, Bobur Mirzo hazratlarining asosiy g'alabalari aynan shu farmondan – mayqatag'ondan so'ng qo'lga kiritilgan. Yana tarixdan ma'lumki, Husayn Boyqaro boshqargan mamlakatni ayni shu ichkilik barbod qilgan. Ayni shu ichkilik (uni „chog'ir” deb ataganlar) umidli va suyukli nabira Mo'min Mirzoning boshini uzgan.

Hindistonda bir yilda sakkiz marta yangi yil bayramini nishonlashadi. Masalan, shunday bayramlardan biri – Gudi Padva. Tantana ishtirokchilari ushbu marosimda, qanchalar achchiq va taxir bo'lmasin, nim-nim deb ataluvchi daraxt barglarini iste'mol qiladilar. Qadimiy hind qo'lyozmalarida aytilishicha, bu daraxt yaproqlari odamni kulfat va faqirlikdan asrarkan, hayoti esa shodon kecharkan.

Avstraliya xalqi ham dunyoning boshqa xalqlari qatori 1-yanvarni yangi yil bayrami sifatida nishonlaydilar. Lekin bu vaqtda qit'ada shunaqa ham issiq bo'ladiki, Qorbobo va Qorqiz sovg'alarni cho'milish kiyimlarida topshirishga majbur bo'lishadi.

Indoneziyada yangi yil bayrami oktabr oyida nishonlanadi. Hamma odamlar yangi kiyimlarini kiyib, yasanib oladilar va yil davomida o'zlari tomonidan sodir etilgan xafagarchiliklar uchun bir-birlaridan uzr so'raydilar (“Huquq” gaz.).

9-variant

I. Vaqt...

II. Yoshlarni yuksak g'oyalar chin insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalab, voyaga yetkazish katta jasoratdir. Buning uddasidan chiqa olgan kishilarga sharaf tojini kiygizib har qancha tashakkur hadya etsak va ulardan bir umr minnatdor bo'lsak ham ozlik qilur.

Pir-u badavlat kishilar hayotning barcha tashvishlarini, mashaqqatlarini boshidan kechirgan turmush tarzining ajoyib sohiblaridir. Ularning umr bo'yi yig'gan qutlug' tajribasi – bamisoli bir xazina. Bundan barakali bahramand bo'lish yoshlarga hayotiy dasturulamadir.

Agar biz yoshi ulug' kishilardan so'rasalar navqiron nasllarga biror soha mutaxassis kasb-korligi bo'yicha bilimga ega bo'l, o'z ustingda tinmay ishla, izlan aql-u idrokingni takomillashtirib bor, odob-axloqda benazir bo'l, xalqning yaxshi udumlarini hurmat qil, to'y-tomoshalarga qatnash, ta'ziya marosimlaridan sira qolma, do'st-u birodar va umuman odamlarga g'amxo'r, hamdard bo'l, shunda qalbing hamisha charog'on bo'ladi, chehrangdan quvonch arimaydi, yaxshilik nashidasidan o'zing ham halovat qilasan deb pand-u nasihat bergan bo'lur edik. (Sh. Orifly).

10-variant

I. Gangimoq...

II. O'rtoq rafiqam! Ijzat berasiz, xushchaqchaq hayotimizni sharaf bilan davom ettirib, oilaviy burchimizni namunali bajarib kelayotganimizga bir yil to'lgan kunda sizni bevosita tabrik qilishga!

Xotin bu muqaddimani hazil gumon qilganligi uchun qiyqirib chapak chaldi. Notiq yana ham jiddiyroq qiyofada davom etdi:

Bundan 365 kun muqaddam siz bilan o'z hayotimizda qat'iy burilish yasab, zo'r sinovlar sharoitiga bevosita qadam qo'ydik. Ilgarigi vaqtda faqat erkak, endilikda esa ham erkak, ham xotin boshchilik qiladigan oila masalasi o'zingizga ma'lum bo'lganligi uchun bunga keng ravishda to'xtab o'tirishni lozim ko'rmayman.

Siz bilan biz bir yillik oilaviy faoliyatimiz natijasida qanday yutuqlarga erishdik? Avvalo, shuni ta'kidlab o'tish kerakki, biz u yoki bu masalada yuz beradigan prinsipial kelishmovchiliklarni chetdan kuch jalb qilmasdan o'z kuchimiz bilan, o'zaro keng muhokama qilish yo'li bilan bartaraf qiladigan bo'lib qoldik. Ikkinchidan, o'rtoq rafiqam, oilamizni tashkiliy xo'jalik jihatidan misli ko'rilmagan darajada mustahkamladik (Abdulla Qahhor).

TESTLAR

1-variant

1. “Chiqim” so‘zining sinonimik qatorini toping.

- a) xarj, imkon, sarf, xarajat.
- b) iloj, sarf, xarajat.
- c) chiqim, sarf, xarajat, xarj.
- d) sarf, amal, harajat, chiqim

2. Berilgan sinonimlaridan qaysi biri she’riy uslubda keng qo‘llanadi?

- a) shamol.
- b) yel.
- c) shabada.
- d) sabo.

3. *Shikoyat* so‘zining to‘g‘ri berilgan sinonimik qatorini toping?

- a) shikoyat, arz, dod, arz-dod.
- b) arz, dod, g‘avg‘a, shikoyat.
- c) dod, shikoyat, qarshilik.
- d) tong, arz, dod, shikoyat.

4. *Shubha, gumon, ishonsizlik, ishtiboh* sinonimlaridan qaysi biri eskirgan kitobiy so‘z?

- a) shubha.
- b) gumon.
- c) ishonsizlik.
- d) ishtiboh.

5. *Ega, xo‘jayin, xo‘ja, sohib* sinonimlaridan qaysi biri nisbatan kam ishlatiladi?

- a) xo‘jayin.
- b) ega.
- c) xo‘ja.
- d) sohib.

6. Har yoqda buloqlar oqmoqda sharaqlab, Har siynada shoqlik, toshmoqda tilaklar misrasidagi “*siynada*” so‘zining sinonimlarini toping?

- a) qalb, yurak, dil, a’lo, ko‘ngil.
- b) yurak, qalb, dil, ko‘ngil, ko‘krak.
- c) dil, ko‘ngil, kurak, ko‘krak, qalb.
- d) ko‘ngil, yurak, dil, kurak, tana.

7. “*Yana*” so‘zining oddiy so‘zlashuviga xos bo‘lgan sinonimi ishtirok etgan gapni toping?

- a) kichkina eshikcha yoniga yetganda tag‘in haligidek

- orqasiga qarab qo‘ydi.
 b) eshon bir ko‘zini qisib turib qayta so‘radi.
 c) qodir boshqa ichmaslik sharti bilan ikkinchi piyolaning yarmini ichishga rozi bo‘ldi.
 d) oydin xola jahl bilan bo‘lak indamadi.

8. O‘rgilay, o‘rgulsin, girgitton, aylanay, qoqindiq, sadaqa, sinonimlaridan bosh so‘zini toping?

- a) sadaqa.
 b) o‘rgilay, o‘rgilsin.
 c) aylanay.
 d) qoqindiq.

9. Eng gullagan yoshlik chog‘imda, sen ochilding ko‘ngil bog‘imda (H.Olimjon) misradagi “eng” so‘zining sinonimik qatorini toping.

- a) ayni, avji, rosa, juda.
 b) ayni, barvaqt, rosa, juda.
 c) rosa, avji, juda, muddao.
 d) erta, avji, rosa, juda.

10. Qaysi gapda “mo‘ysafid” so‘zini sinonimi bilan almashtirib bo‘lamaydi?

- a) chol hassaga tayanib, sekin-sekin qadam tashlar edi.
 b) keksalar bilan maslahatlashdim.
 c) nuroniy chollar davra to‘rida.
 d) uning oti ancha qari edi.

2-variant

1. Daraxt va qalam so‘zlarining lug‘aviy (leksik) hamda grammatik ma‘nolarini aniqlang.

1) daraxt, qalam so‘zlari predmet haqidagi umumiy tushunchani ifodalaydi. 2) daraxt, qalam so‘zlari ot so‘z turkumiga mansub. 3) daraxt – o‘simlikning bir turi, qalam – o‘quv quroli. 4) daraxt, qalam – bosh kelishikda, birlikda.

- A) lug‘aviy ma‘no -1,3; grammatik ma‘no - 2,4
 B) lug‘aviy ma‘no - 2,4; grammatik ma‘no -1,3
 C) lug‘aviy ma‘no -1,4; grammatik ma‘no -2,3
 D) lug‘aviy ma‘no -2,3; grammatik ma‘no - 3,4

2. Sel so‘zi qaysi gapda ko‘chma ma‘noda qo‘llanilmagan?

- A) Quyoshning seliga miriqib cho‘milgan yam-yashil dala barq uradi.
 B) Har qanday go‘sht tuzlanganda, seli chiqib ketadi.
 C) Elmurod shunday o‘ylar selida g‘arq bo‘lib, uyqusi qochdi.

D) *Barcha gaplarda sel so‘zi ko‘chma ma’noda qo‘llangan.*

3. Kitobni ochiq qoldirmoq, ochiq gapirmoq, ochiq bo‘g‘in birikmalaridagi ochiq so‘zi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

- A) bir so‘zning turli ma’nolari
- B) uchta mustaqil so‘zning shaklan mos kelishi
- C) birdan ortiq so‘zning o‘zaro grammatik shakllarda teng kelishi
- D) B va C

4. O‘zbek tili leksikasining ichki imkoniyatlar asosida boyish manbalarini belgilang.

- A) *o‘zbek tili so‘z yasash usullari asosida yangi so‘z yasash*
- B) *yaqin munosabatda bo‘lgan xalqlar tilidan bevosita so‘z olish*
- C) *xalq shevalaridan so‘z olish*
- D) *A va C*

5. O‘zbek tilining ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlarni toping.

- A) *osmon, oftob, bahor, barg, daraxt, shamol*
- B) *kitob, maktab, xalq, shoir, ma’no, oila*
- C) *stol, stul, ruchka, pero, pechka, parta*
- D) *limonzor, sportchi, tilshunos, ilmli, maktabdosh, shoirona*

6. Umumxalq ishlatadigan so‘zlar qatorini toping.

- A) *egat, kultivatsiya, chekanka, ko‘sak*
- B) *iskana, randa, poytesha, pona, parma, payraxa*
- C) *ko‘z, qo‘l, radio, gazeta, yaxshi, yomon, kel, tur*
- D) *yostiqlik, bolish, taka, ko‘chik, jastiq*

7. O‘zbek tili lug‘atida o‘z ichki imkoniyatlari asosida hosil bo‘lgan so‘zlar qatorini toping.

- A) *kitob, ma’no, ruchka, parta*
- B) *ijarachi, vazirlik, guldasta, raqobatbardosh*
- C) *kiyim, buyum, ketmon, o‘rik*
- D) *oftob, sahro, saraton, mavj*

8. Soyaga qarab to‘n bichma maqolidagi to‘n bichmoq iborasining ma’nosi qaysi qatorda to‘g‘ri izohlangan?

- A) *andaza olmoq*
- B) *rag‘batlantirmaslik*
- C) *xato ish qilmoq*
- D) *baho bermoq*

9. Kasb-hunar so‘zlari qaysi qatorda?

- A) *Tiniq ko‘kda oq bulut parchalari ko‘rindi.*
- B) *Yosh terak va tollarning barglari shamolda tebranmoqda.*

C) *Shonlar, har xil siniq qoliplar, charm rezgisi, shirach kosa, mahsi ichiga yopishtiriladigan eski lattalar va hokazo do'konxona yuzini tutgan.*

D) *Deraza tokchalarida tuvaklarda gullar bor.*

10. O'zaro sinonim bo'lgan iboralar qo'llangan gapni toping.

A) *Meni bilsang, Qo'ng'irotda elda turaman, Har ish bo'lsa, peshonamdan ko'raman.*

B) *Yaqinda peshonamdagi yolg'iz onajonim ham betob bo'lib qoldi.*

C) *Taqdirga tan berib, nima bo'lsa, peshonamdan ko'rarmen, deb xayol qildi.*

D) *Peshonamizga bitgani shu bo'lsa, qandoq qilaylik, oyi?*

4-AMALIY MASHG'ULOT IBORALAR TASNIFI

Maqsad: iboralarning mohiyati, semantik strukturasi, shakl va ma'no munosabatiga, qo'llanish va nutq uslublariga ko'ra tiplari haqidagi ma'lumotlarni izchil o'rganish.

Tanlanish asosi: Frazologik birliklarning nutqda faol qo'llanishi, stilistik va emotsional bo'yoqqa boyligi, o'zaro va so'z bilan sinonimik, antonimik munosabati, variantlilik, polisemantik va omonimik xususiyatlarga ega ekanligi ularning ma'no va funksional xususiyatlarini nazariy va amaliy jihatdan chuqur bilishni taqozo etadi. Bu esa nutq o'stirishda ham muhim ahamiyatga ega.

Frazologizm ikki yoqlama lisoniy birlik, shakl va mazmunning dialektik birligidan iborat. Frazologizmning shakliy tomonini so'z (leksema emas) tashkil qiladi. Ularning mazmuniy tomoni frazeologik ma'nodir. Frazologik ma'no o'ta murakkab tabiatli, leksemada bo'lgani kabi ayrimi denotativ tabiatli bo'lsa, boshqalari grammatik ma'noga ega, xolos. Masalan, mustaqil so'z turkumiga kiruvchi frazeologizm: (burgaga achchiq qilib, ko'rpaga o't qo'ymoq, tarvuzi qo'ltig'idan tushmoq; ko'ngli bo'sh; hash-pash deguncha) denotativ ma'noga ega bo'lsa, turgan gap, shunga qaramay kabi nomustaqil frazeologizmlar faqat grammatik vazifa bajaradi. Odatda, frazeologizmning ma'nosi bir leksema ma'nosiga teng deyiladi. Biroq hech qachon ular teng emas. Chunki frazeologizm va leksema ma'nosi teng bo'lsa edi, unda frazeologizm ortiqcha bo'lib qolar edi. Misol sifatida [yoqasini ushlamoq] frazeologizmi bilan [hayron bo'lmoq] leksemasining ma'nolarini qiyoslab ko'raylik. Mazkur frazeologizm

«kutilmagan, tushunib bo‘lmaydigan narsa yoki hodisadan o‘ta darajada ta’sirlanib, taajjublanmoq» bo‘lsa, [hayron bo‘lmoq] leksemasi «kutilmagan, tushunib bo‘lmaydigan narsa yoki hodisadan ta’sirlanmoq» sememasiga ega. Har ikkala ma’noda ham kishi ichki ruhiy holati (denotat) aks etgan. Biroq frazeologizm ma’nosida «o‘ta darajada» va «so‘zlashuv uslubiga xos», «bo‘yoqdor. semalariga egaligi bilan «hayron bo‘lmoq. leksemasidan farqlanadi. Demak, frazeologizmning ko‘pincha, ifoda semalarida obrazlilik, bo‘yoqdorlik bo‘rtib turadi. Umuman olganda, frazeologik ma’no torroq va muayyanroq, leksema ma’nosi esa unga nisbatan kengroq va mavhumroq bo‘ladi. Masalan, [hayron bo‘lmoq] leksemasi umumslubiy va bo‘yoqsiz. Shuning o‘ziyoq barcha uslubda qo‘llanish imkoniga egaligini va turli «bo‘yoqlar bilan ishlatish mumkinligini ko‘rsatadi. Ko‘rinadiki, frazeologizm va leksema bir narsa yoki hodisani atasa-da (atash semelari bir xil bo‘lsa-da), ifoda bo‘yoqlari bilan keskin farqlanib turadi (ya’ni ifoda semalari turlichadir). Frazeologizm birdan ortiq mustaqil so‘zdan tashkil topadi. Biroq uning ma’nosi tashkil etuvchi ma’nolarining oddiy yig‘indisi emas. Masalan, [qo‘yniga qo‘l solmoq] frazeologizmining ma’nosi [qo‘yin], [qo‘l], [solmoq] leksemalari ma’nolari sintezi yoki qo‘shiluvchi emas. Frazeologizmning ma’nosi tashkil etuvchi so‘z to‘la yoki qisman ko‘chma ma’noda ishlatilishi natijasida hosil bo‘ladi. Masalan, birovning fikrini bilishga urinish harakati uning qo‘ynini titkilab, nimasi borligini bilishga intilish harakatiga o‘xshaydi. Natijada, qo‘yniga qo‘l solmoq erkin birikmasi o‘zidan anglashilgan mazmunga o‘xshash bo‘lgan boshqa bir mazmuni ifodalashga ixtisoslashadi va qurilma frazeologizmga aylanadi. Yoki kishi qo‘ltiqlab ketayotgan tarvuzini tushurib yuborsa, qanday ahvolga tushadi? Biror narsadan ruhiy tushkunlikka tushgan odamning holati shunga monand va erkin birikma frazeologizm mohiyatiga ega bo‘lgan. Bu esa frazeologik ma’noning mantiqiyligidan dalolat beradi. Frazeologizm tarkibidagi ayrim so‘zning ko‘chma ma’noda, boshqalarining o‘z ma’nosida qo‘llanilishi natijasida ham vujudga kelishi mumkin. Masalan, [aqlini yemoq], [ko‘zini bo‘yamoq], [ko‘zi ko‘ziga tushdi], [og‘zi qulog‘ida] frazeologizmlarida (aqf), (ko‘z), (og‘iz) so‘zlari o‘z ma’nosida, (yemoq), (bo‘yamoq), (tushmoq), (qulog‘ida) so‘zlari ko‘chma ma’noda. Ba’zan harakat-holatning natijasini ifodalovchi qurilma frazeologizmga aylanadi. Masalan, kishi afsuslanishi natijasida barmog‘ini tishlab qolishi mumkin. Shuning uchun barmog‘ini tishlab

qolmoq qurilmasi frazeologik qiymat kasb etgan. Tishni-tishga qo‘ymoq, tepa sochi tikka bo‘lmoq, labiga uchuq toshmoq iboralari ham shular jumlasidandir. Ayrim frazeologizm turli diniy aqida, tushuncha, rivoyat asosida ham shakllanadi: 1. Uning eriga mening ko‘zim tekkan emish. 2. Hammani qo‘yib, sizning soldat o‘g‘lingizga tegaman deb ko‘zim uchib turibdimi? (M.Muham.)⁷.

SAVOLLAR

1. Ibora nima va unda qanday ma‘no ifodalanadi? Leksik va frazeologik ma‘noni farqlang.

2. Iboralarning turlarini tushuntiring.

3. Iboralarning sinonimiya va antonimiyaga munosabatini tushuntiring.

4. Leksik va grammatik variantli frazeologizmlar qanday usullar bilan yuzaga keladi? Variantlilikning qanday ahamiyati bor?

TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan gaplardagi iboralarning qaysi so‘z turkumiga mansubligini ko‘rsating.

2. Iboraning ma‘nosini aniqlang. Shu frazeologizm ishtirokida gap tuzing.

3. Iboralarni ma‘nosiga ko‘ra ikki guruhga ajrating:

a) ibora manosi so‘zga teng;

b) ibora ma‘nosi so‘z birikmasiga teng.

4. Polisemantik iboralarning ma‘no miqdori, ma‘nolarning o‘zaro munosabatini aniqlang.

5. Iboralarning sinonim va antonimlarini ko‘rsating.

6. Iboralarning variantlarini toping, har bir variantga izoh bering.

1-variant

I. Arab alifbosiga asoslangan qadimiy o‘zbek yozuvini o‘zbek umumiy maktablarida, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarining darslar o‘zbek tilida olib boriladigan bo‘limlarida o‘quv plani fanlaridan biri sifatida o‘qitish ta‘minlanadi. O‘zbekiston Respublikasida bu yozuvni o‘rganishni istaydiganlarga har tomonlama imkoniyat yaratiladi. Buning uchun tegishli ilmiy-pedagogik kadrlar va darslik hamda metodik o‘quv qo‘llanmalari tayyorlanadi, qadimiy o‘zbek yozuvida adabiy-tarixiy yodgorliklar, kitoblar, gazeta va jurnallar nashr etiladi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 16-moddasi).

⁷ Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova Z., Abuzalova M. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Darslik. T.: 2009. – B. 210. 131-132-betlar.

II. 1. Saida uning kecha to‘qimi teskari bo‘lib yurgani va hozir qildan qiyiq topayotganining sababini darrov fahmladi (A.Q.). 2. Xalq bilan bamaslahat ish qilamiz, xalq qilaman desa, tog‘ni talqon qiladi (Sh.R.). 3. Endi bildim. Ko‘zim ochildi (O.) 4. Odamlar qo‘ltig‘idan tarvuzlari tushib, qishloqqa qaytishdi (M.I.) 5. Qoratoy o‘zini tuta olmadi, boyni so‘kib, og‘zidan bodi kirib, shodi chiqa boshladi (O.) 6. Bir iloj top, six ham kuymasin, kabob ham (O.) 7. Bular qachongacha nonimizni tuya qilib berishadi (Ya.) 8. Qani, o‘rtoq Qosimov, marhamat, boshimiz ko‘kka etdi. (Ya.) 9. Otaxonlarim! Sizlar hozir yuraginga chiroq yoqdingiz! (Ya.) Qo‘li egri odam bir yozda mehnatimni «suv» qiladi (P.Q.) 11. Uni qo‘lga oluvchi kishilarimiz nihoyatda pixini yorgan bo‘lmog‘i shart (Y.Sh.) 12. Saidaning yuragiga qil sig‘mas edi. (A.Q.).

III. Istarasi issiq, ichi qora, yo‘l bo‘lsin, katta gapirmoq, ko‘zdan kechirmoq, ko‘ngil bermoq, labi labiga tegmay, labini tishlamoq, gapni bir joyga qo‘ymoq, mijja qoqmaslik, boshida yong‘oq chaqmoq, ko‘zda tutmoq, ko‘ngli ochiq, terisiga sig‘may ketmoq, tirnoq orasidan kir izlamoq.

2-variant

I. O‘zbekiston Respublikasida yashovchi grajdanlar millatidan qat’i nazar, o‘z ismini (bir yoki bir necha) ota ismi va familiyasini (bir yoki bir necha) tarixiy-milliy an‘analarga muvofiq shaklda yozdirish huquqiga egadirlar. Ismlar, ota ismi va familiyalarining yagona to‘g‘ri shakli maxsus ma’lumotnomalarda qayd etiladi. O‘zbekcha, ismlar, ota ismi va familiyalar boshqa tillarda berilganda, ayni chog‘da, dunyoga mashhur kishilarning ota ismi va familiyasi o‘zbek tilida berilganda ularning asl yozilish xususiyati saqlanib qoladi.

Ismlar, ota ismi va familiyalarni yozishda o‘zbek tilining ifoda va talaffuz qonuniyatlariga rioya etiladi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 25-moddasi).

II. 1. Sirkasi suv ko‘tarmas dadasining bunchalik «olijanoblik» qilishi juda g‘ayritabiiy. Azizaning aqliga sig‘mas edi (Shuhrat) 2. Yo‘qlab kelibsan, boshim osmonga yetdi. (As.M.) 3. O‘qituvchi bog‘dan kelsa, u tog‘dan keladi (H.N.) 4. Bo‘yga etgan qiz - uchirma bo‘lgan qush (Maqol) 5. Men o‘z aravamni tortsam ham katta gap (S.Ahm.) 6. Pilla xususida til qisiqlik joyim yo‘q (S.Ahm.) 7. O‘g‘lidan ko‘ngli to‘q bo‘lgach, yana nimanidir qidirmoqqa, tevaragiga alanglab qaramoqqa boshladi (M. I.) 8. Ikki harib bir yoqadan bosh chiqargan edik (O.) 9. Boyning o‘g‘illari bir tan bo‘lib, menga kaftday yer, bir

tiyin pul bermaslikni ochiqcha aytishdi (O.) 10. Boshingga shunaqa ish tushgan ekan, bir og‘iz aytsang bo‘lmasmidi?! (O.Y.) 11. Hazil-huzul, bir chimdim suhbatdan so‘ng Mirhaydar va O‘ktam paxta dalasiga yo‘l oldilar (O.).

III. Xamir uchidan patir, xamirdan qil sug‘urganday, me‘dasiga tegmoq, yaxshi ko‘rmoq, ipidan ignasigacha, oq ko‘ngil, og‘zi qulog‘ida, holdan toymoq, yuragi toza, sabr kosasi to‘lmoq, tepa sochi tikka bo‘lmoq, og‘ziga tolqon solmoq, podadan oldin chang chiqarmoq, bag‘ri tosh, yumshoq ko‘ngil, obro‘yini oshirmoq.

3-variant

I. 1. ...bemaza hazildan bir shingil ashula yaxshi (R.F.) 2. Gazeta boshdan-oyoq intizomni yaxshilashga... qaratilgan edi (P.Q.) 3. U kishi ipidan ignasigacha hammasini gapirib beradilar (O.Y.) 4. Hamma narsani miridan sirigacha qoldirmay gaplashishdi (H.N.) 5. Shodmon otaning og‘zi qulog‘ida: uch kam yetmishga kirganda nevara ko‘rdi (H.N.) 6. Elchibek bu xabardan terisiga sig‘may ketdi (As.M.) 7. Mabodo xat kelib qolsa, boshimiz ko‘kda (O.) 8. Murodovani ko‘rganda og‘zining tanobi qochadigan Zunnunov bugun haqiqatan ham xomush ko‘rindi (I.R.) 9. Kishilikning dushmanlarini yer bilan yakson qilib, sizning huzuringizga sog‘-salomat etib borishga ahd qilganman (I.R.) 10. ...keyin dushman butun qishloqning kulini ko‘kka sovuradi deb, bu fikrdan voz kehdilar (O.) 11. Mulla Sulaymon halol odam! G‘ayratli brigadir. Nohaq yerga uraverma, Bekbo‘ta (Sh.R.) 12. Bunday g‘ayratli qizlarni osmonga ko‘tarsang, arziydi...(O.).

II. Obro‘yini bir pul qilmoq, ko‘kka ko‘tarmoq, yuragi keng, ko‘ngli joyiga tushmoq, ruhini ko‘tarmoq, so‘zidan qaytmoq, yomon ko‘rmoq, tili qisiq, avzoyi bejo, amri mahol, bajo keltirmoq, baloga qolmoq, bosh og‘rig‘i, gardaniga olmoq, bag‘ri dilini ochmoq, dili siyoh bo‘lmoq, dili g‘ash bo‘lmoq, yodga olmoq,

4-variant

I. 1. Har biri qanday kulfat bilan dunyoga kelgan bo‘lsa, shunday kulfat bilan dunyodan ketishga mahkum edi (P.T.) 2. Hali ichi qora dushman chayondek bo‘lib yotibdi (As.M.) 3. ...qizga o‘zbek qishlog‘ining sodda hayoti, oq ko‘ngil odamlari juda yoqdi (S.Ahm.) 4. Chollar, kampirlar ahvolini surishtirdi, iliq so‘zi, moddiy yordami bilan ularning ko‘nglini ko‘tardi (O.) 5. Qo‘l baland kelganda suyunib, xotirjamlikka berilmaslik, past kelganda esa ko‘ngilni cho‘ktirmaslik kerak (M.I.) 6. ...xayoliga allaqanday shubhalar kelib, ko‘ngli g‘ashlandi... (H.N.) 7. Saodatning ko‘ngli yorishib ketganligi

chehrasidan ko‘rinib turar edi (S.Z.) 8. Ammo o‘z so‘zimdand, yigitlik so‘zimdand qaytish butun hayotimning mazmunidan mahrum bo‘lish bilan bab-barobar (R.F.) 9. Lekin o‘z so‘zida turmaganing uchun xafaman. (O.) 10. Rusning fe‘li keng... Angladingmi, ya‘ni xasis emas (O.) 11. O‘zlariyam o‘lguncha ko‘zi tor, ziqna (A.Q.) 12. Madamin bo‘yniga qo‘yilgan aybnomadan tamom hovuridan tushdi (P. T.)

II. Ko‘zga tashlanmoq, nigoh tashlamoq, panja orasidan qaramoq, yurak-bag‘ri xun bo‘lmoq, razm solmoq, ro‘yobga chiqmoq, kayfi buzuq, istarasi sovuq, parvoyi falak, sarkalavasini yo‘qotmoq, alifni kaltak demoq, avzoyi bejo, daqqiyunusdan qolgan, eng silkimoq, lom-mim demaslik.

5-variant

I. 1. Borishini bo‘yniga qo‘yaman... (S.Abdulla.) 2. Menga qaysi transheyalarga kirganini va qaysi nuqtalar qo‘lga olinganini aytsin. (I. R.) 3. Rais Umrzoq otaga o‘xshash obro‘li, tajribakor paxtakorlarni qo‘lga olish niyatida ozmuncha yugurdimi! (Sh.R.) 4. ...keksalarning bel bog‘lab dalaga chiqishi – boshqalarga o‘rnak (I.R.) 5. Bilib qo‘ying. Ish og‘ir. Belni mahkam bog‘lamasangiz, qiyin bo‘ladi (O.Y.) 6. Stol yoniga kelguncha uning boshi aylanib ketdi (S.Z.) 7. Ilg‘orlikdan boshing aylanib, ishni bo‘shashtirib yubording... (O) 8. ...kamtarinliging o‘zingga bino qo‘yishga aylanib ketdi (Sh.R.) 9. Uning mehnatsiz va ma‘nosiz turmushi o‘ziga bino qo‘yishidan, zeb berishidan, noz-karashmalaridan yaqqol ko‘rinib turadi (Sh.R.) 9. U o‘z kasbiga nihoyatda bino qo‘ygan (S. Ahm.) 10. Payt qo‘ldan boy berildi (S.Ahm.) 11. ...oxiri uning ham ko‘ngli buzildi. Ammo sir boy bermay, meni yupatishga tirishdi (I.R.) 12. ...tilmoch qimorga o‘zini urdi... hovli-joyini boy berib, qaynatasining uyiga ko‘chib keldi (S.Ahm.).

II. Ot bilan tuyacha (farqlamoq), terisiga somon tiqmoq, quling o‘rgilsin, suyangan tog‘i, oyog‘ini tirab olmoq; bir pul; og‘zi katta, to‘g‘ri kelmoq, ko‘z ilg‘amas, ko‘ngli qattiq, jonidan o‘tib ketmoq, o‘zini qayerga qo‘yishni bilmaslik, ko‘zi ochiq.

6-variant

I. 1. U darmonsizligidan ...gandiraklab ketdi. Ko‘ngli ozdi... Chalqanchasiga yiqildi (S.Ahm.) 2. Hasan ovchining ochlikdan ko‘ngli ozib ketdi (Sh. Toshmatov) 3. Sho‘rlik bir yerda xudoyi oshi yegan ekan, yoqmaq. Ko‘ngli ozib, mazasi qochaveribdi (P.T.) 4. Betiga suv purkab, o‘ziga keltirdilar (G‘.G‘.) 5. Faqat sog‘lig‘ingiz meni tashvishga soladi, xolos. Hali uncha o‘zingizga kelganingiz yo‘q (M.I.)

6. U qattiq xafa bo'ldi. O'zini qayga qo'yarini bilmadi (J. Abdullaxonov) 7. Qo'li ishga o'rgangan odamning bekor qolishi katta fojia (S.Ahm.) 8. Bolalarning shodligiga chek yo'q. Ular o'zlarini qaerga qo'yishni bilmay yugurishadi (P.T.) 9. Elchibek uning ...tiyran ko'zlarining yiltirashidan jiddiy gapga bel bog'laganini angladi (As.M.). 10. Ammo siz menga yordamlashing, qayerda bo'lmasin, qizni topishga bel bog'laylik (O.) 11. Qarilik chog'ida... g'ayratga kirib, oxirigacha dushmandan o'ch olishga bel bog'lagan u cholning ko'nglini sindirish sira tuzuk emas (S.A.) 12. Turobjonning tepa sochi tikka bo'ldi. - Ajab qildim, - dedi Turobjon titrab, jigarlarining ezilib ketsin! Bu so'z unga qanday ta'sir qilganini faqat boshqorog'i xotininga biladi. Turojbon bu gapni aytdi-yu, xotining ahvolini ko'rib achchiqidan tushdi.

II. Gapini ikki qilmaslik, so'zidan qaytmaslik, bosh ko'tarmoq, ichi qora, do'ppi (si) yarimta, qo'lini ko'tarmoq, barmog'ini burniga suqib qolmoq, burni suv ko'tarmaydi, tili kuymoq, tishini tishiga qo'ymoq, tilini tiymoq, barmoqini tishlab qolmoq, oyog'i kuygan tovuqdek.

7-variant

I. 1. - Kishining yuragini qon qilib yuborasan!- dedi anchadan keyin,- nainki men asal olsam! Asal otliqqa yo'q, hali biz piyoda-ku! 2. Oradan jinday gap qochdi. 3. Niso buvi, pichoq borib suyagiga tekkandan keyin, qizlarini internatga berishni ham o'yladi. 4. Mehri kasalxonadan chiqqandan keyin Niso buvi ikkala qizi bilan noma'lum tomonga bosh olib ketdi. 5. - O, Maston,- dedi Turg'unoy, erim miyamda danak chaqsa ham uyda o'tirganim bir davlat edi... 6. O'zining aytishiga ko'ra «nafis adabiyot muallimi» o'rtoq Boqijon Baqoyev og'ilga kirib ta'bi xira bo'ldi. 7. Ahmadjon, ta'bi tirriq bo'lib, boshqa hech kimdan gap so'ramadi. 8. Ahmadjon tovushidan bildiki, o'sha yigit ekan. Bu safar g'ashi keldi: «Nima bu, hadeb tutun qaytaradi, arpasini birov xom o'ribdimi?» 9. Ahmadjon razm solib qarasa, jangchi qo'lga jangovar qurol olishdan burun o'tda yonmaydigan, suvda botmaydigan, yer tagida ilon qimirlasa biladigan, yulduzni beshoti uradigan bo'lishi kerak ekan. 10. - Bu xamirning uchidan patirdir-a. Ahmadjon aka, hali sizga katta mukofotlar chiqar? 11. O'n besh kunlik sinovdan keyin traktorchi nomini oldim. Tengqurlarim ichida yuzim yorug' bo'ldi. 12. Bizning qishloqda G'afforjon degan, qo'y og'zidan cho'p olmagan, buning ustiga hech kimi yo'q bir yigit bor edi.

II. Jon kirdi, bir og'izdan, tob(i) yo'q, tobi qochmoq, ko'ziga ko'rsatmoq, tilini tishlamoq, qulog'ini tishlamoq, gapidan qaytmoq, bir gapdan qolmoq, o'tqazgani joy topmaslik, xayolidan o'tkazmoq, ko'nglidan o'tkazmoq, ko'zi o'ynamoq, yer bilan yakson bo'lmoq, boshi butun bo'lmoq, ko'z yurgizmoq.

8-variant

I. Mo'ydin og'ir ahvolda qoldi. O'z hayotini arang kechirayotgan qishloq aholisining Mo'ydin yigitlarini boqishga qurbi yetmasligi kun sayin sezilib turardi. Lekin Mo'ydin ana shunday ayanchli kunlarni kechirayotganligiga qaramay, taslim bo'lishni istamas, G'azot afandi va Mirhojiboyga o'xshagan korchalonlarning allaqanday va'dalariga umid bog'lab, tog' orasida pisib yotardi. Shu sababli u armiya qo'mondonligining yaxshilik bilan taslim bo'lish va qolgan yigitlar hayotini saqlab qolish haqidagi so'nggi taklifiga shunday javob berdi:

“Meni osonlikcha taslim bo'ladi, deb o'ylama. Har bitta yigitim o'ntadan askaringni ag'darmaguncha hech; mahal taslim bo'lmaydi. Agar yarashishga rozi bo'lsanglar, Novqot bilan Oloy atrofini mening ixtiyoringa berasizlar, bu yerlarda men hukmronlik qilaman”.

Mo'ydinning bu taklifi uning faqat hukmdor bo'lish uchun kurashayotganini yana bir karra isbot qilar edi.. Ammo ortiqcha qon to'kilishini istamagan armiya qo'mondonligi qonxo'r Mo'ydinni qopqonga tushirish uchun uning shartlariga til uchida rozi bo'lishga majbur edi.

O'z taklifining qabul bo'lganini eshitgan Mo'ydin ikki yuz yigiti bilan yarashgani keldi. Yarashish ziyofati tashkil qilindi. O'yin-kulgi, ichkilik avjiga chiqdi. Mo'ydin o'z yigitlari bilan mast bo'lgandan keyin qo'lga olindi.

II. Ko'ngl(i) o'rniga tushdi; o'rniga keltirmoq; o'rniga qo'ymoq, ikki gapning o'rtasida, ikki o'rtada, o'rtaga tushmoq, o'rtaga olmoq, o'rtaga otmoq, o'rtaga solmoq, o'rtaga tashlamoq, ko'ngil o'sishi, burgaga achchiq qilib ko'rpaga o't qo'ymoq, ko'z(i)ga o'tday ko'rinmoq, o'takasi yorilmoq, ikkiga bo'linmoq, o'tirgani joy topolmaslik, badanidan o'tib ketmoq, boshidan o'tkazmoq.

9-variant

I. - Direktor tushmagur, qiziq ekanmi: pashshadan fil yasadi-ya!

Uchiriqni anglab ori qo'zidi. Lekin har qancha buralib-to'lg'anmasin, deysinmasin, bari-bir, shiddat bilan miyasiga yopirilgani – aka, odamni juda yerga urdingiz-ku, unchalikka bormang-e, kerak bo'lsa, yer ostiga tushishdan ham toymayman, degan qabildagi muddaosini tiliga ko'chira olmadi.

- E, qurib ketsin, buyam bir illat-da!

- Qandini ursin Naim Badriyevich, gapni ayni oʻrnida oʻrnatdi. Chamasi soʻz boldi, ayniqsa, avvalgi joyiga tushdi. Chindan ham Latifboyimiz basovlat, iligi toʻq yigitlardan, uni tengqurlari ichida osongina ajrim qilasiz: boʻyi uzun, tik, rang-roʻyi toza, qarashlaridagi shahd burgutni choʻchitadi. Tovba, shunday yigitni lab-dahandan qisgan-a!

- Mana hozir ham ichidagisini shartta aytolmadi. Nima, Naim Badriyevich siltab tashlarmidi? Yoʻq, aksincha, agar u dangalik qilganda, ehtimol Naim Badriyevich ham oʻzini taroziga solmas, haligidaqa shubhalarga izn bermas edi.

- Endi buyogʻi jiddiylashdi: Latifboy qovun tushirdi. Doim shunaqa, yoʻq yerdan gʻalva orttiradi, mabodo qattiq-qattiq piching eshitsa biror zugʻum oʻtsa, huda-behuda ichiga solaveradi. Shu odatdagi qishloq yigitlari ham avvaldan bilishadi, baʼzan uni kurakda turmaydigan hazil-huzilga koʻmib tashlaydi (Asad Dilmuroddan).

II. Boshidan oʻtmoq, dilidan oʻtkazmoq, dilidan oʻtmoq, dunyodan toq oʻtmoq, dunyodan oʻtmoq, jon-jonidan oʻtib ketmoq, ish bitguncha, eshak loydan oʻtguncha, kunini oʻtkazmoq, koʻzdan oʻtkazmoq, miyasidan oʻtmoq, nazardan oʻtkazmoq, olamdan oʻtmoq; oldidan oʻtmoq; oradan qil ham oʻtmaydi, suyagidan oʻtib ketmoq, fikrdan oʻtkazmoq; et-etidan oʻtib ketmoq.

10-variant

I. Rostdan ham Usmonjon qish kuni tarnovda paydo boʻladigan sumalakdek qiyofasini tez-tez oʻzgartirib turadigan, chap qoʻlining kafti bilan kindigini bosib turib yoʻtaladigan gʻalati odam edi. Bozorboy ichida, qani ikki tulki bir ishlasin, deb qoʻydi.

Avvaliga Begijon Usmonxonning u yengidan kirib, bu yengidan chiqib ishlab yurdi. Sal kunda ikkalasi til topishib qolishdi. Begijon shunaqa ishni orzu qilib yurgan ekan, omborni havas bilan tartibga soldi. Bor mollarini navlarga, qaysi firmadan chiqqaniga qarab joylashtirdi. Biron narsa kerak boʻlganda qidirib yurmay, qoʻl uzatganda darrov topiladigan qildi. Usmonxon uning bu ishidan xursand boʻldi.

Buni qarangi, Usmonxonning dardi ichida ekan, oʻng biqinida noʻxotdek bir yaracha paydo boʻldi-yu, kengayib danakdek boʻldi. Shifoxonaga yotdi. Rak ekan, operatsiyadan keyin bandalikni bajo keltirib, bu dunyodan koʻz yumib ketdi. Uning oʻlimi ham Begijonga qoʻl keldi.

Bu Begijon tushmagur balo chiqdi. Usmonxon o'n besh yil ishlab qilmagan ishlarni o'ynab-kulib qiladigan bo'ldi (S. Ahm.).

II. Yuzidan o'ta olmaslik, o'tib ketmoq, gapini o'tkazmoq, gapi o'tdi; so'z o'tmas, tishi o'tmaydi, ko'zi o'tmaydi, sanamay "o'ttiz" demoq; o'takasi o'ttiz ikkiga bo'linmoq, o'tqazgani joy topolmaslik, o't qo'ymoq qorasi o'chmoq, quti o'chdi, boshi qayoqqa og'sa, o'sha yoqqa ketmoq, tishini qayramoq, tirnog'iga olmaslik, oyog'ini quritmoq, muzlatib qo'ymoq, joyiga qo'ymoq.

TESTLAR

1-variant

1. Frazeologiya nima xususida bahs etadi?

- A) barqaror so'zlar bog'lanmasi xususida bahs etadi.
- B) erkin so'zlar bog'lanmasi xususida bahs etadi.
- C) qo'shma so'zlar bog'lanmasi xususida bahs etadi.
- D) so'zning lug'aviy ma'nosi xususida bahs etadi.

2. Barqaror so'zlar bog'lanmasi mavjud gapni toping?

- A) yuqori hosilni Anorxon rahbarlik qilayotgan xo'jalik berdi.
- B) qizim boshimni osmonga yetkazdi.
- C) qizim past ovoz bilan gap boshladi.
- D) yozda shaharning havosi juda issiq bo'ladi.

3. Uslubning biror turiga xoslangan frazeologizimli gapni toping.

- a) U telpak tiktirish uchun bitta qo'ling o'rgilsin qorako'l teri
- b) sotib oldi.
- b) kalavaning uchini topolmay, boshi qotdi.
- c) Manzuraxon ko'rimsiz bo'lsa ham, tili bir qarich.
- d) biror ish uchun odamlarni yo'ldan urish insofdan emas.

4. Frazeologik birikmali gapni toping.

- a) yigitning botirini maydonda sina.
- b) temirni qizig'ida ur.
- c) bir yelkadan bosh chiqardi.
- d) oyni etak bilan yopib bo'lmas.

5. Ma'nodosh frazeologik birikmalar qatorini toping.

- a) ko'ngli joyiga tushdi – yuragiga g'ulg'ula tushdi.
- b) sabr kosasi to'ldi - toqati toq bo'ldi.
- c) kayfi choq bo'ldi – ta'bi tirriq bo'ldi.
- d) kalavaning uchini topdi – kalavaning uchini yo'qotdi.

6. Asl o'zbekcha frazeologik iboralar qatorini toping.

- a) boshi berk ko‘chaga kirdi.
- b) dili siyoh bo‘ldi, dardi bedavo.
- c) bosh qotirdi, ko‘z-quloq bo‘ldi, kapalagi uchdi.
- d) hech bo‘lmagandan ko‘ra kech bo‘lgani yaxshiroq.

7. Tasviriy ifodalar qaysi javobda to‘liq berilgan?

- a) fan homiysi, temir eshik, kumush tola.
- b) qora oltin, lochin ko‘z, shirin xotira.
- c) yashil borliq, mohir usta, sopol idish.
- d) ilm shaydosi, po‘lat qush, xom mahsulot.

8. Qaysi qatordagi iboralar belgi bildiradi?

- A) pixini yorgan, ko‘zi tushdi, dili yorishmadi
- B) quling o‘rgilsin, yurak-bag‘ri xun, parvoyi falak
- C) juftakni rostlamoq, mushtday boshidan, ko‘zni oladi
- D) odam ayirmoq, tirik tovon, bo‘yni yo‘g‘on.

9. Ibora qo‘llanmagan gapni toping.

- A) Tilga ixtiyorsiz - elga e‘tiborsiz.
- B) Ota kasbida gap ko‘p ekan, birim ikki bo‘lib boryapti.
- C) Nima, sening ko‘zing qiymayaptimi?
- D) Siz aytganday arqon uzun tashlansa, ular qo‘rg‘onlarini shunday mustahkamlab oladilarki, keyin o‘nta atom bomba tashlab ham tinchita olmaysiz.

10. Sinonim iboralarni aniqlang.

- A) *yog‘ tushsa yalagudek, toza, orasta*
- B) *do‘ppisini osmonga otmoq, og‘zi qulog‘ida, og‘zining tanobi qochgan*
- C) *suvga tushgan bo‘lka nondek, qo‘y og‘zidan cho‘p olmagan, yerga ursa, ko‘kka sakraydi*
- D) *yulduzni benarvon urmoq, tegirmonga tushsa butun chiqmoq, uddaburon.*

2-variant

1. Badiiy uslubga xos so‘zlar qatorini toping.

- a) ekvator, meridian, sarlavha.
- b) shartnoma, talabnoma, tashkilot.
- c) majlis, mudir, yig‘in, tenglamoq.
- d) mahbub, mamnun, falak.

2. Leksik-grammatik sinonimiya nima?

- a) grammatik birliklarning o‘zaro sinonim bo‘lishi.
- b) iboralarning o‘zaro sinonim bo‘lishi.
- c) so‘z bilan iboraning o‘zaro sinonim bo‘lishi.

d) ham soʻz, ham grammatik birliklarning oʻzaro sinonim boʻlishi.

3. Frazeologiya nima xususida bahs etadi?

- a) barqaror soʻzlar bogʻlanmasi xususida bahs etadi.
- b) erkin soʻzlar bogʻlanmasi xususida bahs etadi.
- c) qoʻshma soʻzlar bogʻlanmasi xususida bahs etadi.
- d) soʻzning lugʻaviy maʼnosi xususida bahs etadi.

4. Barqaror soʻzlar bogʻlanmasi mavjud gapni toping?

- a) yuqori hosilni Anorxon rahbarlik qilayotgan xoʻjalik berdi.
- b) qizim boshimni osmonga yetkazdi.
- c) qizim past ovoz bilan gap boshladi.
- d) yozda shaharning havosi juda issiq boʻladi.

5. Frazeologik iboralar necha turga boʻlinadi?

- a) 5 turga.
- b) 3 turga.
- c) 2 turga.
- d) 4 turga.

6. Frazeologik birikmali gapni toping.

- a) yigitning botirini maydonda sina.
- b) temirni qizigʻida ur.
- c) bir yelkadan bosh chiqardi.
- d) oyni etak bilan yopib boʻlmas.

7. Maʼnodosh frazeologik birikmalar qatorini toping.

- a) koʻngli joyiga tushdi – yuragiga gʻulgʻula tushdi.
- b) sabr kosasi toʻldi - toqati toq boʻldi.
- c) kayfi choq boʻldi – taʼbi tirriq boʻldi.
- d) kalavaning uchini topdi – kalavaning uchini yoʻqotdi.

8. Asl oʻzbekcha frazeologik iboralar qatorini toping.

- a) boshi berk koʻchaga kirdi.
- b) dili siyoh boʻldi, dardi bedavo.
- c) bosh qotirdi, koʻz-quloq boʻldi, kapalagi uchdi.
- d) hech boʻlmagandan koʻra kech boʻlgani yaxshiroq.

9. Tasviriy ifodalar qaysi javobda toʻliq berilgan?

- a) fan homiysi, temir eshik, kumush tola.
- b) qora oltin, lochin koʻz, shirin xotira.
- c) yashil borliq, mohir usta, sopol idish.
- d) ilm shaydosi, poʻlat qush, xom mahsulot.

10. Uslubning biror turiga xoslangan frazeologizmli gapni toping.

- c) u telpak tiktirish uchun bitta qoʻling oʻrgilsin qorakoʻl teri

- d) sotib oldi.
- b) kalavanning uchini topolmay, boshi qotdi.
- c) Manzuraxon ko‘rimsiz bo‘lsa ham, tili bir qarich.
- d) biror ish uchun odamlarni yo‘ldan urish insofdan emas.

5-AMALIY MASHG‘ULOT O‘ZBEK LUG‘ATCHILIGI

Maqsad: lug‘atlar, ularning tuzilish prinsipi, so‘zlarning izohlanish usullari bilan tanishish, turli tip lug‘atlardan foydalanish malakasini oshirish.

Tanlanish asosi. Lug‘atlar turli so‘z va birikmalarning qo‘llanish shartlari, imkoniyatlari, ma‘no xususiyatlari, tarixi kabilar xususida ma‘lumot beruvchi qimmatli vositadir. Shuning uchun lug‘atlar haqidagi bilimlarni egallashga ehtiyoj katta.

Tilshunoslikning lug‘at tuzish masalalarini ilmiy tadqiq qiluvchi va lug‘at tuzish bilan shug‘ullanuvchi sohasi leksikografiya (gr.lexikos-so‘z, so‘zga oid va grapho-yozaman) yoki lug‘atchilik deyiladi. Maqsad va vazifasiga ko‘ra leksikografiya ikkiga bo‘linadi: a) ilmiy leksikografiya lug‘atchilikning nazariy masalasi bilan shug‘ullanadi; b) amaliy leksikografiya bevosita lug‘at tuzish ishi bilan mashg‘ul bo‘ladi.

Leksikografiya muhim ijtimoiy vazifani bajaradi. Bu vazifalarga ona tilini va boshqa tillarni o‘rgatish; ona tilini tasvirlash va me‘yorlashtirish; tillararo munosabatlarni ta‘minlash; til leksikasini ilmiy tekshirish va talqin qilish kabilar kiradi.

Lug‘at maqsadi va mo‘ljaliga ko‘ra umumiy va maxsus lug‘at ajratiladi.

Umumiy lug‘at keng o‘quvchilar ommasiga, maxsus lug‘at esa tor doiradagi kishilar-alohida soha mutaxassisiga mo‘ljallangan bo‘ladi. Har ikkala tur lug‘at ham o‘z o‘rnida ensiklopedik va filologik lug‘at kabi turlarga ega.

Demak, lug‘atni umumiy ensiklopedik lug‘at va maxsus ensiklopedik lug‘at, umumiy filologik lug‘at va maxsus filologik lug‘atga bo‘lib o‘rganish maqsadga muvofiq va qulay.

Imlo lug‘ati so‘zlarni arnaldagi irnlo qoidalariga muvofiq ravishda qanday yozish kerakligini o‘rgatadi. Demak, bunday lug‘at hammabop va amaliy tabiatga ega bo‘ladi va unga S.Ibrohironov va M.Rahmonovlarning 1956 va 1964-yillarda “O‘qituvchi” nashriyoti

1. Siz qanday lug‘atlarni bilasiz? Ularga izoh bering.
2. Lug‘atlar mundarijasi qanday tuziladi?
3. Lingvistik lug‘atlar bilan ensiklopedik lug‘atlarning asosiy farqlari nimada?
4. O‘zbek tilida maxsus lug‘atlarning qanday tiplari yaratilgan?
5. Tarjima lug‘atlarning qanday turlarini bilasiz?
6. Bir tilli va ko‘p tilli lug‘atlarning asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
7. Atoqli otlar bo‘yicha qanday lug‘atlar yaratilgan? Ularning boshqa tip lug‘atlardan farqi nimada?
8. Maktab o‘quvchilari uchun qanday lug‘atlar tuzilgan? Ularning o‘ziga xos xususiyatlari nimadan iborat?
9. Umumiy va xususiy izohli lug‘atlarning asosiy farqi nimadan iborat? Bunday lug‘atlarda so‘zlar qanday prinsip va tartib asosida tanlanadi va izohlanadi?
10. So‘zni izohlashning qanday usullari bor? Lug‘atlarda bu usullardan qanday foydalaniladi?

TOPSHIRIQLAR

1. Matnda berilgan so‘zlarning turli tipdagi lug‘atlarda qanday izohlanganligini kuzating.
2. Shu so‘zlarning matndagi ma‘nosi va qo‘shimcha ma‘nolarini izohlang.

1-variant

I. O‘zbekiston Respublikasi darslar o‘zbek tilida o‘tilmaydigan umumiy ta’lim maktablarida, hunar-texnika bilim yurtlarining hamda o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarining darslar o‘zbek tilida o‘tilmaydigan bo‘lim va gruppalarida o‘zbek tilini o‘quv planining asosiy fanlaridan biri sifatida o‘rganishni ta’minlaydi, bu fandan bitiruv imtihoni topshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi darslar rus tilida o‘tilmaydigan umumiy ta’lim maktablarida, hunar-texnika bilim yurtlarida, o‘rta maxsus va oliy o‘quv yurtlarida rus tilini o‘quv planining asosiy fanlaridan biri sifatida o‘rganishni ta’minlaydi. Bu fandan bitiruv imtihoni topshiriladi. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 15-moddasi).

II. O‘zbek tilining xalqimiz ijtimoiy hayotida va xalqaro miqyosdagi obro‘-e’tiborini tubdan oshirish, unib-o‘sib kelayotgan yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy an‘ana va qadriyatlarga sadoqat, ulug‘ ajdodlarimizning boy merosiga vorislik ruhida tarbiyalash,

mamlakatimizda davlat tilini to‘laqonli joriy etishni ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Madaniyat vazirligi, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, Respublika Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi, O‘zbekiston Yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Taraqqiyot strategiyasi” markazi va keng jamoatchilikning o‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilgan kun - 21-oktabr sanasini “O‘zbek tili bayrami kuni” deb e‘lon qilish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tuzilmasida xodimlarining umumiy cheklangan soni 9 ta shtat birligidan iborat Davlat tilini rivojlantirish departamenti tashkil etilsin va uning tuzilmasi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Davlat tilini rivojlantirish departamentining asosiy vazifalari etib belgilansin:

davlat tilini rivojlantirish, davlat tili to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan monitoringni amalga oshirish, ushbu sohada jamoatchilik nazoratining samarali shakllarini joriy etish kabi... (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonidan).

III. Choy odamlarga juda qadimdan ma‘lum. Kishilar choyni dastlab dori o‘rnidagina iste‘mol qilishgan. Bundan besh ming yil muqaddam yozib qoldirilgan qo‘l yozmalardan birida: «Choy kishining ruhini ko‘taradi, yurakning ishini muloyimlashtiradi, hordiq chiqaradi, tafakkurni jonlantiradi, tanani tozalaydi va yengillashtiradi, zehnni ravshanlashtiradi» deyilgan... Tropik va subtropik o‘lkalarda choy daraxtining bo‘yi sakkiz metrgacha boradi... hozirgi vaqtda bir yilda dunyo bo‘yicha taxminan 800 ming tonnadan 1000000 tonnagacha choy etishtiriladi, shuning uchdan bir qismi Hindistonga to‘g‘ri keladi...

Choy Rossiyaga dastlab Mongoliyadan 1638-yilda dori sifatida yuborilgan. Rossiyada choy ichish XVIII asr o‘rtalaridan boshlab odat tusiga kirgan. 1833-yili Qrimda, 1846-yili Gruziyada (Suxumi yaqinida) tajriba uchun choy ekilgan... Hozir choy Gruziyaning Qora dengiz sohillarida, Ozarbayjonning Kaspiy dengizi sohillarida va Krasnodar o‘lkasida yetishtirilmoqda. («Qiziharli geografiya»dan).

2-variant

I. Inson - noyob, ehtirosga to‘liq hodisa. Har bir odam dunyoga kelib takrorlanmas taqdir, takrorlanmas yo‘l bilan yashaydi... Inson bolasi kurashlar, to‘qnashuvlar, yaxshilikning g‘alabasi, yomonlikning

yitishi ichida voyaga yetadi. Onadan barkamol bo‘lib tug‘ilgan odam yo‘q... Har bir inson noyob bo‘lgani, har kimsaning taqdiri o‘zgacha bo‘lgani uchun ham zaminda yashash doimo lazzatli, doimo g‘aroyib, hamisha sirlidir.

Inson o‘z yuksakligi va takrorlanmasligi, abadiyat va o‘tkinchilik ichida yashashi, yaratishi, bugundan ertaga yaxshi hayot qoldirishga intilishi bilan noyobdir. Insonni shunday ko‘tarinki tushunish va tasavvur qilishdan, shunday tushuncha va tasavvurot orqali paydo bo‘ladigan muhabbatdan san‘at, she‘riyat tug‘iladi (I. G‘afurovdan).

3-variant

I. Muassasa, korxonalar, davlat va jamoat tashkilotlarining rasmiy muhrlari, tamg‘alari va ish qog‘ozlarining matnlari respublika davlat tilida bo‘ladi, ruscha tarjimada takrorlanadi.

Milliy-madaniy jamiyatlar va markazlarning muhrlari, tamg‘alari va ish qog‘ozlarining matnlari ular tanlagan tildan tashqari Respublika davlat tilida bo‘lishi shart.

Lavhalar, e‘lonlar, narxnomalar va boshqa ko‘rgazmali hamda og‘zaki axborot vositalari respublika davlat tilida yoziladi va e‘lon qilinadi hamda rus va boshqa tillarda takrorlanadi.

O‘zbekiston Respublikasi korxonalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning yorliqlari, korxonalar belgilari, ulardan foydalanish yo‘l-yo‘riqlari, o‘zbek tilida hamda millatlararo muomala tilida bo‘lishi ta‘minlanadi.

Mamlakatning boshqa respublikalaridan yoki chet ellardan keltirilgan mahsulotni savdo idoralari va tashkilotlari o‘zbek tilida va millatlararo muomala tilida bitilgan yo‘l-yo‘riqlar bilan ta‘minlashi lozim. (O‘zbekiston Respublikasi Qonuni, 22-modda).

II. San‘atkor yozuvchi lug‘atning hamma boy xazinasini bilan keng ko‘lamda tanish bo‘lmog‘i va undan eng aniq, eng ravshan, eng ta‘sirchanlarini saylab olish malakasiga ega bo‘lmog‘i mutlaqo zarur. Faqat bunday so‘zlarni o‘zaro mazmunan to‘g‘ri biriktirish bilan muallif o‘z fikrini a‘lo darajada rasmiylashtirishi, yaqqol kartinalar yaratishi, odamlarning jonli figuralarini shu qadar ishonarli qilib shakllantirishi mumkin. Adib pero bilan yozibgina qolmay, shu bilan birga, so‘z bilan go‘zal surat ham chizadi. Bunda u odamlar suratini rassom kabi harakatsiz chizmaydi, balki odamlarni beto‘xtov harakatda, faoliyatda, o‘zaro doimiy to‘qnashuvda; sinflar, guruhlar, alohida shaxslar kurashida aks ettirish uchun urinadi (A.Qahhordan).

4-variant

I. Hassos shoir A.Oripov bir nutqida she'rni ishlash mashaqqatlari haqida so'zlab: «To'g'risini aytsam, men uchun dunyodagi eng mashaqqatli va eng zavqli mehnat she'r ustida mashq qilishdir. Ba'zi she'rlarimni bir yillab tashlab qo'yib ishlaganman. Ehtimol, shu sababdir, yozganlarim ko'pincha xotiramda ham o'rnashib qoladi», - degan edi.

Ko'rinadiki, yozuvchilar so'z va so'z birikmalarining birini boshqasi bilan almashtirganda normaga mosligini emas, maqsadga qay darajada muvofiq kelishini ko'zda tutadilar.

Insonning nutq faoliyatida normadan boshqa yo'naltiruvchilar ham mavjud. Nutq muallifi o'z oldiga qo'ygan maqsadni eng aniq, eng to'g'ri, eng yaxshi, eng ta'sirli, eng tushunarli qilib ifodalaydigan so'zlarni, so'z birikmalarini, gaplarni, ohanglarni topishga, tanlashga intiladi. Bu vositalarni yaxlit qilib «maqsadga muvofiqlik» deb belgilash mumkin. So'zlovchining u yoki bu so'zning, u yoki bu ohangning, u yoki bu sintaktik qurilmaning matnning ma'lum bir butunlikdagi bo'lagida yoki butun matnda maqsadga muvofiqligini sezishi katta kuch bo'lib, mustahkam, namunali nutq yaratadi. Norma va maqsadga muvofiqlikning birgalikda harakati nutq madaniyatini ta'minlaydi (T.Qudratovdan).

5-variant

Salomat xola o'pkasini qo'ltiqlab, tashqariga otildi. Shirin bejo urayotgan yuragini bosib olish uchun ochiq derazadan yorug'likka boqdi. Oybotgan, cho'qqisi qirmizi tusga g'arq bo'lgan. Qon rang quyosh cho'kayotir. Qizg'ish, sarg'ish, ko'kish, qoramtir ranglardan tashkil topgan atlas tog'lar sari bir oq bulut unsiz suzib boryapti. Go'yo u adashib qolganga o'xshaydi. Huv jar labidagi kultepada bir eshak ag'anamoqda. Qo'shni bog'da, chinor shoxiga bog'lab qo'yilgan ko'k ot suvlig'ini chaynayapti. To'rt tup qayrag'och tagidagi so'ri bo'm-bo'sh. Ba'zan otasi bu yerda ulfatlari bilan chaqchaqlashadi. Hozir kuz. Ana, ko'chani changitib poda qaytmoqda. Ertaga bu manzaralarni ko'rmaydi, balki umrbod ko'rmas... Yana uning ko'zidan yum-yum yosh oqdi.

Shu zaylda ancha turdi, darvozadan qo'y-qo'zilar ma'rab kirayotganda, onasiga ko'maklashgani hovliga chiqdi va darhol o'choqqa qozon osib, o't yoqdi (T.Sobirovdan).

6-variant

Go'ro'g'libekka xudo farzand bermadi, oti o'chmadi. Shunda Go'ro'g'libek: «Aslida taqdir-qismatda bizga farzanddan taqsim

bo'lgani yo'q ekan» deb taqdirga tan berib, Hasanxonni Vayangandan, Avazxonni Xunxordan olib kelib, ikkovini ulum deb, iskasam gulim deb, jonu dilim deb, tobutimni chegasi, el-yurtimning egasi, o'lsam merosxo'rim deb, ikkovi bilan ko'nglini xush qilib, shularga bino qo'yib, «bolam, bo'tam» deb parvarish qilar edi.

Avazxonni Og'a Yunus pari «O'g'lim» deb yoqasidan solib, etagidan olib edi. Hasanxonni Misqol pari yoqasidan solib, etagidan olib edi. Ikki pari ikkovining enasi bo'lib edi. Parilar ikkoviga bino qo'yib, bolam deb suyib, har qaysisi o'z uylarida parvarish qilib tarbiya qilar edi.

Ikkovini katta qildi. Avazxon bilan Hasanxon ham sher haybatli, yo'lbars kelbatli, qoplon yurakli, arslon bilakli yigitlar bo'ldi...

Avazxon bir-ikki yildan so'ng bir qizli bo'ldi. Go'ro'g'libek quvonib, suyunib bunga ham to'ylar qilib, otini Gulnor qo'ydi. Enagalar parvarish qilib, boqib, bachalarni tarbiya qilib katta qildi...

Gulnor ko'p suluv: yaxshi suratli, shirin so'zli, quralay ko'zli, tor biqin, o'rta bo'yli, uzun o'yli, keng ko'krak, xushxayol, zehni tez serfahm qiz edi («Ravshan» dostonidan).

7-variant

Iyul kunlarining birida ertalab choydan so'ng (nonushtadan so'ng) Saidiy o'zining ish stoli yonida o'qishga erinib (hushi kelmay) kitob varaqlab o'tirar edi. Kimdir hansiragan tovush (ovoz) bilan derazadan «Rahimjon» deb chaqirdi-da, to'xtamay darvoza tomonga o'tib ketdi. Saidiy irg'ib (sapchib) turdi va pardani ko'tarib qaradi. Chaqirgan kishi (kimsa) darvozadan kirdi. Saidiy uni orqasidan ko'rib qoldi va shu ondayoq (shu lahzada) bu odam (kishi) unutayozgan do'sti - Ehson ekanini bildi-da, negadir hammayog'i uvishib (jimirlab) ketdi. U Ehsonning hozir kelishini sira (hech) xohlamas (istamas) edi. Ehsonning kelishi unga universitet binosiga rabfak zalidan o'tishdan ham malolroq bo'ldi. Hayal (zum) o'tmay Ehson eshikni ochib kirdi va talay (ancha) vaqtgacha Saidiyni quchog'idan qo'yib yubormadi. Saidiy Ehsonning kelganiga benihoya (nihoyatda, nihoyasiz) shod ekanini ko'rsatish uchun aytgan hamma gapi, har bir harakati uquvsiz artist (san'atkor) tomonidan birinchi (ilk) martaba birinchi repetitsiyada (mashqda) bajarilgan rolday yasama chiqdi (A.Qahhordan).

8-variant

Ertasi kuni mahdum keldi. Muhammad Rajabbek mahdum bilan so'zlashib, Anvarni o'rda xizmatiga olish fikrida bo'lganligini, buning

uchun arabcha, forschadan yana ham chuqurroq ma'lumot olishi lozimligini va hisob o'rganishi kerakligini aytdi. Mahdum Muhammad Rajabbekning Anvarga bunchalik marhamati uchun bir oz shoshib qolsa ham, lekin bu mehribonchilik sababiga yaxshi tushunganligi jihatidan, avvalo, bekning yetimparvarligini, so'ngra Anvarning zako va iste'dodini maqtadi. Anvarni odam qilish yo'lida chekkan o'z mashaqqatlarini ham shikoyat yo'sinida so'zlab chiqqach, bu kunlarda ehtimomi tom bilan Anvarga fors va arabiydan dars berib turganini va alhol ham Anvar forsha tazkira va tahrirlar yoza olishini bayon qilib, necha xil uzrlar ichida o'zining ilmi hisobdan bahrasizligini bildirdi, ya'ni Anvarning ilmi hisob o'rganishi uchun boshqa muallim kerak bo'lur, dedi (A.Qodiriydan).

9-variant

Bobur agar yov bilan bu yerda to'qnashsa, qishloq oyoq osti bo'lishini o'yladi. Bu yerda u bilan birga yurgan onasini, bek va navkarlarini yovdan omon saqlash uchun ham, o'zi boyagi cho'ponga o'xshash qasoskorlarning tasodifiy qurboni bo'lib ketmasligi uchun, dahkatlik kadxudoning tuzini oqlash uchun ham Bobur yana qaytadan qurol-yaroq taqishga va odamlariga boshchilik qilishga majbur ekanini, hozir shundan boshqa iloji yo'qligini his qildi-yu, og'ir "uh" tortdi:

- Shohlik taqdirimdan yalang oyoq qochib qutulolmas ekanmen! Janob Sherimbek! Siz endi Qosimbekning o'rnida amiral umarosiz!

Boburni 12 yoshida Olatog' tomonlarga olib qochib ketib qutqarmoqchi bo'lgan keksa Sherimbek tog'oyi quvonib ta'zim qildi:

- Inoyatingizdan sarafrozmen, amirzodam! – dedi.- Buyuring!

- Odamlarimizning barchasiga amrimizni yetkazing. Ko'chko'ronni yig'ishtirsinar! Shu bugun kechasi Dahkatdan jo'nab ketgaymiz!

- Muborak buyrug'ingiz alhol ado etilur, amirzodam!

Yana zirhli kiyimlar kiygan, qurol-yaroq taqqan Bobur o'sha kecha tog'dan-toqqa oshib kunchiqish tomonga - Isfaraga qarab ketdi. (P.Qodirovdan).

10-variant

- Har kimsa ham pushti panohning marhamatlariga loyiq ko'rila olmaydi. Pushti panoh o'zlarini domodlikka chog'lab bu bashoratni bizlar orqali sizga etkazishga amr qildilar...

- Taqsimda ojiza borligini pushti panoh eshitgan ekanlar...- dedi tunqotar.

- Mirzo Anvar kabi donishmand yetishtirgan kishi oqila va jamila qiz ham tarbiya qilmaganmukin degan andishaga boribdirlar. Shogirdingizga qilgan marhamatni janobingiz va karimangiz uchun ham darig‘ tutmaslik niyatida, bizni xizimatingizga buyurdilar. Albatta, bu marhamatning nechog‘lik ulug‘ligini sizga so‘zlab o‘ltirish hojat emas.

- Qulliq, rahmat, pushti panohniyg davlatlari ziyoda bo‘lsin!- dedi mahdum...

- Janoblariga ojizona uzr... Avvalo kamina ojiz-notavon, aftodahol, pushti panoh jihatlaridan sodir bo‘lgan ulug‘ marhamatga sazovor va loyiq emasdirman; soniyan - ojizamiz olampanohdek ulug‘ zotga hamxob bo‘lmoq uchun kofiy tarbiya olmagan bir qulbachchadir... Bas, biz shu kayfiyatda onhazratning mehribonchiliklariga arzirmizmu, taqsirlar?

- Pushti panohning sizdek ahli ilmlarga qaratilgan daryo marhamatlari arzitar, taqsir! (A.Qodiriydan)

TESTLAR

1-variant

1. Ters lug‘atlarda so‘zlar qanday beriladi?

- a) o‘zakdosh so‘zlarga asoslanib beriladi.
- b) so‘zlar oxiri tomondan bo‘lgan alfavit tartibida joylashtiriladi.
- c) so‘zlar alifbo tartibida beriladi.
- d) faqat atoqli otlar beriladi.

2. Leksik birliklarning tarjima lug‘ati qanday lug‘at?

- a) ruscha-o‘zbekcha tarjima lug‘ati.
- b) frazeologik birliklar tarjima lug‘ati.
- c) terminologik tarjima lug‘at.
- d) izohli lug‘at.

3. “O‘zbek tili sinonimlarining izohli lug‘ati”ning muallifi kim?

- a) A.Hojiyev.
- b) M.Sodiqova.
- c) Sh.Rahmatullayev.
- d) Z.Ma‘rufov.

4. Berilgan lug‘atlardan qaysi biri maxsus tarjima lug‘atiga kiradi?

- a) “Ruscha-o‘zbekcha lug‘at”.
- b) “O‘zbekcha-ruscha lug‘at”.

c) “Adabiyotshunoslikdan qisqacha ruscha-o‘zbekcha terminologik lug‘at”.

d) “Inglizcha-o‘zbekcha lug‘at”.

5. Chastotali lug‘at nima haqida ma‘lumot beradi?

a) bir o‘zakli so‘zlar haqida.

b) so‘zlarning qo‘llanish miqdori va foizi haqida.

c) mavjud imlo qoidalariga binoan yozilishi haqida.

d) so‘z yoki atamalarning boshqa tillardagi tarjimai haqida.

6. Ters lug‘atga mansub so‘zlar qatorini toping.

a) вкусно – mazali, shirin.

b) puflab shishirmoq – надуть.

c) muddat, saodat, soldat.

d) botir, jasur, dovyurak, qo‘rqmas.

7. Lingvistik lug‘atlarning mualliflari qaysi javobda to‘g‘ri berilgan?

a) R.Mallin, N.Hotamov, X.Hasanov.

b) A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, R.Qo‘ng‘urov.

c) M.Asqarova, O.Azizov, G‘Abdurahmonov.

d) V.Reshetov, J.Bo‘ronov, T.Aliqulov.

8. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati” (“Rus tili” nashriyoti, 1991) lug‘atining qaysi turiga kiradi?

a) lingvistik lug‘at.

b) terminologik lug‘at.

c) tarjima lug‘at.

d) ensiklopedik lug‘at.

9. Bo‘g‘iz undoshi bilan boshlanishi kerak bo‘lgan so‘zlarni aniqlang.

1) *...atti-harakat*; 2) *...orgHn*; 3) *...urram*; 4) *...adik*.

a) 1, 2, 3

a) 2, 3, 4

c) 2, 4

d) 1, 3

10. Lotin yozuviga asoslangan o‘zbek aiifbosi asosida yozilgan quyidagi so‘zlarning qaysi biri imlo qoidasiga ko‘ra xato yozilgan?

a) *aviasiya*

a) *bargga*

c) *noyabr*

d) *oktabr*

2-variant

1. Qaysi qatordagi soʻz imlo jihatdan xato qoʻllangan?

- a) Navroʻz bayrami tantanalari televideniye orqali namoyish qilindi.
- b) Yaralarim uncha ogʻir emas, mana turpoqdan tashqarida yuribman.
- c) Oʻgʻrini tutib, podsho huzuriga keltirishdi.
- d) Hazm boʻlmagan taom uniyegan odamning oʻziniyeydi.

2. Toʻgʻri yozilgan soʻzlar qatorini belgilang.

- a) hayʻat, husayni, leytenant
- b) haftafaxm, shugʻillanuv, badamal
- c) elektrfikatsiya, afv, tasavuf
- d) shprints, baʻqamti, baynalminal

3. Qaysi qatordagi soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi?

- a) bodom // qovoq, toʻq // qizil, kecha // kunduz
- b) orom // baxsh, qiyma // taxta, ur // toqmoq
- c) uyma // uy, kiyim // kechak, dam // badam
- d) gul // chechak, bordi // keldi, och // sariq

4. Quyidagi soʻzlarning qaysi birida nuqtalar oʻrnida boʻgʻiz tovushi ishlatiladi?

*1) musho...ada: 2) qabL.lik: 3) xo...ish: 4) mu...lis:
5) xafa...ol: 6) gul...ayri: 7) ala...simoq: 8) ala...
siramoa: 9) ta...lika: 10) mu...ofaza.*

- a) 1,2,6,8,10
- b) 1,2,3,7,8,9,10
- c) 1,2,3,5,8,9,10
- d) 2,3,5,6,7,8

5. Qaysi qatordagi soʻz toʻgʻri yozilgan?

- a) *ma sud*
- b) *ma sul*
- c) *maʻyus*
- d) *taʻlat*

6. Qaysi qatordagi soʻzlarning boʻsh oʻrinlan h harfi bilan toʻldirilishi kerak?

- a) *i.Jos, mi..., i...chant*
- b) *i...roj, sa...iy, i...tiyor*
- c) *de...qon, ze...n, e...rom*
- d) *toʻ...ta, ta...ta, i...tilof*

7. Qaysi qatordagi soʻzlarning boʻsh oʻrinlari / harfi bilan toʻldirilishi kerak?

- a) to 'lq...n, to 'k...n, to 'sq...n b) uch...n, tutq...n, but...n
c) muxb...r, muhs...n, mud...r d) a, d

8. Qaysi qatordagi soʻz imlo jihatdan xato qoʻllangan?

- a) Navroʻz bayrami tantanalari televideniye orqali namoyish qilindi.
b) Yaralarim uncha ogʻir emas, mana turpoqdan tashqarida yuribman.
c) Oʻgʻrini tutib, podsho huzuriga keltirishdi.
d) Hazm boʻlmagan taom uniyegan odamning oʻziniyeydi.

9. Toʻgʻri yozilgan soʻzlar qatorini belgilang.

- a) hay'at, husayni, leytenant
b) haftafaxm, shugʻillanuv, badamal
c) elektrfikatsiya, afv, tasavuf
d) shprints, ba'qamti, baynalminal

10. Qaysi qatordagi soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi?

- a) bodom // qovoq, to 'q // qizil, kecha // kunduz
b) orom //baxsh, qiyma // taxta, ur // toqmoq
c) uyma // uy, kiyim // kechak, dam // badam
d) gul // chechak, bordi // keldi, och// sariq

ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 1989.
<https://lex.uz/docs/-10939>
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг «Ўзбекистон Республикасининг “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни қабул қилинганининг ўттиз йиллигини кенг нишонлаш тўғрисида»ги Қарори.
3. Ўзбекистон Республикасининг 1995 йил 21 декабрда янги таҳрирда қабул қилинган “Давлат тили ҳақида”ги Қонуни.
4. «Лотин ёзувига асосланган ўзбек алифбосини жорий этиш тўғрисида» Ўзбекистон Республикаси Қонуни. 2003 йил 2 сентябрь.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги «Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида»ги ПФ-4947-сонли Фармони // «Халқ сўзи», 2017 йил 8 февраль, №28 (6722).
6. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 17-февралдаги ПҚ-2789 сонли Фанлар академияси фаолияти, илмий тадқиқот ишларини ташкил этиш, бошқариш ва молиялаштиришни янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисидаги Қарори.

Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar.

7. Ақобиров С. Ўзбек тилининг изоҳли луғатида қўшма сўзлар // Ўзбек тили ва адабиёти. -Тошкент, 1965. №5. –Б.35-38;
8. Boltayev M. Lotin yozuviga asoslangan yngi o'zbek alifbosi va imlosi. O'quv qo'llanma. – Samarqand, 1999. – 146 b.
9. Бафоев Б. Кўхна сўзлар тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – 152 б.
10. Гайгер Р.М. Деминутивлар лексемалашуви масаласига доир // Вопросы структуры и функционирования русского языка. – Томск, 1984. Вып.5. – С. 3-14.
11. Иброҳимов С., Бегматов Э., Аҳмедов А. Ўзбек тилининг имло луғати. – Тошкент, 1976. – 632 б.
12. Йўлдошев Б. Фразеология тарихидан лавҳалар. – Самарқанд: Суғдиёна, 1998. –110 б.

13. Каримова Г. Грамматикалашиш ҳодисасига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 2002. -№4. –Б.74-75.
14. Ким И.Т. Лексикализация нутқ ҳодисаси сифатида // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 2005. -№2.-Б.102.
15. Маматов А.Э. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида лексик ва фразеологик норма муаммолари. – Тошкент, 1991. – 274 б.
16. Маматов Н. Кўшма сўзлар кўшиб ёзилади // Ўқитувчилар газетаси. 1981 йил 23 сентябрь;
17. Маматов Н. Ўзбек тилида кўшма сўзлар. – Тошкент, 1982;
18. Маматов А. Этимологик кузатишлар. – Тошкент, 2013. - 123 б.
19. Маҳмудов Н., Одилов Ё. Сўз маъно тараққиётида зиддият. – Тошкент: Akademnashr, 2014, – 284 б.
20. Миртожиев М. Ўзбек тили лексикологияси ва лексикографияси. – Тошкент: ЎЗМУ, 2000. – 80 б.
21. Москвичева С.А. Лексемалашувнинг таърифига доир (Отлар лексик-семантик вариантларининг ЛСВлар формал дифференциацияси жараёнидаги лексикализацияси. [http://language.psu.ru/bin/view.cgi?art=0139 &th=yes &lang=rus](http://language.psu.ru/bin/view.cgi?art=0139&th=yes&lang=rus)).
22. Неъматов Ҳ., Бозоров О. Тил ва нутқ. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – 32 б.
23. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.
24. Неъматов Ҳ. Сўз яшаш қолипи, ясалган ва ясама сўз хусусида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2007. – № 1. – Б.16.
25. Нурмонов А., Маҳмудов Н. Ўзбек тили сўз ясашига бир назар // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1987. -№3. -Б.36-38.
26. Нурмонов А. Айюб Ғуломовнинг морфемик қарашлари //Тилшуносликнинг долзарб масалалари. VI китоб. Илмий мақолалар тўплами. – Тошкент: Академ нашр, 2012. –Б. 52-56.
27. Пинхасов Я.Д. Ўзбек тили фразеологиясининг баъзи бир масалаларига доир // Фразеология масалалари, СамДУ асарлари, янги серия, 106-чиқиши. – Самарқанд, 1961.
28. Раҳматуллаев Ш. Нутқимиз кўрки. – Тошкент, 1970. – 59 б.
29. Саломов Ғ. Тил ва таржима. – Тошкент: Фан, 1966.

30. Соболева П.А. Лексикализация множественного числа и словообразование // Лингвистика и поэтика. – М., 1979. – С. 47-85.
31. Соссюр де Ф. Труды по языкознанию / Курс общей лингвистики. – М.: Прогресс, 1977. – С.157.
32. Суник О.П. Общая теория частей речи. – М.Л.: Наука, 1966. – 132 с.
33. Татаринцев Б.И. Смысловые связи и отношения слов в тувинском языке. – М.: Наука, 1987. – 200 с.
34. Тимофеев К.А. Сўз ясашида вариантлик (ўзак морфемалар вариантлиги) / Вариативные отношения в лексике. – Новосибирск, 1986. -С. 3-13.
35. Тожиев. Ё.Ўзбек тилида кўшма сўзларнинг ясашига доир / ЎЗМУ илмий ишлар тўплами. - Тошкент, 2011. –Б.11-14.
36. Тожиев Ё. Яна сўз, лексема, сўзшакл, морфема ҳақида // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т., 2008. – № 6. – Б. 43-50.
37. Усмонов К. Тарихий ўзак масаласи. – Т.: Ўқитувчи, 1994. – Б.14-42.
38. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлири филология факультетлари талабалари учун дарслик. Қайта ишланган ва тўлдирилган учинчи нашри. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – 400 б.
39. Элтазаров Ж. Грамматикализация ҳодисаси // Ўзбек тили ва адабиёти, 1992, 5-6-сон. 61-67-бетлар.
40. Элтазаров Ж. Фразеологик бирликларнинг лексемалашуви ҳақида // Актуальные проблемы фразеологии. Материалы республиканской конференции. – Самарқанд, 1995. 82-83-бетлар.
41. Қўнғуров Р. Субъектив баҳо формаларининг семантик ва стилистик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 1980. –Б.117-138.
42. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида тасвирий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1966. –154 б.
43. Қўнғуров Р. Ўзбек тилида ўзгармайдиган сўзлар. I, II қисмлар. – Самарқанд, 1978, 1980.
44. Ғуломов А. Ҳозирги замон ўзбек тилида кўшма сўзларнинг имлоси ҳақида (рус тилида) / «Ученые записки ТашГПИ» им. Низами. Фиологический сборник, вып. 2. – Ташкент, 1954;

45. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида кўшма, жуфт ва такрорий сўзлар. – Тошкент: Фан, 1963. – 145 б.

46. Ҳожиёв А. Сўз яшаш усуллари // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975. 4-сон. 43-48-бетлар.

47. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. Т.3. Сўз яшалиши ва лексика. – Тошкент: Фан, 1991. – 188 б.

48. Ҳожиёв А. Ҳозирги ўзбек тилида форма яшалиши. – Тошкент, 1979. – 80 б.

49. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз яшалиши. – Тошкент, 1989. – 112 б.

50. Ҳожиёв А. Ўзбек тили сўз яшалиши тизими. – Тошкент: Ўқитувчи, 2007.

Foydalanilgan boshqa adabiyotlar dissertatsiya va avtoreferatlar

51. Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол.фан.д-ри ...дисс. автореф. – Тошкент, 1994. – 47 б.

52. Маматов А. Ўзбек тили фразеологизмларининг шаклланиши масалалари: Филол.фан.д-ри ...дисс.автореф. – Тошкент, 1994. – 56 б.

53. Шодиев Ф.Т. Ҳозирги ўзбек тилида бир бўғинли сўзларнинг структур-семантик талқини ва деривацион хусусиятлари: Филол. Фан. номз... дисс. автореф. – Т., 2008. – 24 б.

54. Хайруллаев Х.З. Тил ва нутқ бирликларининг иерархик муносабатлари: филол фан д-ри. дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 76 б.

Lugʻatlar

55. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М.: Советская энциклопедия, 1969. – 608 с.

56. Кошғарий Маҳмуд. Девону луғотит турк. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С.М.Муталлибов. Уч томлик. I том. – Тошкент: Фан, 1960. – 499 б.; II том. – Тошкент: Фан, 1961.– 421 б.; III том.–Тошкент: Фан, 1963.–457 б.

57. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.

58. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати. Иккинчи қисм. – Тошкент, 1998. – 108 б.

59. Раҳматуллаев Ш., Қодиров М. Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати. Учинчи қисм. – Тошкент, 1999. – 144 б.
60. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг қисқача этимологик луғати. Тўртинчи қисм. – Тошкент, 1999. – 144 б.
61. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати (Туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
62. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати. Иккинчи қисм. – Тошкент: Университет, 2003. – 591 б.
63. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Икки томлик. – М.: Русский язык, 1981. I том. – 631 б.; II том – 717 б.
64. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. А.Мадвалиев таҳрири остида. I жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2006. – 680 б.
65. Қўнғуров Р., Тихонов А. Ўзбек тилининг чаппа луғати. – Самарқанд, 1968. – 240 б.
66. Ғуломов А., Алиқулов Т. Ўзбек тили омонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1984.
67. Ҳожиёв А., Раҳматуллаев Ш. Қўшма сўзлар имлоси ва луғати. – Тошкент: Ўқувпеднашр, 1961. – 215 б.
68. Ҳожиёв А. Тилшунослик терминларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон Миллий энциклопедияси, 2002. – 168 б.
69. Panasenko E.D., Umarov E.A. O'zbek tilining imlo lug'ati. – Toshkent: Iqtisodiyot va huquqiy dunyosi, 1998. – 192 b.

Internet ma'lumotlari

70. <http://biology.krc.karelia.ru/misc/bslov/13/13b.h>. (1).
71. http://ksana-k.narod.ru/Book/Lingvo_termin/1.htm. (2).
72. <http://www.islu.ru/danilenko/articles/sootnoshenij...> (3).
73. http://lib.usu.ru/diglib/etd/urgu_0054s.pdf. (4).
74. <http://www.philol.msu.ru/rus/kaf/otipl/stud/sc98>. (5).
75. <http://language.psu.ru/bin/view.cgi?art=0139&th=yes&lang=rus>. (6).
76. <http://www.tnu.crimea.ua/tnu/magazine/scientist/ed...> (7).
77. <http://madrona.uraic.ru/sites/edu/vuz/russian/term...> (8).
78. <http://www.omsu.omskreg.ru/vestnik/articles/y1998>. (9).
79. <http://www.learning-russian.gramota.ru/journals.ht...> (10).
80. <http://rus.1september.ru/article.php?ID=200302813>. (11).
81. http://www.ipk.alien.ru/education/met_rek/f/lub2.s... (12).
82. <http://www.islu.ru/danilenko/articles/sootnoshenij...> (13).
83. http://referatus.ru/r/840/refpart_3.shtml. (14).

84. <http://www.nature.ru:8609/db/msg/1187584/>. (15).
85. <http://www.krugosvet.ru/articles>
86. <http://www.jstor.org/stable>
87. <http://www.ling.ed.ac.uk/linguist/>
88. <http://en.wikipedia.org/wiki/csli-publications>.
89. <http://dshinin.ru/SC/Russian/www.hi-edu.ru/x-books-free/xboo...>
90. http://www.infolex.ru/IZV4_81.html.
91. <http://www.ncstu.ru/content/docs/pdf/conf/past/2001/xxxi/07/15.pdf>. (16).
92. <http://iz.bspu.ru/index.php?in=saxib.html>. (17).
93. <http://utmn.ru/frgf/No16/text11.htm>. (18).
94. [Русский поцелуй // http://www.learning-russian.gramota.ru/journals.htm](http://www.learning-russian.gramota.ru/journals.htm)).
95. <http://biology.krc.karelia.ru/misc/bslov/13/13b.h>.
96. http://ksana-k.narod.ru/Book/Lingvo_termin/1.htm.
97. <http://madrona.uraic.ru/sites/edu/vuz/russian/term....>
98. <http://referatus.ru/r/840/refpart3.shtml>. 14-бет.
99. <http://rus.1september.ru/article.php?ID=200302813>;

Mundarija

Soʻz boshi.....	6
I-qism. Fonetika.	
1-amaliy. Fonemalar tasnifi.....	8
2-amaliy. Fonetik hodisalar tahlili.....	21
3-amaliy. Grafika va orfografiya.	
Harflar va qoʻshimchalar imlosi.....	36
Adabiyotlar.....	49
II-qism. Leksikologiya.	
1-amaliy. Leksema (soʻz)ning semantik strukturasi va koʻp maʼnolilik.....	51
2-amaliy. Shakl munosabatiga koʻra leksemalar.....	63
3-amaliy. Sinonimiya va uning xususiyatlari.....	76
4-amaliy. Iboralar tasnifi.....	90
5-amaliy. Oʻzbek lugʻatchiligi.....	104
Adabiyotlar.....	116

Maftuna Safarova

HOZIRGI O‘ZBEK TILI

*(fonologiya, orfoepiya, orfografiya, leksikologiya,
frazzeologiya, leksikografiya)*

O‘QUV QO‘LLANMA

Texnik muharrir:

G.Samiyeva

Musahhih:

M.Raximov

Sahifalovchi:

M.Arslonov



Nashriyot litsenziyasi AI № 178. 08.12.2010. Original –
maketdan bosishga ruxsat etildi: 14.10.2023. Bichimi 60x84.
Kegli 16 shponli. «Palatino Linotype» garn. Ofset bosma
usulida. Ofset bosma qog‘oz. Bosma tabog‘i 8,75 Adadi 30.
Buyurtma № 237.



«Sharq-Buxoro» MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Buxoro shahar O‘zbekiston Mustaqilligi ko‘chasi, 70/2 uy.
Tel: 0(365) 222-46-46